

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/384601220>

Zamonaviy tilshunoslik muammolari (Uslubiy qo‘llanma)

Book · March 2024

CITATIONS
0

READS
600

1 author:



[Xurshida Marselovna Qodirova](#)
Urgench State University

75 PUBLICATIONS 1 CITATION

SEE PROFILE



X.M.QODIROVA

USLUBIY QO‘LLANMA

**QODIROVA XURSHIDA
MARSELOVNA**

**ZAMONAVIY
TILSHUNOSLIK
MUAMMOLARI**

USLUBIY QO‘LLANMA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

O‘zbek tilshunosligi kafedrası



X.M.QODIROVA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sirtqi guruh talabalari uchun mo‘ljallangan
uslubiy qo‘llanma

Urganch - 2024

UO‘K: 811.512.133’1

BBK: 81.20’zb

Q 53

Qodirova X, M.

Zamonaviy tilshunoslik muammolari [Matn]: uslubiy qo‘llanma /
X.M.Qodirova.-Urganch: Khwarezm travel, 2024.- 120 b.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma universitetlarning filologiya fakultetlari sirtqi guruh talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” fani bo‘yicha o‘tkaziladigan ma‘ruzalar, amaliy va seminar mashg‘ulotlar o‘rin olgan, tegishli topshiriqlar berilgan. Shuningdek, qo‘llanmadan tadqiqotchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalanishi mumkin.

Tuzuvchi

PhD, dots.v.b. X.M.Qodirova

Taqrizchilar:

DSc, dots. D.Yuldoshev

DSc, dots. H.Dusmatov

*Uslubiy qo‘llanma Urganch davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining
2024-yil 22-fevraldagi 3-son yig‘ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.*

ISBN: 978-9910-727-11-5

© X.M.Qodirova, 2024

©“Khwarezm travel” nashriyoti, 2024

SO‘Z BOSHI

Istiqlol natijasi o‘laroq, o‘zbek tilshunosligi tom ma’noda mustaqil milliy fan sifatida o‘zini namoyon qildi. Eng muhimi, tilimizning milliy tabiatiga to‘laonli ilmiy-nazariy baho berildi. Qo‘lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o‘rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining keng qamrovli tadqiqiga o‘tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o‘zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg‘or va samarador tadqiq usullari asosida tekshirishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikning ayrim juz’iy muammolariga dolzarblik tusi berilayotgani holda, mavjud ilmiy salohiyat muhim muammolar yechimiga yo‘naltirilmayapti, sohaning istiqbolini belgilaydigan asosiy vazifalar hamon kun tartibidan chetda qolmoqda. Shuning uchun ushbu kursda o‘zbek tilshunosligining yangi asrda hal etilishi lozim bo‘lgan, to‘la ma’noda dolzarb muammolari haqida so‘z boradi.

Biz ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmani tilshunoslikning so‘nggi yutuqlariga tayangan holda tayyorlashga harakat qildik. Biz ushbu kitobchada N.Mahmudov, H.Dadaboyev, A.Nurmonov, Sh.Safarov, B.Mengliyev, D.Xudoyberganova, M.Hakimov, M.Yuldashev kabi o‘zbek tilshunosligining zabardast vakillari tadqiqotlaridan va xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridan unumli foydalandik. Shuning uchun o‘zimizni muallif deb emas, musannif deb hisoblaymiz. Ushbu kitobchanning yuzaga kelishi uchun tadqiqotlaridan foydalangan barcha ustozlarga minnatdorchilik bildiramiz.

MA'RUZA MASHG'ULOT MAVZULARI

MA'RUZA: "ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI" KURSIGA KIRISH. O'ZBEK TILINING LINGVOKULTUROLOGIK VA SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

Reja:

- "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
- Fanning maqsad va vazifalari.
- Lingvokulturologiya va uning o'rganish obyekti haqida.
- Til va madaniyat mushtarakligi.
- Nutqiy vaziyat tushunchasi.
- Nutqning sotsial xususiyati va nutq vaziyati.

Tayanch tushunchalar: *Formal tilshunoslik, strukturaviy grammatika, gnoseologiya, antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologiya, evfemizm, konsept, madaniy sema, madaniy fon, geyshtalt, lakuna, ramz, presedent nom, pragmatika, fenomenologiya, nutq vaziyati, nutqiy akt, diskurs, tagma'no, strukturalizm, til, jamiyat, tilning ijtimoiyligi, dialekt, til me'yor, tilning ijtimoiy tabaqalanishi, sotsiolingvistika.*

"Zamonaviy tilshunoslik muammolari" kursi va uning maqsadi talabalarni zamon talablaridan kelib chiqqan holda o'zbek tilshunosligida qo'yilayotgan yangi ijtimoiy buyurtma bilan tanishtirish uchun yangi lingvistik paradigma va yo'nalishlar haqida ilmiy-metodologik ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu fan quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- o'zbek tilshunosligining rivojlanish bosqichlari to'g'risida ma'lumot berish;
- o'zbek formal tilshunoslikning maqsadi va vazifalari to'g'risida ma'lumot berish;
- o'zbek substansial tilshunoslikning maqsadi va vazifalari to'g'risida ma'lumot berish;

- jahon tilshunosligining muvaffaqiyatlari va o‘zbek tilshunosligi oldiga qo‘yilayotgan talablarni tushuntirish;
- jahon tilshunosligi eng yangi yo‘nalishlari haqida axborot berib borish;
- o‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlarining dolzarb muammolari haqida ma’lumot berish.

Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uni o‘qitishning ahamiyati. “Tilshunosligining dolzarb muammolari” fani gnoseologiya, tasavvuf, mantiq (formal, dialektik), ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, axborot texnologiyalari fanlari bilan bog‘liq. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Til tarixi”, “Tilshunoslikka kirish”, “Umumiy tilshunoslik” fanlari bilan uzviy ketma-ket bog‘lanadi.

Talabalarda “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” fani bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, kuchaytirish, fanning o‘ziga xos nazariyasi, til materiallarini ilmiy tahlil etish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita amaliy va ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu fanni o‘rganish va tadqiq etish bugungi kun nuqtayi nazaridan juda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

“Zamonaviy tilshunoslik muammolari” kishilik jamiyatining amaliy ehtiyojlari ta’sirida yuzaga kelgan tilshunoslikning mustaqil bir sohasidir. Kishilik jamiyatining taraqqiy eta borishida “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” fanining yechishi lozim bo‘lgan masalalari ham, shu masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan yo‘l-yo‘riqlari va usullari bilan o‘sib boradi. Shu kabi muammo va masalalarni an’anaviy va zamonaviy muammolarga ajratish lozim.

An’anaviy muammolar qatoriga tilshunoslik tomonidan asrlar davomida yechib kelingan, lison hamda nutq hodisalarini imkoniyat doirasida tadqiqi va hamisha jamiyatning o‘quv-o‘qituv ishlarini yetarli shaklda tashkil qilishga yo‘naltirilgan amaliy tadqiqotlarni kiritish lozim.

Fanni o‘rganishda quyidagilar haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz:

O‘zbek tilshunosligining fan sifatidagi tarixiy taraqqiyoti bosqichlari va ularga xos vazifalar.

XX asr 50-80-yillari o‘zbek tilshunosligining muammolari va yechimlari tahlil qilinadi.

XX asr yakuni o‘zbek tilshunosligi muammolari, yechimi to‘g‘risida.

XXI asr o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari tadqiqining boshlanishi, borishi, natijalarining yangiligi.

Formal, substansial va antroposentrik tilshunoslik. Ularning farqli va umumiy jihatlari.

Jahon lingvistikasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri, dunyo tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb masalalarni ijobiy hal qilishda munosib o‘rin qo‘shib kelayotgan o‘zbek tilshunosligi ham o‘tgan asr davomida rang-barang dunyoqarashlar, ta‘limotlar, nazariyalar ta‘sirini boshidan kechirdi, umumlingvistik jarayonlar qamrovida qoldi.

O‘zbek nomli etnosotsial jamoa, ya‘ni millatga taalluqli, uning boy tarixini o‘zida aks ettiruvchi, kundalik aloqa-muloqot ehtiyojini to‘la-to‘kis qondiruvchi, uni birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi o‘zbek tilining tabiatini, shakllanish, taraqqiy topish bosqichlari kechagi va bugungi holati, ertangi istiqboli xususida aniq hamda ravshan tasavvurga ega o‘zbek tilshunosligi uchun hozirgi davr tilshunosligida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar yot emas. Shuni ta‘kidlash lozimki, o‘zbek tili tizimida nafaqat qardosh turkiy tillarga oid xususiy jihatlar, shuningdek dunyoning besh qit‘asida mavjud mustaqil tillarga doir umumiy qonuniyatlar ham qaror topgan.

Shu tomondan, o‘zbek tilshunosligi bosib o‘tgan murakkab yo‘lga ilmiy yondashishda, obyektiv baho berishda unga xos qonuniyatlarni umumlingvistik hodisalar, jarayonlardan ajratib qo‘ymaslik yoki yulib olmaslik talab qilinadi.

Ma‘lumki, XX asr boshlarida sotsiologiya va psixologiyadan uzoqlashgan lingvistika “Til o‘zida va o‘zi uchun” shiorini o‘zining yagona obykti sifatida e‘lon qildi. Ferdinand de Sossyur ilgari surgan umumiy semiologiya loyihasi semiotikada

qisman ifodasini topgan bo'lsa-da, lingvistika o'z mustaqilligini yo'qotmadi, semiotikadek umumiy fanning qismiga aylanib ketmadi. Y.D.Aprsyanning qayd etishicha, struktur paradigma tufayli sodir bo'lgan qayta qurish an'anaviy lingvistik muammolarni yanada chuqurlashtirdi, boyitdi va kengaytirdi; lingvistikani "ilmiy haqiqatni izlash, axtarish metodologiyasi" bilan qurollantirdi.

XX asr oxiriga kelib tilni belgilar tizimi tarzida tadqiq etish masalasi tadqiqotchilarni ortiqcha qiziqtirmay qo'ydi. Lingvistika yana psixologiya va sotsiologiya bilan yaqindan munosabatga kirishishga intila boshladi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya (*lot.* lingua – til + *lot.* cultura – ishlov berish + *yun.* logos – ta'limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, "lingvokulturologiya" termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyayn, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi aytiladi.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.Fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida kulturologik ma'nonini ko'rsatuvchi til birliklari sanaladi. Zotan, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, presedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til bilan madaniyat munosabatining o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik tuzulishiga xos bo'lgan yutuqlar jamlanmasidir". G.G.Slishkinning qarashlariga ko'ra, "Lingvokulturologiya shaxsdagi kulturologik omilga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning asosi madaniyat fenomenidagina iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi". Lingvokulturologiya sohasining o'rganish obyekti to'g'risidagi qarashlar to'g'risida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va

madaniyatning faqat sinxron aloqasini o‘rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o‘rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyektini umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishini aytilsa, V.A.Maslova aniq xalq yoki qarindosh xalqlar tilining lingvomadaniy xususiyatlari alohida o‘rganilishi zarur ekanligini aytadi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e‘tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Mazkur o‘quv qo‘llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyektini va predmeti, yo‘nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko‘rsatilgan.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko‘rish mumkin:

1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan;

2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan;

3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan;

4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Soliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya‘ni axloqiy-ta‘limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma‘nosi “aqliy-ma‘naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”.

Lingvokulturologiyaning o‘ziga xos tarzda matn bilan bog‘liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: “Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi”. V.A.Maslovaning, xususan, o‘xshatish – matnlar to‘g‘risidagi qarashi ham

e'tiborlidir. Olima o'xshatishlarning matn yaratilishidagi o'rniga yana to'xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta'minlovchi vosita maqomida bo'lishini aytadi. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va ularning qisqa ko'rinishi bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metafora asosida tuzilgan matnlar aniq bir tilda qolip shakliga kelib qolgan matn turlari (ular matnning Presedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq xodisa bu presedent matn hisoblanadi. Tilshunos O.E.Artemova so'zlari bilan aytganda, Presedent janrlar madaniy axborotning "akkumulyatori"dir.

Presedent matnlar Presedent birliklarning bir turi bo'lib, o'zida biron bir millatning til egalariga mos bo'lgan lingvistik xotirani ko'rsatib beradi. Hozirgi kunda asosan rus tilshunosligida ushbu mavzuda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. (Presedent matnlar haqida ishimizning 4-bobida batafsil mulohaza yuritiladi).

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir masala sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta'limiy xarakterdagi til birligi bo'lib, o'zida intertekstuallikni namoyon etadi.

Z.I.Saliyeva ingliz va o'zbek tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o'rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o'rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g'oyalarning yozuvchi tomonidan o'zgargan tarzda ifodalanishni intertekstuallikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi. Bu xususiyatni o'zbek tilida mavjud boshqa badiiy asarlar tilida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o'rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo'lgan tuzilishi, olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir. Har bir tabiiy til olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi.

Fikrimizcha, matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida Presedent birliklar, etalon, nutqiy etiket birliklar bor bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan xalqqa xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

Presedent birliklar til tizimini tadqiq etishning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, *Presedent* termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan rus tilida e'lon qilingan nomli maqolada qo'llangan.

Rus tilshunosligida muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari bilan birga matnlar ham Presedent birlik tarzida belgilanadi.

Keyingi davr tilshunosligida onomastik birliklarga turli aspektlarda yondashilmoqda. Ulardan biri lingvokulturologiyadagi onomastik kod nazariyasi hisoblanadi. Bu qarashga ko'ra nomlar, xususan, badiiy asardagi nomlar til birligi bo'lishi bilan birga ikkilamchi semiotik tizim hisoblangan madaniyatning etnomadaniy axborot tashuvchi unsuri hamdir. Mazkur qarashni ilgari surgan O.V.Suxarevaning fikricha, nomlar integrativ yondashuvda, ya'ni ham madaniy, ham konseptual aspektda tadqiq etilishi lozim. Olima, shuningdek, nomlarni etnokonnotativlik nuqtayi nazaridan o'rganishni taklif etib, shunday yozadi: "Etnokonnotativlik xususiyatiga ega bo'lgan badiiy asarlar muayyan lingvomadaniy

hamjamiyat vakillariga xos olamning lisoniy manzarasini namoyon etadi va ushbu til sohiblarining tafakkur tarzini teran anglash, ularning tajribaviy, tarixiy-madaniy va dunyoqarashiga oid bilimlarini anglash imkoniyatini beradi". Presedent nomlarni o'rganish o'zbek lingvomadaniyatiga xos jihatlarni yoritib berishda ham muhim o'rin egallaydi. Fikrimizcha, quyidagilar bu boradagi eng muhim vazifalar hisoblanadi:

1. Presedent nomlarning qaysi xalqning lingvomadaniyatiga xosligi, uning yasalish, yoki shakllanish holati masalasi. Ma'lumki, Presedent nomlar milliy (bitta xalqqa xos) va umumiy turlarga bo'linadi. Hozirgi vaqtda Ayyub, Alpomish, Bog'i Eram, Boychibor, jomi Jam, Iskandar, Ka'ba, Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Odam Ato, Momo Havo, Masih, To'maris, Shiroq, Amir Temur, Hotam, Humo, Usmon, Cho'lpon kabi o'zbek va Sharq til va madaniyatiga; Hamlet, Ikar, Kolumb, Onegin, Yago, Kalabuk, Buratino kabi G'arb lingvomadaniyatiga oid nomlar faol qo'llanmoqda. Xususan, Mustaqillik davrida ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash yo'lidagi urinishlar natijasi o'laroq o'zbek tilida To'maris, Shiroq, Muqanna, Amir Temur, Jaloliddin (Jaloliddin Manguberdi), Boychibor, Humo, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi Presedent nomlarning qo'llanish darajasi ortdi. Bu, avvalo, o'zbek xalqining milliy o'zligini, mustaqillikning ijtimoiy jihatlarni tushunib yetish kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan izohlanadi. Hozirgi globallashtiruv davrida ommaviy axborot vositalari orqali sport, san'at, siyosat, madaniyatga oid bir qancha nomlar o'zbeklar orasida mashhur bo'ldiki, ularning tillarga xos bo'lmagan omillari, asosan, o'zbek lingvomadaniyatida tutgan o'rni alohida yondashuvni taqozo etadi.

2. Presedent nomlarning allyuziv nom vazifasida qo'llanishi. Presedent nomlarning tuzulish turlaridan bir ko'rinishi bo'lgan allyuziv nomlarga badiiyatida uslubiy figura sifatida qaralsa, lingvokulturologiyada ular ikki madaniy – semiotik maydonni o'zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e'tirof etiladi. Bunda quyidagi ikki jihat e'tiborga olinmog'i lozim:

a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi;

b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi. Fikrimizni dalillash maqsadida quyidagi matnlarni keltiramiz:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,

Muttahamlar dunyosida, shoh Bobur.

Andijonu Hindu – yetti iqlimda

Topilmadi Sizga bir dodxoh, Bobur.

(S.Sayyid. “Shoh Bobur”).

Nizomiy bolidan halvo pishurmish,

Navoiy zabt etib turkiy jahonni.

(A.Oripov. “Ozarbayjon”)

Birinchi matndagi *Bobur* allyuziv nomi Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub matnni besh asr avval yaratilgan matn bilan – Boburning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” deb boshlanuvchi ruboiysi bilan bog‘lashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi matnda *Nizomiy*, *Navoiy* nomlari vositasida Navoiyning turkiy tilda “Xamsa” yaratish tarixiy faktiga ishora qilingan.

Presedent matn nazariyasi shakllangach, tilshunoslik sohasida vertikal matn presedentlik xususiyatiga ega bo‘lishi lozimligi haqidagi fikrlar ilgari surildi. Darhaqiqat, allyuziv nom ostida yashiringan matn presedent, ya’ni xalqning lisoniy xotirasida saqlanuvchi, mashhur matndan iborat bo‘lmas ekan, asarda qo‘llangan allyuziya kutilgan natijani bera olmaydi. Bunda allyuziv faktning mashhurligi muhim ahamiyatga ega. Masalan:

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,

O‘z boshingga etgan kun.

Qodiriyni bergan zamin,

Qodiriyni sotgan kun.

(M.Yusuf. “Vatanim”).

Ushbu matnda *o‘tgan kuning* birikmasi orqali ham qatag‘on davriga, ham “O‘tkan kunlar” romaniga, *Qodiriy* presedent nomi orqali esa uning fojiali o‘limi

haqidagi faktga ishora qilingan. Qodiriy va uning romani haqidagi ma'lumotlarning mashhurligi she'riy matn mazmunining tushunilishida katta rol o'ynaydi.

3. Presedent nomlarning etalon vazifasida kelishi. Presedent nomlar ma'lum sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qilish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli muayyan lingvomadaniyatda biror tushunchaning ramzi sifatida qo'llanadi. Aytish joizki, turli matnlarda Hotam, Luqmoni Hakim, Rustam, Majnun, Layli, Ka'ba, Bog'i Eram, jomi Jam kabi an'anaviy ramziy nomlarni qo'llash bilan birga Kumush, Jaloliddin, Kolumb, Otello, To'maris, Barchin kabi nomlarni ham muayyan tushunchaning ramzi sifatida qabul qilish o'zbek lingvomadaniyatiga xos xususiyatlardan biriga aylandi. Jumladan, bugungi kunda – *Kumush* iboli, andishali o'zbek ayoli, *Jaloliddin* – jasur vatanparvar, *Kolumb* – kashfiyotchi, *Otello* – o'ta rashkchi, *To'maris* va *Barchin* nomlari esa mard, oriyati baland ayol ramzi sifatida qo'llanmoqda. Bunday qo'llanish mazkur Presedent nomlarning o'zbek lingvomadaniyatidan etalon sifatida o'rin olishiga yo'l ochadi.

Presedent nomlarning etalonlik xususiyati, ayniqsa, she'riy matnlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Quyida shunday etalonlarning ayrimlariga misollar keltiramiz:

Asqar tog' – zabardastlik, ulug'vorlik etaloni:

Bir yigitlar tug'lsinki, bir yigitlar.

Yelkalari Asqar tog'day, aqli raso,

Oriyatli, hamiyatli, nasli raso

Bir yigitlar tug'lsinki, bir yigitlar...

(M.Yusuf. "Bir yigitlar tug'lsinki...")

Bog'i Eram – go'zal maskan etaloni:

O'zbekiston shabcharog'i, olmosi Farg'onadir,

Yerda yulduzlar kabi har yerda gavhar yonadir.

Har taraf bog'i Eram, har manzil koshonadir,

Quvnagan xalq labida kanda bo'lmay yonadir.

(G'.G'ulom. "O'zbekiston shabcharog'i...")

Gerostrat – shuhratparastlik etaloni:

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek

Diana ma'badin yoqmoq shart emas.

Ko'plarning baxtiga o'zinkin jamlab,

Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.

(G'.G'ulom. "Vaqt")

Precedent birliklar orasida precedent matnlar muhim o'rinni egallaydi. Y.N.Karaulov precedent matnlarga: "Birdan ziyod shaxslarga tegishli bo'lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan, ya'ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo'lgan va nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar" precedent matnlardir.

"Pragmatika" (yunoncha pragma – ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Suqrot dan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J. Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30 yillarida pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo'lgan falsafiy pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan biri Charlz Sanders Pirs (1839-1914) edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining (shu jumladan, lisoniy belgining ham) ma'no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch.Pirs birinchilardan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi.

Ch.Pirs semiotika doirasida uch ilmiy soha – sintaktika (yoki sintaksis), semantika va pragmatikani mustaqil yo‘nalishlar sifatida ajratdi. Pragmatika “belgining undan foydalanuvchiga nisbatan munosabatini yorituvchi fandır”.

Gap mazmunini so‘zlovchi bilan bog‘lab turuvchi shunday so‘zlar borki, ular ham kontekst bilan uzviy bog‘liqdir. Har bir gap (jumla) obyektiv borliq haqida ma‘lum axborot berish (nominativ yoki propositiv funksiya) bilan birga, so‘zlovchining bu axborotga munosabatini ham bildiradi.

Uzoq davrlargacha tilshunoslar so‘zlovchining “mahsuloti” bo‘lgan jumlaning o‘rganishga asosiy e‘tibor berdilar. Bu jumlaning yaratgan shaxs (subyekt) esa nazardan chetda qoldi. Vaholanki, har bir konkret jumlada so‘zlovchining ruhiyati, madaniyati, dunyoqarashi va boshqalar o‘z ifodasini topadi. Shu tufayli ham so‘zlovchining gapiga qarab, uning kimligi haqida hukm chiqarish mumkin bo‘ladi. Bu esa til birligi bo‘lgan gapning qoliplari konkret sharoitda jumalarning orqali yuzaga chiqib, naqadar rang-barang qo‘shimcha axborot bildirishidan dalolat beradi. Bu qo‘shimcha axborotlar jumlaning alohida ma‘no qatlamini tashkil etadi. Jumlaning obyektiv voqelik bilan bog‘liq ma‘nosi (propositiv ma‘noni) asosiy, boshqa ma‘nolar esa qo‘shimcha ma‘nolar sanaladn.

Ayrim jumalarning borki, undan anglashilgan obyektiv mazmun (diktal ma‘no) butunisicha faqat muayyan nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar bu jumla shu kontekstdan yoki nutqiy vaziyatdan uzib olinsa, o‘sha obyektiv mazmun noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Masalan, hamma vaqtini chog‘ o‘tkazmoqda jumlasidan anglashilgan “hammaning xursandligi” faqat konkret nutq vaziyati, nutqiy qurshov bilan bog‘liqdir. Chunki dunyodagi barcha odamlar doimo vaqtini chog‘ o‘tkazishi mumkin emas. Kimdir nimadandir tashvishlanadi, ozor chekadi. Kimdir kasallikdan azob tortadi va hokazolar.

Ko‘rinadiki, konkret jumalardan anglashilgan bir qator qo‘shimcha ma‘nolar nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog‘liqdir. Nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy

bog‘liq bo‘lgan ana shunday ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi vositalar lingvistik pragmatikaning o‘rganish obyekti sanaladi.

Matnning pragmatikal belgilari. Matnda so‘zlovchi nazarda tutgan axborot har doim ham verbal ifoda tarkibida to‘liq ma’noda oshkora bayonga ega bo‘lavermaydi. Ko‘pincha, oshkora bayon qilinmagan, ammo so‘zlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmun ko‘rinishlarini matnning mazmuniy tuzilishidan ilg‘ab olish tinglovchi, nutq ishtirokchilariga katta mas’uliyat yuklaydi albatta. Shuning uchun so‘zlovchi, tinglovchi hamda nutq ishtirokchilari nutq vaziyati va sotsial kontekstdan to‘liq xabardor bo‘lish bilan birga, verbal ifodaning mazmuniy tuzilishidagi nozik ifoda qirralarini anglash uchun o‘sha tilga xos ma’no ottenkalarini bilishi shart.

Har qanday matnda axborot so‘zlovchining ichki maqsadi boshqaruvida ikki mazmuniy ko‘rinishdan iborat bo‘ladi. Bularga yoyiq shakl va yig‘iq mazmun shakllar kiradi. Bunday mazmuniy shakllar so‘zlovchining kommunikativ istagi bilan bog‘liq shaklda matnning turli qismlarida namoyon bo‘ladi. Axborot bayon etishning yoyiq shakllariga xos ifoda imkoniyatlari xilma-xil bo‘lganidek, yig‘iq yashirin ifoda usullari ham turlichadir. Yig‘iq-yashirin axborot kontekstlari turlicha shakllardan iborat bo‘lganligi uchun unga nisbatan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda “bir umumiy tushunchani ifoda etuvchi umumiyashirin (“implikatsiya”) atamasini qo‘llaydilar.

O‘zbek tilida ma’noni yashirin tarzda ifodalash ko‘rinishlari alohida dissertatsion planda tadqiq etilmagan. Presuppozitsiya bilan bog‘liq anchagina ishlar amalga oshirilgan, biroq klassik adabiyot namunalari kuzatilganda, bu yo‘nalishga oid faktik materiallarga nihoyatda boy ekanligimizning guvohi bo‘lindi. Hatto klassik adabiyotning nazariy yo‘nalishiga oid juda ko‘p asarlarida “yoyiq” va “yig‘iq” atamalarining mumtoz shakllari mavjud ekanligi, bularning mumtoz adabiyotda “botiniy” va “zohiriy” atamalar bilan nomlanishni o‘zbek tilida yoyiq mazmun va yig‘iq mazmun ko‘rinishlarini tadqiqot obyekti sifatida tanlangani mutlaqo to‘g‘riligini ko‘rsatadi.

Implikativ mazmunning umumyashirin shakllariga xos matnlar tarkibiga matal, ibora, maqol, topishmoq kabilar kiritilib, ularda bayon qilingan yashirin ma'no ko'rinishlari farosatli va zukko tinglovchilarning barchasi uchun aniq bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bunday tipdagi yashirin mazmuni umumyashirin mazmun deb yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tagma'no. So'zlovchi nutq predmeti haqidagi axborotni til belgilari yig'indisi yordamida yuzaga chiqaradi. Bu ifoda semantik tuzilishidagi oddiy xabar mazmunini tashkil etadi. Oshkora (eksplitsit) shakl, asosan, ifoda diktumidan iborat bo'ladi. Diktum mohiyati propozitsiya mazmuni bilan yana ham o'zining aniq ma'nosiga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi xususiy munosabat propozitsional mazmun asosidagi diktumning qurshovida bayon qilinada va ba'zida bunday ifodalar yashirin mazmun ko'rinishi sifatida matn ichiga joylashtiriladi. "Matn ichidagi matn" tushunchasi rus tilshunosligida "podtekst" atamasi bilan nomlanadi. Podtekst atamasi matn, kontekst va nutq atamaları ifodalagan tushunchalar mazmuni bilan bog'lana olmaydi, ularning boshqacha shakli sifatida ham qo'llanmaydi. "Podtekst" atamasi ifodalagan tushuncha mazmuni matn ichidagi "yashirin matn" tushunchasini ifoda etadi. Bu hodisa kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqiy faoliyati, individual uslubi va shaxsning ichki his-tuyg'usi bilan uzviy bog'liqdar. "Yashirin matn" tushunchasini aniq anglash va to'g'ri tushunish maqsadida biz uni "tagma'no" atamasi bilan nomlaymiz. Tagma'no yashirin ifoda birliklaridan biri bo'lib, u o'zining yuqoridagi belgi xususiyatlari bilan lingvistik pragmatikaning markaziy masalalaridan biri deb qaraladi.

Sotsiolingvistika atamasining paydo bo'lganiga ko'p bo'lgani yo'q. Unga qardosh bo'lgan etnolingvistika va psixolingvistikadan farqli o'laroq sotsiolingvistikaga aniq ta'rif berish qiyin.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "Sotsiolingvistika (lot. soctios –jamiyat va lingvistika) – tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya, etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning

ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolarni o'rganuvchi ijtimoiy- nazariy soha" deyilgan.

Aslida, aytish mumkinki, sotsiolingvistika tadqiqotlari "til sotsiologiyasi" nomi bilan olib borilib, jamiyat va til orasidagi munosabatlarni o'rganadi. Agar biz aniqroq gapirmoqchi bo'lsak, sotsiolingvistika unga yondosh bo'lgan sohalardan "til-jamiyat" munosabatini o'rganish yuzasidan tilshunoslikka zamonaviy yondashib, til va jamiyatni qandaydir birlikning bo'laklari emas, balki alohida tizim sifatida qaraydi. Bunday holatda sotsiolingvistikaning vazifasi jamiyat hamda til tizimlaridagi aloqa, ya'ni bog'liqlikning omillarini o'rganishdir. Sotsiolingvistika o'zining fan sifatidagi izlanishlarida tilshunoslik tizimidagi uslublardan foydalansa-da, biroq u tilni alohida birlik sifatida o'rganuvchi tilshunoslikdan farq qiladi. Sotsiolingvistikaning eng muhim vazifalaridan biri – tilgdagi o'zgarishlarni jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq ekanligini o'rganishdir. Bu va boshqa jarayonlarda ham tilning o'zgarishi yoki rivojlanishini o'rganish sotsiolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Albatta, bu fikrlar ko'p qirrali sotsiolingvistika imkoniyatlarini yetarlicha izohlay olmasligi mumkin. Ehtimol, biz har jihatdan ko'rib chiqiladigan sotsiolingvistik tadqiqotlarning parametrlarini yoritish orqali ko'rib chiqsak, masalaga oydinlik kiritarmiz.

Sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlar jarayonida tilning o'rnini, tilning taraqqiyot bosqichlarini va til funksional tomonlarini va jamiyatning til uchun, tilning esa albatta jamiyat uchun xizmat qilishi o'rganiladi.

Sotsiolingvistika termini tilshunoslikda birinchi bor 1952-yilda amerikalik tadqiqotchi X.Karri tomonidan tadbiiq etilgan. Bu termin ostidagi tushunchalar, umuman, tilshunoslikning allaqachon paydo bo'lganligini anglatish bilan birga, undan asosiy ko'zlangan maqsad tilning umumbashariy tushuncha sifatida paydo bo'lganligini e'tirof etishdir.

20-30-yillarda rus tilshunos olimlari bu fanni ikki xil nomlash asosida o'rganib keldilar. "Sotsialnaya lingvistika", "Sotsiolingvistika" kabi atamalar o'sha davr ruhi bilan bog'liq tarzda hosil qilingan edi. Keyinchalik, aniqrog'i 50-yillarga kelib "Sotsiolingvistika" terminini hayotga tatbiq etish maqul variant deb topildi. Negaki, tilning hayot bilan, jamiyat bilan chambarchas bog'liqligi, milliy anana va milliy qadriyatlarning yuzaga kelishi sotsiolingvistika terminiga mosdir.

Fanni shu tarzda nomlash hech qanday mushkulotni yuzaga keltirmaydi. Sabab "sotsiolingvistika" termini, qayd etib o'tilganidek, ikki soha tutash nuqtasida yuzaga kelgan, bu o'z navbatida fanlararo munosabatlarni rivojlantirishga muhim omil bo'la oladi.

O.S.Axmanova lug'atida "sotsialingvistika" termini "ijtimoiy lingvistika" "tilshunoslikning ijtimoiyligi" deb atalishi asosida quydagicha ma'no kelib chiqadi. Birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o'rni, til va jamiyat o'rtasidagi xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish tadbiq etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan: ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar va hokazo). Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas (professional nutq, koyne va h.k) tarzda tushuniladi. Ko'rinadiki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi "til va jamiyat" o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o'rtasidagi bu bog'liqlik til va jamiyat taraqqiyotining uzviy ko'rinishidir.

Professor B.N.Golovin esa "sotsiolingvistika" fanini tor va keng ma'noda talqin etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika funksional ma'no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog'liq degan xulosaga keladi. Ayni paytda, B.N.Golovin sotsiolingvistika terminining 7 xil xususiyatlarini sanab o'tadi:

a) differensiyaga xoslanishi (hududiy dialektlar, qatlamlar);

b) tilning umuminsoniy xususiyatlari (unda yozma va og‘zaki til qonuniyatlari nazarda tutiladi);

v) tilning nutq jarayonidagi holati (dialogik, monologik nutq ko‘rinishlari);

g) ijtimoiy jamiyatning kollektiv bilan bog‘liqligi (tilning funksional (vazifaviy) belgilari);

d) ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy til qatlamlari majmuasi (professional nutq, xalq maqollari variantlari);

e) badiiy tilning tur va xususiyatlari;

j) muallif so‘zi va uning xarakterli belgilari (xususiylik, variant, variantlilik) B. N. Golovin nazariyasiga ko‘ra, sotsiolingvistikani birlashtiruvchi ma‘nodagi sohalari bo‘lib, tilning umumjamiyat taraqqiyotidagi xizmatini, til a‘zolari va uning jamiyat uchun xizmat qilishini alohida ta’kidlaydi.

Jumladan, ijtimoiy til hammaga baravar, ya’ni ishchi, dehqon, xizmatchi, ziyolilarga ham xizmat qiladi.

Sotsiolingvistikani o‘rganish asosida quyidagi maqsad hamda vazifalar yotadi:

1. Tilning ijtimoiy vazifasi-uning shakllanish jihatidan aniq tarixiy me‘yorlariga bog‘liq ekanligi;

2. Tilning hayotiy ko‘rinishlari, uning adabiy va noadabiy shakllari, jonli so‘zlashuv, hududiy va ijtimoiy ko‘rinishlari;

3. Ijtimoiy, funksional (vazifaviy) va hududiy jihatdan asosiy bo‘linishlari tilning ijtimoiy-uslubiy bo‘linishiga ijtimoiy muhit, nutq shakllarining ta’siri;

4. Tilning aloqa-aralashuv tizimini, uning turli qismlari, ikkita tillilik holati va diglossiya ya’ni, bitta tilning ikki xil shaklidan foydalanishi;

5. Tilning ijtimoiy jihatdan shakllanganligi: urug‘ va qabila, xalq va millat tillarining, millatlararo tillarning, oraliqdagi vositachi tillarning, koyne ya’ni umum tillarning.

6. Adabiy tilning vazifasini aniqlash va uning belgilari. Tilda norma, tilning uslubiy bo‘linishining ekstrolingvistik (nutq mazmuni va yo‘nalishi: adresant va adresat, shox-shoh, asr-asir) hodisalari;

7. So‘zlovchining ijtimoiy belgilariga (yoshiga, bilimiga, vazifasiga) ko‘ra nutqining ko‘p variantlilik;

8. Tillarni sotsiolingvistik tasnif qilish, umumjahon va kelajak tili;

9. Halqaro vosita tillar muammosi. Esperanto va boshqa sun‘iy tillar, ularning qo‘llanilish doirasi. Interlingvistika vazifalari;

10. Inson va til. Til ichki qurilishi taraqqiyotida inson tilining ta’siri, yozuv, orfoepiya va punktuatsiyaga ilmiy ishlov berish;

11. Ijtimoiy dialektologiyani sotsiolingvistikaning bir qismi sifatida o‘rganish.

12. Sotsiolingvistika qurilish metod (uslub)lariga material yig‘ish va uni ishlash usullari.

13. Hozirgi sotsiolingvistika qurilishi. Sinxron va diaxron sotsiolingvistika.

14. Sotsiolingvistika tarixi kabi masalalar ijtimoiy tilshunoslik predmetini belgilovchi maqsad va vazifalardir. Til bu - kishilik jamiyati va uning ko‘p asrlar davomida sodir bo‘lgan tarixiy va ijtimoiy tajribalari zamirida paydo bo‘lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Til bilan jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Jamiyatda sodir bo‘ladigan turli ko‘rinishdagi voqelik, albatta tilda o‘zining ifodasini topadi. Til va uning ijtimoiy tabiati, jamiyat a’zolari nutqida mavjud bo‘lishi jamiyat manfaatlarigagina xizmat qilishida ko‘rinadi.

Adabiy til keng ma’noda tarixan shakllangan, so‘z ustalari tomonidan qayta ishlangan, sayqal berilgan, jamiyatda kishi faoliyatining barcha tarmoqlari bilan uzviy bog‘langan badiiy, publitsistik, ilmiy adabiyot tilidir.

Akademik V.V.Vinogradov yozadi: “Adabiy til u yoki bu xalq, ba’zan xalqlarning maxsus ish hujjatlari, maktab ta’limi, kundalik yozma munosabatlar, fan, publitsistika, badiiy adabiyot, so‘z ifodasidagi turli madaniy munosabatlari uchun umumiy bo‘lgan yozma va og‘zaki tildir”. Demak, adabiy tilni turli xil tushunmoq

lozim ekan, chunki adabiy til har xil harakatdagi tushunchalar bilan ifodalanib, unda milliy xususiyatlar ham sinxron planda hamda rang-barang ma'no ifodalovchi tarixiy (diaxron) planda o'rganiladi. Bu esa adabiy tilning imkoniyati keng ekanligini ifodalaydi. Avvalambor, adabiy til masalasi tilshunoslikdagi eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, adabiy tilning keng qamrovliligini bunga yaqqol misol sifatida ko'rsatish mumkin. Chunonchi, akademik F.P.Filin adabiy tilning yettita belgisini ko'rsatadi:

1. Ishlanganlik.
2. Me'yorlashtirilganlik.
3. Stabillik (barqarorlik).
4. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi kollektiv (jamo)ning hammasi uchun umumiylik va majburiylik
5. Uslubiy bo'linganlik
6. Individuallik, ya'ni muomalaning turli toifalari-ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, fan, kundalik turmush sharoitidagi umumiylik.
7. Yozma va og'zaki shakllariga ega ekanligi.

Ana shu sifatlarning hammasi mavjud tilni adabiy til deyish uchun asos emas, chunki boshqa sifatlar ham bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bu sifatlar turli davr adabiy tillarida turlicha bo'lishi ham mumkin. Masalan, yozma adabiyot mavjud bo'lmagan ayrim xalq tillarida bu sifatlardan ko'pi bo'lmasligi mumkin.

Akademik V.V.Vinogradov adabiy tilni anglamoq qiyin degan xulosaga keladi. Chunki adabiy til hayotiy mavjudlikning zaruriy sharoitlaridan biri bo'lib, u jamiyat hayotining turli sohalariga xizmat qiladigan, o'zining boyligi ko'p vazifaviyligi, ishlanganligi, qa'tiy norma (me'yor)ga ega ekanligi bilan tilning boshqa shakllariga nisbatan eng ustun turadigan til shaklidir. Hozirgi zamon tilshunosligida adabiy til va milliy til tushunchasi masalasi ko'ndalang turadi. Negaki, adabiy til va milliy til shakllanish nuqtai nazaridan o'zaro farqlanadi.

Milliy til va adabiy til masalasiga kelganda, bular boshqa-boshqa hodisalar, tilning milliy formasi uning hayotiy formalaridan biri emas, adabiy til esa uning hayotiy shaklidir. Chunki milliy til ma'lum bir davr mahsuli, adabiy til esa undan oldin mavjud bo'lgan. Masalan, hozirgi o'zbek milliy tili umumxalq tilining eng yuqori ko'rinishi hisoblanib, u o'z tarixini bugungi kungacha yetib kelgan eng qadimgi yozma yodgorliklar tilidan boshlagan bo'lsa, adabiy til esa hamma davrlar uchun bir xil bo'lmaydi, har bir davrning o'z adabiy til me'yorlari bo'ladi. Chunonchi, XV asr Navoiy davri eski o'zbek adabiy tili bilan hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik, grammatik me'yorlari orasida farqlar borligini yaqqol sezib turamiz. Shunday qilib, adabiy til umumxalq til ko'rinishlaridan farq qilib, u sayqallangan, me'yorlashtirilgan, grammatik qolipga asoslangan til shaklidir.

Jonli so'zlashuv tili. Jonli so'zlashuv tili umumxalq til ko'rinishlaridan biri bo'lib, bir tomonlama adabiy so'zlashuv tili, ikkinchi tomonlama esa hududiy dialektlar xarakteriga ega bo'lgan til ko'rinishidir. Uning o'z xarakteri va terminlari mavjudligi masalasida E. D. Polivanov to'xtalib, jonli so'zlashuv tilining uch xil nomlanishi xususida fikr yuritadi. Bular: 1. Shahar so'zlashuv tili, 2. Oddiy so'zlashuv tili, 3. Adabiy so'zlashuv tili, degan xulosaga keladi. To'g'ri, bular turli xil ma'nolar ifodalaydi, biroq, har bir ifodaning anglatgan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'ladi. Aytaylik, XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek adabiy til xususiyatarini o'rganmoqchi bo'lsak, unda shahar so'zlashuv tili hamda xududiy dialektlar o'rtasidagi munosabatlar farqlangan. Jonli so'zlashuv tili ifodasi boshqacha, ya'ni ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi.

Birinchidan, jonli so'zlashuv umumxalq til ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq so'zlashuv tili adabiy til imkoniyatlari asosida shakllanib boradi.

Ikkinchidan, jonli so'zlashuv tili imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, adabiy til normalariga mos kelmaydi. Ko'rinadiki, jonli so'zlashuv tili adabiy til va uning normalariga mos kelishi va kelmasligi mumkin. Jonli so'zlashuv tilining quyidagi belgilari mavjud:

1. Ishlanmaganlik (neytral ma'no);
2. Uslubiy bo'yoqqa ega emas, ya'ni uslubiy ma'no ifoda etmaslik;
3. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning hammasi uchun umumiylik va majburiylikka ega emaslik;
4. Yozma shaklga emaslik;
5. Ko'p ma'nolilik vazifasini bajarmaslik, sinonim va variant usullariga ega emaslik.

Shu xususiyatlarning mavjud emasligiga qaramay, jonli so'zlashuv tili adabiy til taraqqiyotiga muhim xizmat qiluvchi til ko'rinishlaridan biridir. Xususan, badiiy asar tilida oddiy so'zlashuv til elementlari badiiy asarning muhim jihatlarini ochib beruvchi xususiyatlarga egadir.

Shunday qilib, oddiy so'zlashuv tili til normalariga amal qilgan holda milliy til tizimi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etib boradi.

Koyne. Koyne-grekcha koine, Koinos-umumiy so'zidan olingan bo'lib, qadimgi grek tili turli dialektlarida so'zlashuvchi xalqlar uchun umumiy ifoda vositasini anglatuvchi tildir. Bu til va atama taxminan eramizdan oldingi IV asrlarda Afinaning markazi bo'lgan Attikada paydo bo'lgan. Hozir bu so'z tilshunoslikda keng qo'llaniladigan atama bo'lib, og'zaki nutqning umumlashgan bir turini anglatadi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, koyne shakllanish va taraqqiyot jihatidan tilning boshqa birliklaridan farqlanadi. Avvalambor, koynening o'zi ma'lum tildagi yondosh dialektlardan savdo, sanoat, harbiy munosabatlarni, mahalliy maqsadlarni umumlashtiruvchi leksik-grammatik vositalar asosida shakllanadi, mustaqil dialektga aylanadi. Keyinchalik esa o'sha dialektlar hisobiga boyib, hatto mustaqil til – koynega aylanadi. Ijtimoiy til munosabatlarida koyne alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, koyne ikki xil ko'rinishga, ya'ni shahar va qishloq koynesiga bo'linadi. Shahar koynesi faqat dialektlarga yoki hududiy qatlamlar uchun xizmat qilmaydi, balki muloqot jarayonida og'zaki she'riyat, xalq ijodiyoti ravnaqiga ham ijobiy ta'sir etib boradi.

Shahar koynesi tarixan yozma nutqqa ham ta'sir etib kelgan. U adabiy til bazasida takomillashib borgan. Jumladan, London koynesi ingliz adabiy tili bazasida, Pekin koynesi Xitoy adabiy tili bazasida, Edo koynesi Yapon adabiy tili bazasida, slavyan tillari koynesi esa asosan Moskva adabiy tili bazasida rivojlanib kelgan.

Qishloq koynesi esa, tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, hududiy dialektlar ta'sirida yuzaga keladi. Masalan, Dog'iston oblastidagi Bolmas qishlog'i koynesi avarliklar tili ta'sirida vujudga kelgan. Xorazm adabiy til muhiti Qiyot qishloq koynesi ta'siri natijasida rivojlanib kelmoqda va h.k

Umuman olganda, koynede dialektlarda so'zlashuvchi xalqlar uchun umumiy ifoda vositasi bo'lib, og'zaki nutqning umumlashgan bir turini anglatadi.

Dialektal qatlam va uning sotsial mohiyati

1. Ijtimoiy dialektlar haqida umumiy tushuncha.
2. Dialektizmlarning ijtimoiy mohiyati
3. Jargon, kasb-hunar so'zlarining sotsial tabaqalanishi.
4. Laqablarning qo'llanilishi.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarida "ijtimoiy dialektlar" terminini ko'plab uchratamiz. Odatda, ijtimoiy dialektlar tilning shunday bir qatlamiki, ular adabiy til va uning talablariga to'g'ri kelmaydi. Biroq ko'pgina hollarda "ijtimoiy dialektlar"ni tilning yuzaga kelishidagi asosiy ob'ekt sifatida qo'llab kelishadi. Jumladan, V.M.Jirmunskiy sotsial dialektlarni hududiy dialektlarga ham, shahar til doirasiga ham, adabiy tilga ham (og'zaki, yozma shakllari) taalluqli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Shunga ko'ra, V.M.Jirmunskiy ularni ijtimoiy dialektlar deb atashni taklif qiladi. Ijtimoiy dialektlar tarkibiga dialektizmlar, jargon va argo hamda professional so'zlar kiradi. B.A.Serebrennikov ularni dialektlar sifatida emas, balki ijtimoiy nutq variantlari, nutq uslublari ekanligini uqtirib o'tadi. Shu bilan birga, bu nutq variantlari, dialektlar sifatida xizmat qilgan ekan, ularning fonetik sistemasi hamda grammatik qurilishi nuqtai nazaridan adabiy tildan farq qiladi, deydi.

V.A.Avroring esa ularni nutq variantlari sifatida emas, aksincha “Ijtimoiy dialekt” deb atashni hamda ijtimoiy variantlar nutqi ekanligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, “Ijtimoiy dialektlar” ma’lum shaxs yoki guruh vakillariga xizmat qiladi, ularning ijtimoiy professional jihatlarini farqlab o’rganishimizga yordam beradi. Shunga ko’ra, ijtimoiy dialektlarni quyidagi guruhlariga ajratib o’rganish maqsadga muvofiqdir.

1. Professional til (aniq bir leksik qatlamga xos) baliqchilar, ovchilar, daraxt kesuvchilar, o’ymakorlar, tikuvchilar, etikdo’zlar, shuningdek, boshqa kasb-hunarga oid atamalar.

2. Ma’lum bir to’da va guruhga oid jargonlar. Masalan, talabalar, sportchilar, soldat va ofitserlar hamda boshqa guruh vakillariga xos.

3. Dialektal qatlamga xos so’zlar (dialektizmlar) ular mahalliy xalq nutqiga xos bo’lib, ma’lum bir hududda yashovchi xalqlar hayotini, turmushini, yashash tarzini aks ettiradi. Xullas, ijtimoiy dialektlarni bu tarzda tasnif etish orqali ularning muhim qirralarini aniqlab olish mumkin.

1. Professional til. Bu til asosan, til paydo bo’lishining muhim omillariga asoslanadi, (adabiy til, hududiy dialekt) lug’at tarkibida o’zining alohida o’rniga ega. Professional til har bir kasb-hunarga xos ma’no kasb etadi. Aytaylik, etikdo’zlar kasbi bilan bog’liq turli atamalar shu doirada qo’llansa, o’ymakorlar, naqqoshlar va boshqa kasbga oid atamalar ham o’z doirasida ishlatiladi. Professional tilda har bir kasbga doir mahsulotlarning turi alohida qo’llaniladi. Masalan, 10 dan ortiq mashina turlari qo’llaniladi (kir yuvish, tikish, bo’yoq va pardozi berish) yoki 6-7 turdagi bolta, 5-6 bolg’a, 10 dan ortiq arra nomlari alohida ishlatiladi. Ko’nadiki, bu kabi terminlar professional nutqning o’ziga xos ijtimoiy ma’no kasb etishini anglatadi.

2. Jargon va ularning ijtimoiy mohiyati. Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiluvchi dabdabali yoki yashirin dialekt jargon deyiladi. O’tmishda savodsiz bo’lgan ommani ezuvchi sinf vakillari o’z niyatlarini

amalga oshirish maqsadida kishilar uchun tushunarsiz soʻzlardan foydalanib kelishgan. Odatda bunday soʻzlar jargonlardir.

Jargon-bu fransuz tilidan olingan boʻlib, “buzilgan til” demakdir. Jargonlar, asosan, fors-tojik, arab va boshqa tillardan olingan boʻlib, ular tovush tomonlaridan ham, maʼno tomonlaridan ham buzib ishlatiladi.

Jargonlarning ijtimoiy muhitda tutgan oʻrni shundaki, ular muayyan ijtimoiy sinf vakillari, mansabdor shaxslar, oddiy shaxslar oʻrtasida yuz beruvchi jarayonlarni aks ettiradi. Masalan: oftobi olam (podshoh), matluq etmoq (oʻldirmoq), momaqaymoq (chiroyli, goʻzal), yakan (pul), dah (yaxshi) kabi jargonlar ijtimoiy muhitning turli jabhalariga aloqador shaxslarning qiyofasini, mansabini, shaxsini anglatishga yordam beradi.

Jargonlar ijtimoiy muhitda ayrim shaxslarning shaxsiy manfaatlarini yashirish tufayli yuzaga kelgan hodisadir. Shunga koʻra, jargon kishilar uchun tushunarsiz koʻrinadi. Kundalik hayotda jargonlar studentlar, umuman, yoshlar nutqida ham sezilib turadi. Masalan, quladim, yiqildim (ikki oldim), yigitning bahosi (uch), oʻpka (ovliqma odam), tanka (talabaga homiylik qilayotgan shaxs, domla maʼnosida).

Paxan, maxan (ota-ona) kabilar yoshlar nutqida uchrab turadi. Umuman olganda, maʼlum bir guruh va toʻda vakillari nutqi uchun xos boʻlgan jargon-ijtimoiy dialektlarning bir turi sifatida tilda yashash tarzida oʻz oʻrniga ega.

3. Dialektal qatlamga xos (dialektizmlar) soʻzlar. Maʼlumki, kundalik turmushda kishilar bir-birlari bilan turli munosabatda boʻladilar, yaʼni oʻzaro fikrlashadilar, suhbatlashadilar, nimanidir inkor etadilar. Shu narsani alohida taʼkidlash lozimki, adabiy tilda oʻqituvchi va oʻquvchi nutqida, televideniye va radio diktoralari nutqida uchraydigan sheva unsurlari adabiy til qoidalariga zid boʻladi. Odatda, sheva unsurlari umumxalq tiliga emas, balki shu umumtilning mahalliy koʻrinishlariga xos boʻlgan hodisa sanaladi.

Ijtimoiy hayotda dialektizmlarning alohida o‘rni bor, chunki dialektal so‘zlar umumtil lug‘at boyligining bir qismini tashkil etadi. Dialektal so‘zlarning ma’lum bir qismi adabiy tilga tanlab olinadi va ular adabiy til uslubida qo‘llaniladi.

Demak, dialektizmlar ijtimoiy hayotning turli tabaqasiga mansub shaxslar nutqiga xos bo‘lib, ular o‘ziga xoslikni berish maqsadida ishlatilar ekan. Shu o‘rinda V.G.Belinskiyning quyidagi so‘zlarini eslash yuqoridagi fikrimizga oydinlik kiritadi: “Ulug‘ so‘z san’atkori boyni ham, dehqonni ham o‘z tilida gapirishga majbur qiladi”. Shunday qilib, dialektizmlar mahalliy shevalarga xos bo‘lgan lisoniy xususiyatlarning tabiiyligini, o‘ziga xosligini ta’minlovchi ijtimoiy dialektidir.

Umuman olganda, ijtimoiy dialektlar ijtimoiy til bilimlarini chuqur o‘rganishimizga keng imkoniyatlar ochib beruvchi til hodisalaridir. Ulardan ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanish sotsiolingvistika qonun-qoidalarining chuqur yechimini topishga yordam beradi.

Butun hayotini o‘zbek tili lug‘at boyligini miridan-sirigacha xijjalab o‘rganishga bag‘ishlagan E.Begmatov o‘zbek tili umumiy lug‘at boyligi quyida keltirilgan guruhlardan tashkil topishini ko‘rsatgan:

- Iste’molda keng qo‘llanuvchi so‘zlar (umumiste’mol leksika);
- Kasb-hunarga oid so‘zlari (professional va kasbiy leksika);
- Dialektal, shevaga xos so‘zlar;
- Eskirgan so‘zlar (arxaizmlar va istorizmlar);
- Ilmiy atamalar (Ilmiy terminologiya);
- Jargon va uning ko‘rinishlari;
- Adabiy va shevaga xos iboralar (adabiy va dialectal frazeologizmlar);
- Atoqli otlar;
- Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar (neologizmlar).

Sotsiologik izlanish obyekti odatda ikki yoki undan ortiq bo‘lgan sohalarda amalga oshiriladi. Quyida biz bu parametrlarning yettitasini ko‘rib chiqamiz.

Sotsiologik izlanish obykti o‘z ichiga turli ijtimoiy faktorlarni, aynan tildagi farqlarga aloqador xususiyatlarni qamrab oladi. Bu faktorlarning miqdori vaqti kelib o‘zgarishi mumkin, lekin asosiy izlanishlar quyidagi uch faktorni ta’kidlaydi:

- 1) axborot uzatuvchi;
- 2) qabul qiluvchi;
- 3) muhit.

I. Axborot uzatuvchi (so‘zlovchi) ning ijtimoiy kelib chiqishi ayrim sohaga xos shevada ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ayniqsa bu Hindistondagi tabaqalarning shevalarida kuzatiladi. Shuningdek erkaklar va ayollar orasidagi nutqda ham buni uchratishimiz mumkin.

II. Qabul qiluvchi (tinglovchi)ning ijtimoiy kelib chiqishi ko‘proq Sharq tillariga xosdir. Masalan, yoshi kattalarga murojaat qilinayotganda hurmat belgisi sifatida alohida shevada so‘zlanadi. Yana bir o‘ziga xos nutq uslubi “bolalar nutqi” bo‘lib, bu bolalarning so‘zlash uslubi emas, balki kattalarning bolalarga gapirish usuli ham bir qancha tillarga xosdir. Tinglovchiga taaluqli bo‘lgan nutq turi yana hindlarga aloqador bu maxsus usul bukri, bir ko‘zi so‘qir, pakana odamlar bilan suhbat jarayonida, hattoki ular yo‘qligida ham, ular haqida gapirilganda ham saqlanadi.

III. Uchinchi parameter muhit bo‘lib, u yuqoridagilardan boshqa so‘zlashuvga aloqador barcha elementlarni o‘z ichiga oladi. Deyarli barchat tillarda ijtimoiy muhit tufayli vujudga kelgan atamalar bunga misol bo‘la oladi.

IV. Albatta, yuqorida aytilgan uch parametrni bir -biridan ajratib bo‘lmaydi. Aksincha sotsiolingvistikaning o‘ziga xos turlari bilan o‘zaro bog‘liq. Masalan, hindularning ayollar va erkaklar nutqi so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham bog‘liq. Agar suhbatdoshlar ichida erkak bo‘lsa, erkaklar nutqidan foydalanilsa, ayollar nutqi esa ayollarning o‘zaro tili hisoblaniladi.

To‘liq til etiketi axborot uzatuvchi, qabul qiluvchi va muhit faktorlarga asoslangan bo‘ladi. Shuningdek bu uch xususiyatni ba’zan alohida olib o‘rganishimiz

ham mumkin. Aytaylik, soʻzlovchi yoki tinglovchining yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlik aloqalari ham rol oʻynaydi.

Yuqorida aytib oʻtilgan faktorlar tillar oʻrtasidagi farqni koʻrsatibgina qolmay, tekshirishlarning asosi ham boʻla oladi. Masalan, hindlarning sinfiy dialektlarini oʻrganishda biz ikkala turni ham koʻrishimiz mumkin.

Yana bir muammoli fikr Xyonigsvald tomonidan tashlangan boʻlib Los-Anjelesdagi konferensiyada munozaralarga sabab boʻlgan. Unda aytilishicha insonlar oʻz ona tilida fikrni oʻz tiliga xos bersa, boshqa tilda oʻsha tilga xos xususiyat bilan berishga harakat qiladi. Bu millat tilshunosligi deb atalib, sotsiallingvistikaning qiziqarli mavzularidan biridir. Koʻp davlatlarda aholi orasida nutq “yuqori” va “quyi” nutqlariga ajratiladi, xuddi rasmiy va norasmiy til singari.

Bunday hollarda biz xalq tiliga yengil qaramasligimiz kerak, chunki xalq tili uzoq yillardan beri sayqallanib, dono fikrlar bilan boyib boradi.

VI. Keyingi parametr – turli-tumanlik oʻlchovlari. Bu atama geografik oʻlchovlarga yoki tildagi soʻzlarning soniga ham asoslanmagan. U jamiyatdagi tillarni yoki bir tilning har xil joylarda tarqalgan variantlarini oʻzaro farqlaydi. Bu oʻlchovlarni ham biz uch turga boʻlamiz.

1. Multidialekt – bunda bir tilning bir jamiyat yoki xalq orasida millat tilini oʻrganiladi. Masalan, Buyuk Britaniyadagi yuqori sinf vakillari va bu sinfga kirmaydiganlarning tilidagi farq, shuningdek Janubiy Hindistonning rasmiy va norasmiy tilidagi farqlar kuzatiladi.

2. Koʻp tillilik – bunga bir jamiyatdagi xalqlarning turli tillarda gaplashishi kiradi. Bunday koʻp tillarda gaplashuvchi aholilar Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paragvay mamlakatlarida uchraydi.

3. Ijtimoiy xilma-xillik (multisotsialniy). Bu tilning turli jamiyatlarda ishlatilishida kuzatiladi. Tadqiqotchining vazifasi tilning jamiyatda yoki tilshunoslikdagi farqini oʻrganishdir. Uorfning gipotezasiga koʻra til maʼlum bir jamiyatda madaniyat oʻzgarib borishi bilan oʻzgarib, sayqallanib boradi. Uorfning

farazi ingliz tilini Britaniyada va Amerikada qo'llanilishi va Britaniya ingliz tili va Amerika ingliz tili grammatikasi orasidagi farqlarga mos keladi. Keyinchalik Fisherning (1966) Ponap orolidagi xalqlarning til va jamiyat tuzilishining tahlillarida ko'rishimiz mumkin.

VII. Keyingi parametr - tilning qo'llanilishi. Bunda ham tadqiqotning uch turini ko'rib chiqamiz.

1. Birinchi qo'llanilishi jamiyatshunosning qiziqishlariga mos keladi. Sotsiolingvistikaning faktori – jamiyatning to'liq yoki ayrim qismlarini qamrab olgan tilning ishlanilishi. Masalan, Janubiy Hindistonning sinfiy dialektlarini olsak, u uchga bo'linadi: a) rasmiy; b) ayrim joylarda yashovchi hindlarning tili; d) butun mamlakatning tili.

Til so'zlovchining ijtimoiy kelib chiqishi, gapirilayotgan muhit, tinglovchining shaxsiga bog'liq ravishda tanlanadi.

2. Ikkinchi tur esa til tarixi bilan bog'liq. Bunda quyidagi masalalar o'rta tashlanadi:

Tildagi o'zgarishlar turli ijtimoiy sharoitlarda turlicha bo'ladimi?

Bir tilning turli jamiyatlardagi o'zgarishlari bir xil sur'atda boradimi yoki farq qiladimi?

Ijtimoiy dialektlarda tilning tarixi muhim o'rin tutadimi?

Tadqiqotchi bu savollarga tarix manbalardan yoki tilning rivojlanish tarixidan javob topishi mumkin. Masalan, U.Labovning Nyu-York va MartasVinyard orolidagi til o'rganish jarayonlarini kuzatganidek.

Uchinchi qo'llanilishi til loyihachilariga bog'liq. Tilshunos, maorif xodimlari, huquqshunoslar, qonun chiqaruvchilar, rasmiy tilga aloqasi bo'lgan rahbarlar til loyihachilari hisoblanadi.

Turli tillar va dialektlarda gaplashuvchi aholi jamiyatini o'rganayotgan tadqiqotchi quyidagi savollarga duch keladi: tilning qaysi birliklari rasmiy yoki norasmiy, qaysi so'zlar rasmiy-publistik usulda, qaysi so'zlar keng miqyosdagi

kitobxon uchun yoki ta'lim muassasalari, sud tizimlariga xos bo'lishini aniqlash lozim? Mavjud sharoitda tatbiq etilayotgan rasmiy til qanday bo'lishi mumkin edi?

Xatlar yozilishida o'zgarishlarning sodir bo'lishi yoki ma'lum normalarga amal qilinishi qanday bo'lgan?

Bunday muammolarga til o'rganayotgan odamlar, albatta, hammasi duch keladi. Ayniqsa, Osiyo va Afrika xalqlari yoshlari o'zi yashab turgan jamiyat va undagi normalar turlicha bo'lganligi sababli boshqa tillarni o'rganishdagi shunday muammoga duch keladi. Yuqorida aytib o'tilgan muammolar sotsiolingvistlarning keying yillardagi olib borilayotgan izlanishlarida aks etmoqda. Lekin hali yechimini topishi lozim bo'lgan muammolar talaygina. Yangi tadqiqotlar o'z navbatida yangi dalil, isbotlarni talab qiladi. Shu bilan birga kelgusi tadqiqotlarning istiqboli aniq va ravshan. Sotsiolingvistika yangi davrga yuz tutmoqda. Kelajakda biz tilshunoslar, jamiyatshunoslar va til tarixchilarining hamkorlikda sotsiolingvistika sohasidagi tadqiqot natijalarini, yutuqlarini ko'rishga umid qilamiz.

Sotsiolingvistika tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy nazariy soha. Ushbu muammolarning ayrimlari (mas. "til va jamiyat") umumiy tilshunoslik doirasida ham o'rganiladi. Sotsiolingvistikaning fanlararo maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuyida namoyon bo'ladi. Chunonchi, sotsiolingvistik tahlilning asosiy tushunchasi deb qaraladigan til jamoasi ham ijtimoiy, ham lisoniy belgilar asosida aniqlanadi.

Sotsiolingvistikaning eng muhim tushunchalaridan biri lisoniy vaziyat tushunchasi bo'lib, u muayyan etnik birliklar yoki ma'muriy hududiy birlashmalarda muomala aloqa izchilligini ta'minlaydigan tilning (tillar, mintaqaviy umumiy tillar, hududiy va ijtimoiy lahjalarning) yashash shakllari majmuyi sifatida ta'riflanadi. Lisoniy vaziyatning ekzogloss (turli tillar majmulari) va endogloss (muayyan bir tildagi kichik tizimlar majmulari) guruhlarini farqlanadi.

Hozirgi sotsiolingvistika e'tibor qaratishi zarur bo'lgan eng muhim muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin: til va millatning o'zaro ta'sirlashuvi; til va madaniyatning aloqasi va o'zaro ta'sirlashuvi; bilingvizm (ikki tillilik) va diglossiya (bir tilning bir - biriga ijtimoiy qarshi qo'yilgan turli xil kichik tizimlarining o'zaro ta'siri)ning ijtimoiy jihatlari muammosi; til siyosati muammosi (davlat, ijtimoiy guruhlar tomonidan tillarning yoki til tizimchalarining funksional taqsimlanishini o'zgartirish yoki saklab qolish maqsadida, yangi lisoniy me'yorlarni joriy qilish yoki eskilarini saqlab qolish maqsadida amalga oshiradigan chora-tadbirlar majmui va boshqa

O'zbekistonda fan sifatida Sotsiolingvistika va sotsiolingvistik tadqiqotlar endigina rivojlanib kelmoqsa. O'tgan asrning 70-80-yillaridagi ayrim sotsiolingvistik izlanishlar bir tomonlama — o'sha vaqtdagi til siyosati nuqtayi nazari va talablari asosida olib borilgan.

Til va jamiyatning o'zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika fani o'rganadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi kishilik jamiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Til ham insoniyat tarixi kabi qadimiydir.

Sotsiolingvistika til va odamlar rivojlanadigan madaniy-ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatni va bu nutq uslubiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadigan fan. Boshqa jihatlar qatorida yosh, jins, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy tabaqasi, ma'lumoti, makon va vaqt tilshunoslik aloqalarining rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Ushbu intizom shu paytgacha uni ishlatgan subyekt va ularning sharoitlaridan mustaqil ravishda mavhum tizim sifatida qaraladigan til bo'yicha tadqiqotlar sohasini kengaytirish maqsadida paydo bo'ldi.

Sotsiolingvistika atamasini birinchi bo'lib Xarver Kurri o'z ishida *ishlatgan* Sotsiolingvistikaning proyeksiyasi: nutqning ijtimoiy mavqei bilan aloqasi.

Biroq, 1964-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida tilshunoslar, sotsiologlar va antropologlar o'rtasida ushbu yangi istiqbolni tahlil qilish uchun bir necha

uchrashuvlar bo‘lib o‘tgandan so‘ng, bu intizom jadal rivojlanib, taniqli tadqiqot sohasi sifatida o‘zini namoyon qildi.

Hozirgi vaqtda sotsiolingvistika ikkita keng tarmoqqa bo‘linadi: empirik, u til va u yaratilgan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida ma‘lumot olish bilan shug‘ullanadi va nazariy, ularni tahlil qilish va ular haqida xulosalar chiqarish uchun mas‘uldir.

Til sotsiologiyasi. Ushbu oqim tilning jamoalarga ta’sir qilish va ijtimoiy dinamikaga va individual o‘ziga xoslikka ta’sir qilish usulini o‘rganadi. Buning uchun u bir mintaqada ikki tilning odatiy ishlatilishini (bilingualizm), nega ulardan biri ma‘lum sharoitlarda foydalanishni afzal ko‘rishini (diglossia), tanlov sabablarini va turli tillar o‘rtasidagi aloqani tahlil qiladi.

Aloqa etnografiyasi. Ushbu bo‘lim kichik populyatsiyalardagi kommunikativ o‘zaro ta’sirni va tilning uning a’zolari dunyoqarashiga ta’sir qilish usulini o‘rganadi. Buning uchun u lingvistik tuzilmani va uning jamoada ishlatilishini tartibga soluvchi ijtimoiy, madaniy va psixologik qoidalarni tahlil qiladi.

MA'RUZA: O'ZBEK TILINING NEYROLINGVISTIK, PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

Reja:

- Neyrolingvistika fanining o'rganish obyekti haqida.
- Afaziya.
- Neyrolingvistik dasturlar haqida.
- Tilshunoslikda psixolingvistik yo'nalishning yuzaga kelishi.
- Psixolingvistikaning vazifaviy-struktur aspekti.

Tayanch tushunchalari: *neyrolingvistika, neyron, NLD, lokalizatsiya, afaziya, epilepsiya, o'ng yarimshar, chap yarimshar, parafaziya, fonatsiya, auditsiya, erebratsiya, innervatsiya, psixolingvistika, psixologik ideyalar, deskriptiv tekst, transformatsion tekst, naturalizm, logizm, lisoniy ong, matn, verbal vosita, noverbal vosita.*

Neyrolingvistika uchun boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorlik xosdir:

- lingvistika va psixolingvistika (nutq faoliyati mexanizmlari va ularning shikastlanishini o'rganishni til materiallariga, til birliklari, qurilishi, modellari va ularning psixologik munosabatlariga tayanmasdan amalga oshirish mumkin emas);
- nevrologiya (asab tizimining tuzilishi va faoliyatining me'yoriy va o'zgaruvchanligini o'rganadi);
- nevrologiya bo'limlari- neyrofiziologiya (inson nutqining xulq-atvori uchun mas'ul bo'lgan miya va asab tizimi strukturalarini, bosh miya po'stlog'i va asab tizimida nutqiy faoliyatning to'xtab qolishini aniqlash imkonini beradi).
- neyropsixologiya (psixik jarayonlarning qonuniyatlari, miyaning umumiy funksional tamoyillari, insonning yuksak aqliy vazifalarini, afaziya sabablari, ularning tashxisi va davolash usullari).
- neyroxirurgiya (Luriya neyrolingvistikaga neyroxirurgiya amaliyoti farazlarini tekshirish bo'yicha noyob imkoniyatlarni berishga suyandi, xususan, miyani ochib

bajariladigan yoki tutqanoq kasalligida o'tkaziladigan tajribalar nutq faoliyati va chap yarim shar orasida uzviy aloqalar mavjudligini tasdiqladi);

– logopediya (nutq tizimi mexanizmlarining izdan chiqishini o'rganadigan maxsus o'qitish va tarbiyalash shug'ullanadigan vositalari orqali nutqiy nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish bilan shug'ullanadigan pedagogika fanining sohasi).

Neyrolingvistika fanining o'rganish obyekti haqida. Neyrolingvistika neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan, qo'shilishidan hosil bo'lib, inson miyasida joylashgan nerv hujayralari, neyronlarning tilni, ularning so'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rganadi.

Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo'limi bilan ham uzviy aloqada. So'nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig'ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog'i vujudga keldi.

Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalarini o'rganadi. Sodda qilib aytganda, neyrolingvistikaning o'rganish obyektlaridan biri afaziya, ikkinchisi neyrolingvistik dasturlash (NLP)dir.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi bobokalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va bu kasalni davolashga e'tibor bergan bo'lsalar ham, lekin u alohida fan tarmog'i sifatida esa shakllanmadi.

Miya zararlanishining nutqqa ta'siri muammosi izchil ravishda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganildi.

Neyro psixologiya bilan bog'liq bo'lgan neyrolingvistika maxsus fan sifatida yaqindagina – o'tgan asrning yetmishinchi yillarida shakllandi. Bu fanning vujudga kelishida A.A.Leontev, A.R.Luriya, E.S.Beyn, R.M.Boskis, E.N.Venarskaya, O.S.Vinogradova, N.A.Eysler singari olimlarning xizmati kattadir.

Neyrolingvistika fani bo'yicha to'liq ma'lumot berilgan dastlabki ilmiy adabiyot A.R.Luriya tarafidan yozilgan.

Nutqiy axborot berish jarayoni bo‘lgan kishilarning o‘zaro nutq yordamida bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o‘rganish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan tilshunoslik kishilarning asosiy aloqa vositasi bo‘lgan til va uning bevosita aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni ajratgan holda, ichki tuzilish, tuzilish birliklari, bu tuzilish birliklarining nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, “ichki tuzilish”dan “tashqi tuzilish”ga o‘tishning asosiy bosqichlari va yuqoridagi ikki tuzilishning o‘zaro munosabatlari kabi qator masalalarni atroflicha o‘rgandi.

Inson borliqni ongida aks ettiradi. Aks ettirish sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya esa bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko‘rinadiki, obyektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi.

Nerv sistemasi odatda ikki guruhdagi nerv sistemalarini o‘z ichiga oladi:

- 1) markaziy nerv sistemasi;
- 2) chegara nerv sistemasi.

Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalari markazga qarab yo‘nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma’lumotni beradi. Shuning uchun ham chegara nerv sistemasiga aloqador a’zolari tahlil qiluvchilar (analizatorlar) deyiladi. Ular ko‘rish, eshitish, ta’m-maza a’zolari sanaladi. Har bir analizatorida ikki turdagi nerv strukturasi ajratiladi:

- 1) axborotni mazkur sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi struktura;
- 2) borliq predmetlariga yo‘naltiruvchi struktura (miyaning bilish zonasi).

Uchinchi sath sifatida murakkab anatomik tuzilishga ega bo‘lgan til pardasi zonasi ajraladi. Bu zonada miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilar kompleksi

birlashtiriladi va natijada sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o'tish imkoniyati tug'iladi.

Nutq hosil qilish, til xulqi aks harakat: markazdan chegaraga tomon harakat orqali yuzaga chiqadi. Miya analizatorlari qoplangan zonada shakllangan nutqiy dastur nutq praksizi zonasida konkretlashadi va nutq organlari (shuningdek, yozma nutqni yuzaga chiqaruvchi sistema) ishtirokida proyeksiya harakat sistemalari ko'magida yuzaga keladi.

Miyaning praksiyali, ya'ni sensor yoki harakatlanuvchi sistemalaridan farqli tarzda gnostik praksik parda va pardali analizatorlarni yopish zonasi funksional assimetriya bilan xarakterlanadi: til sistemasi va nutq orqali ifodalangan tafakkur esa uning yarimshari bilan bog'langan.

Inson miyasi judayam murakkab vazifalarni bajaruvchi sistema bo'lib, eng kamida uchta asosiy blok ishtirokida muttasil faoliyat ko'rsatadi. Ulardan biri pardaning tetiklanishini ta'minlaydi va tanlash, selektiv faoliyat shaklining uzoq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Boshqasi axborotni olish, qayta ishlash va saqlashni ta'minlaydi. Uchinchi esa faoliyatni programmalashtirish, boshqarish va nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Yuqorida bayon qilingan bloklarning zararlanishi ularning bir me'yordagi vazifasiga salbiy ta'sir qiladi. Birinchi blokka mansub apparatlarning zararlanishi psixik faoliyatni tanlash, selektiv imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchi blok apparatlarining zararlanishi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash qobiliyatini yo'qotadi. Uchinchi blokning zararlanishi programmalashtirish, barqaror ravishda boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Ko'rinadiki, miyada bo'ladigan har qanday zararlanish shaxs faoliyatining ma'lum qismiga salbiy ta'sir qiladi. Sensor proyeksiya sistemasining zararlanishi eshitish va ko'rish organining kuchsizlanishiga olib keladi. Buning natijasida og'zaki va yozma nutqni qabul qilish imkoniyati pasayadi. Nutqiy agnoziya holatida bemor ko'rish va eshitish qobiliyatini yaxshi saqlagan holda, ona tilining tovush

“qiyofasi”ni (nutqiy eshitish agnoziyasi) yoki yozma nutqda harf ko‘rinishini “nutqiy ko‘rish agnoziyasi” unutadi. Bunday vaqtda bemor gapirish yoki yozishi mumkin. Nutqiy eshitish agnoziyasiga uchragan bemor o‘qishi, nutqiy ko‘rish agnoziyasiga uchragan bemor esa og‘zaki nutqini tushuntirish mumkin.

Nutqiy apraksiya ro‘y berganda esa buning teskari holatiga duch kelinadi. Bunday vaqtda bemorning nutq organlari harakati va yozish harakati buziladi, tovush va so‘zlarni talaffuz qila olmaydi va yoza olmaydi. Lekin atrofdagi odamlar nutqini tushunish, yozuvlarini o‘qish qobiliyati saqlanib qolishi mumkin.

Analizatorlar yopqichlarining parda zonasi zararlanganda, afaziya holati kuchayadi. Bu vaqtda har qanday nutqiy faoliyat: eshitish, ko‘rish faoliyati ham, talaffuz qilish, o‘qish faoliyati ham so‘nadi. Agar zararlanish manbayi o‘rtacha bo‘lsa bemorning so‘zda tovushni farqlash qobiliyati yo‘qoladi. Fonetik jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlarni aralashtirib yuboradi. Ba‘zan afaziya holatida eshitgan yoki o‘qigan narsalarning ma‘nosini tushunmagan holda mexanik ravishda takrorlashi mumkin.

Afaziya tasniflari ichida eng keng tarqalgani A.R.Luriyaning tasnifidir. Ushbu tasnifga muvofiq afaziyalarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

1. Motor afaziya.
2. Sensor afaziya.
3. Amnestik afaziya.
4. Akustik- mnestik afaziya.

Neyrolingvistikada ikki va ko‘p til egalarining (poliglottlarning) miyasi zararlanishi katta material beradi. Bu vaqtda bemor bir tilni ma‘lum darajada saqlagan holda, ikkinchi tilni butunlay unutish yoki bir necha tillarning elementlarini aralashtirib yuborishi mumkin.

Neyrolingvistika yuqoridagi holatlarni aniqlash bilan, bemorlarni samarali davolash uchun katta imkoniyat yaratib beradi. Lingvistika va tibbiyotning qo‘lga kiritgan yangi-yangi yutuqlari neyrolingvistikaning tekshirish usullarini takomillashtirib boradi. Hozirgi kunda neyrolingvistika psixolingvistika,

neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g'oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, neyrolingvistika insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o'rganishning bir tarmog'i sifatida rivojlanib bormoqda.

Neyrolingvistik dasturlashni bizning tilimizga tarjima qilsak nervlar til va dasturlash degan so'zlar kelib chiqadi. Yoki tushunarli tilda aytadigan bo'lsak, insonni til va so'zlar yordamida dasturlash degan ma'noni beradi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini organgan kishilar neyrolingvistik dasturlashdan foydalanib o'z maqsadlariga yetmoqdalar.

Quyida neyrolingvistik dasturlashning bir necha texnikalari bilan tanishamiz.

Bu texnika NLDning asosi deyish ham mumkin. Chunki uning yordamida insonga xohlaganicha ta'sir ko'rsatish imkoniyati bor va siz uning o'zini tutishini boshqara olasiz. Bu texnika gipnoz qilishning ham asosidir. Boshqa kishini boshqarish uchun oldin unga moslashish kerak bo'ladi. Moslashish maqsadida suhbatdoshingizning harakatlari faqat siz ritmga kirishingiz lozim. Bu suhbatdoshingizning holati, ko'z qarashi va gavdani ushlashi, qo'llarining holati, oyoqlarining holati, nafas olish ritmi va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin bunda uning kayfiyatiga kira olish eng asosiy ahamiyatga ega. Nafas olish ritmiga moslashish katta natijalar beradi.

Suhbatdoshingizning nafas olishini kuzatasiz va u nafas olganda jim turasiz, u nafas chiqarayotgan paytda esa gapirasiz. Natijada uning quyi ongida sizning gaplaringiz xuddi u tomonidan aytilayotganday taassurot qoldiradi. Aytaylik, suhbatdoshingizning jahli chiqyapti va dam solingan sharga o'xshab, shishib turibdi. Sizning maqsadingiz – uni jahldan tushirish. Bu holda siz ham o'z psixikangizni tezlashtirasiz va xuddi jahl qilgandagiday fiziologik holatga kirasiz. Bu sizning suhbatdoshingizga moslashishingiz bo'ladi. Shu holatda u bilan suhbatni davom ettirasiz va suhbat davomida asta-sekin o'z psixikangizni tormozlay borasiz.

Siz tinch holatga o'tganingizda suhbatdoshingiz ham tinchlanib qolganligini ko'rasiz. Agar suhbatdoshingiz jiddiy yuz ko'rinishiga ega bo'lsa, siz ham jiddiylashing va bir oz o'tgandan keyin jilmaya boshlaysiz. Suhbatdoshingiz ham sizga ergashib jilmaya boshlaydi. Bu usul bilan har qanday odamda o'zingiz xohlagan har qanday kayfiyatni paydo qilishingiz mumkin. Eng asosiysi, dastlab suhbatdoshingizning kayfiyatini o'zingizda nusxalay olishingizdir.

Masalan, kichkina jiyanim unga berilgan buyruqlarning hammasini teskarisini qilishni yaxshi ko'radi. Shuning uchun uni uxlatish juda qiyin ish. Unga "uxla" deyishlari bilan uning uyquasi o'chib ketadi. Shunday paytda men u bilan gaplasha boshlayman va uning nafas olishi bilan o'zimmikini sinxronlashtiraman. Ozroq gaplashganimizdan keyin men asta nafas olishimni sekinlashtira boshlayman va shu vaqtda so'zlash tempim ham sekinlasha boradi. Birpas boshqa mavzularda gapirgandan keyin gap orasida esnab, uyqum kelganligini aytaman. Shunda u ham esnay boshlaydi. Men tormozlanishda davom etaveraman va salgina vaqt o'tgandan keyin u uxlab qoladi. Shunday qilib bolani uxlatish jarayoni 4-5 daqiqadan ko'p vaqt olmaydi.

Jamiyat a'zolarining ko'pchiligi bir-birini laqablari orqali taniydi. Laqablar orqali ham insonlarga ta'sir qilish mumkin. Bunday holda albatta yaxshi ma'noga ega va shaxsni ulug'lovchi laqablar bilan kishilarga ijobiy ta'sir qilinsa, kamsituvchi laqablar salbiy ta'sir kuchini ko'rsatadi va shu orqali insonning ong osti faoliyatiga kuchli ta'sir qilinadi.

Bu texnikani qo'llashni uddalasangiz, doimo oshig'ingiz olchi bo'lishi tayin. Uning asosiy maqsadi suhbatdoshingizga biror narsani tanlash ixtiyorini berishingizdadir. Lekin bu tanlov – soxta tanlovdur. Siz taklif qilayotgan variantlar ichidan u faqat sizga kerakli bittasinigina tanlay olsin yoki ikkita variant ham bir xil natija berishi ko'zda tutilsin. Misol uchun, suhbatdoshingiz qandaydir hujjatga imzo qo'yishi lozim. Siz suhbatdoshingizdan – Hujjatga imzo qo'yishga rozimisiz? – deb so'rasangiz u albatta rad qiladi va bunday qilmasligi uchun mingta bahona topa oladi.

Siz unga – Peroli ruchkada imzo chekasizmi yoki sharikli ruchkadami? – deb tanlash imkoniyatini berasiz. Endi u imzo chekish-chekmaslik haqida emas, balki qaysi ruchkada imzo chekish haqida o‘ylay boshlaydi. Siz o‘z mahsulotingizni birovga o‘tkazmoqchisiz, lekin mijozning uni olish niyati yo‘q. Siz undan qaysi ranglisini o‘rab berishingiz kerakligini so‘raysiz.

Bu mijozning olaman-olmayman fikrini qaysi ranglisini olamanga o‘zgartirib yuboradi. Bunday soxta tanlov variantlarini sharoitdan kelib chiqib xohlaganingizcha o‘ylab topishingiz mumkin. Mazkur usullarni tadbirkorlar, savdogarlar ko‘p qo‘llashadi.

Axborotni izlash, topish, to‘plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakat tufayli kelib chiqadigan ruhiy kasalliklarga qarshi ma‘naviy immunitetni mustahkamlashning zamonaviy usullaridan biri neyrolingvistik dasturlashdir.

Neyrolingvistik dasturlashga oid dastlabki ilmiy ish hisobotlari o‘tgan asrning 70-yillarida paydo bo‘lgan. Amerika olimlaridan Jon Grinder va Richard Bendlerlar neyrolingvistik dasturlash asoschilari hisoblanadilar. Neyrolingvistik dasturlash yo‘li bilan kishi ruhiyatiga ta‘sir yetkazuvchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra bunday dasturlar:

– biron narsa yoki hodisadan qo‘rquv hissini yoki boshqa xil noxush hislarni bir soatga qolmay bartaraf etish;

– past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga, o‘zlariga ma‘lum ta‘qiqalar qo‘yib olgan katta yoshdagilarga ulardagi cheklanishlarni bir soatga ham yetmaydigan vaqtda bartaraf qilish;

– chekish, ichkilik, mechkay, uyqusiz bo‘lish kabi ko‘ngilsiz qusurlardan bir nechta seansdan so‘ng qutulishlik;

– qattiq ruhiy tushkunlik bilan ifodalanuvchi kasalliklarni bir nechta seansdan so‘ng yo‘qotish va shular kabi yana bir qancha holatlarni bartaraf etish imkonini beradi. Kuzatishlar yana shu narsani ham tasdiqlaydiki, yuksak axloqiy did bilan

tanlab ko'p kitob o'qigan kishilarning mafkuraviy immuniteti yetarlicha mustahkam bo'ladi.

Tilshunoslikda psixologik yo'nalish bilan bog'liq muammolar naturalistik va logik ta'lim egalarining xatti-harakatlari bilan bog'liq ravishda kirib kelgan. Bu borada V. fon Gumboldt konsepsiyasiga e'tibor bergan holda, semantik qurilishda nutqiy ijodiy yondashuv lozimligini ta'kidlashida kuzatiladi. Bu holat psixolingvistika bilan shug'ullangan barcha maktablardagi a'zolarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Mana necha yildirki, psixologiya turli xil aspektlarida nutq o'stirishning, nutqiy ijodiy yondashuvdagi suhbat me'yorlari faoliyatiga aloqadorligi alohida o'rganilgan.

Ma'lumki, psixolingvistika asoschisi nemis tilshunos olim G.Shteyntal (1823-1899) hisoblanadi. Uning "Tillarni tasnif etish va ularning taraqqiyot qonuniyatlarining maqsadi" asari 1850-yilda yozilgan. Undan keyin 1851-yilda yozgan "Tillarning kelib chiqishi", 1855-yilda yozilgan "Grammatika, logika va psixologiya", 1860-yilda yozgan "Muhim tipdagi tillarning tuzilishi xarakteristikasi" asarlarini sanab o'tish lozim. Shuni alohida ta'kidlamoq joizki, lingvistik biologizmning o'ziga xos xususiyatlari Shleyxer ta'limotida o'z ifodasini topgan bo'lsa, logik grammatizm Bekker ta'limotida jonlantirildi. Shteyntal esa o'z ijodiy o'qishlarida bu jarayonni individning xatti-harakati va xalq psixologiyasi taraqqiyotiga tayanib o'rganadi. Tilshunoslik – faqat individning psixologik xarakteri bilan chegaralanmaydi, balki uning nutqini o'rganadi, ayni zamonda xalqning psixologiyasini, uning tilini ham o'rganadi.

Shteyntal ilmiy qarashlariga Potebnya va Paul, Boduen de Kurtene ham Sossyur, Sepira va Sherbalar e'tibor qaratadi. Biroq psixolingvistika bir xalq misolida rivoj topgan emas.

Potebnya va Paul qarashlarida psixologik asosi gapning semantik qurilishi, grammatik kategoriyalari, tilning leksik ma'nolari uchun xizmat qiladi. Psixologik

tushunchalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog‘liqligini, shuningdek, tilning tarixiy-madaniy faktor ekanligini ifoda etadi.

Boduen de Kurtene va F.Sossyur nutqiy ijodiy yondashuvning ijtimoiy xarakter kasb etishini alohida ta’kidlashadi. Bu konsepsiya turli xil individual-leksik birliklarning paydo bo‘lish omillarini, ijtimoiy-grammatik assotsiatsiyasining esa uzviy aloqadorligini anglatadi. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, til va nutq muammosiga doir tilning funksional (vazifaviy) belgilarini, shuningdek, til qurilishini va nutqiy-ijodiy yondashuvni o‘rgangan edi.

Ma’lumki, vazifaviy-struktur yo‘nalish psixolingvistika, ya’ni lingvistik psixologiya uchun muhimdir. A.Marti o‘z ishlarida, jumladan, 1908-yilda yozgan “Umumiy grammatika va falsafiy tilni tekshirishning isbotlanganligi”, A.Gardineraning 1932-yilda yozgan “Til va nutqning nazariyasi”, K.Byuleraning 1934-yilda yozgan “Til nazariyasi” asarida aynan vazifaviy-struktur yo‘nalish masalasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ta’kidlash joizki, psixologik idealar lingvistik yo‘nalishlar uchun muhim bo‘lib, psixologizm va nutqiy faoliyatni tushunishni idrok etishda simvolik alomat kasb etadi. Bu logik-ma’noviy tahlilda lingvistik yo‘l bilan amalga oshiriladi.

Psixologik vositalar strukturalizm, etnolingvistik nazariyalar va semiotika yo‘nalishlarida o‘rganilgan va tadqiq etib kelinmoqda. Shunga ko‘ra, psixologik yo‘nalishlarning muhim ko‘rinishlari til uchun xarakterli bo‘lib, psixolingvistikaning yuzaga kelish sababini ta’minlagan. 1954-yilda shu masalaga bag‘ishlangan, ya’ni psixologlar va tilshunoslar hamkorligida AQShning Blumington shahrida seminar bo‘lib o‘tgan edi. 1957-yilda esa Ch.Osgud “Ma’nolar o‘zgarishi”, 1961-yilda esa o‘zining psixolingvistikaga doir muhim bo‘lgan ishi “Psixolingvistika” asarini yaratdi. Amerikalik psixolingvistlar ana shu ishlarga tayanib deskriptiv va transformatsion tekstlarni yuzaga keltirishgan hamda xulq-atvor psixologiyasi,

ayniqsa, “ongdagi xulq-atvor modeli”ni Osgud va uning informatsion nazariyasi hamda matematik nazariyasiga bog‘liq ekanligini isbot qildilar.

Semantik-psixologik qarashlarda nutqiy jarayoni aynan nutqning qurilishi, nutqning vaziyati, shuningdek, nutqning kontekstda tutgan o‘rni masalalari to‘laqonli ravishda o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda. Rus tilshunosligida bu muammolar bilan L.Sherba, L.Vogotskiy kabi olimlar muntazam shug‘ullanib kelishgan. Bir qancha psixolingvistlarni A.Leontev boshqarib kelgan. Natijada 1967-yilda “Psixolingvistika”, 1969-yilda “Psixolingvistik birliklar nutqiy vaziyatning muhim vositalari”, 1969-yilda “Til, nutq, nutqiy faoliyat” deb nomlangan asarlarini yaratgan. Angliyada Fyors Xolideya boshchiligida kontekst vaziyati, nutqiy vaziyat, nutqiy kontekst masalalari bilan bevosita shug‘ullanuvchi maktab yaratilgan. Yaponiyada esa bevosita “tilning paydo bo‘lishi”ni o‘rganuvchi maktab mavjud bo‘lib, u asosan, til va uning inson faoliyatiga aloqadorligini, til va nutqiy jarayonni o‘rganish asosida nima beradi, degan masalalar ustida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Ko‘rinadiki, til jamiyatning asosiy aloqa-aralashuv vositasi sifatida tushuniladi, shuning uchun tilni har tomonlama o‘rganish va tahlil etib berish lozim bo‘ladi. Insonning ijtimoiy-siyosiy qarashlarda tildan va uning elementlaridan foydalanish muhimdir. Bunda til elementlari yordamida osil qilingan ma’nolar til belgilari yordamida ma’no hosil qilib, ular ayni zamonda inson xatti-harakatiga xos tushunchalarni tushunish imkonini beradi.

Lingvistik psixologizmning paydo bo‘lishida naturalizm va logizmning alohida o‘rni bor. Psixologiya ana shu jarayonlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, psixologizm tilning boshqa xususiyatlarini, asosan, uning nutqiy faoliyati bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganadi. Psixologik jarayon bilan biz sotsiolingvistika va struktural tilshunoslikda, lingvosemiotika va matematik lingvistikaning bo‘limlarida tanishib chiqamiz.

Nutqiy faoliyat jarayonini psixofizik aspektlarini tadqiq etish gapiruvchilar tomonidan nutqning fiziologik asosini o‘rganishni taqozo etadi. Tomson bu haqda to‘xtalib, quyidagilarni bayon etadi: “Biz hozirgi zamon tilini tushunish asosida

uning, ya'ni tilning biz tomondan so'zlashuv jarayonida gapirish, fikr yuritish, eshitish, o'z navbatida bizning organizmimizda psixologik faktorlarni yuzaga kelishini ta'minlaydi, umuman til mavjudligi biz uchun psixologik va fiziologik jarayonlarda ma'lum bo'ladi".

Nutqiy faoliyatning fiziologik asosi haqida Blumfild va psixolingvistlar to'xtalib, ularni tarixiy transformatsion sharoit taqozosi bilan bog'lab, nutq tuzilishiga xos deb ta'kidlaydilar.

Lingvistik psixologizmning asosiy maktablari etnolingvistika va psixologik sotsiolingvistika, semantik psixologizm, psixologiya, nutq va psixolingvistika masalalari muhim deb qaraladi. Ularning ilmiy qarashlari asosida turli- tuman psixologik maktablarda o'qishlar yuzaga kelgan. Muhimi shundaki, psixologik yo'nalishlarning barchasida psixolingvistikani psixologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida paydo bo'lgan fan sifatida e'tirof etiladi.

Psixolingvistikaga doir adabiyotlarda qayd etilgan shakliy uzilish (rus tilida: *скажност*) ham matnga oid qiziqarli hodisalardan biridir. Ma'lumki, matnda ketma-ket kelgan jumlar mazmunan o'zaro bog'liq bo'ladi. Ana shu bog'liqlik kutilmaganda uzilib qolishi mumkin. O'.Hoshimovning "O'zbek ishi" deb nomlangan hikoyasidan olingan quyidagi parchada mana shu hodisani ko'rish mumkin: *Yo'q, Jumanov Koryaginga emas, deraza tomon intildi. Soqchi eshikdan kirguncha bir hatlab deraza rahiga cho'kkalab oldi. Shu alpozda bir soniya, atigi bir soniya Koryaginga qaradi. Hozirgina ko'zlarida yonib turgan g'azab ifodasi o'rnida shu qadar chuqur, unsiz nafrat, nochorlik, iztirob... shu qadar teran hayrat bor ediki, Koryaginning yuragi orqaga tortib ketdi.*

– Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov ...

Gapini tugatmasdan derazadan yana g'ira-shira oqshom yorug'i ko'rindi.

Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi. Chuqurlikdagi hovlida, hovuz chetidagi simyog'ochda lampochka yonib turar, Jumanov yaproqlarini chang bosgan archa tagida g'ayritabiiy yonboshlab yotar edi: boshi hovuzning sement qirrasida,

gavdasi qirg'oqda... Koryagin uning jon taslim qilayotib, oyog'ini uch-to'rt silkitganini ko'rdi.

Berilgan mikromatnda xalqimiz kechmishidagi fojiali davrlardan biri – paxta yakkahokimligi vaqtida “o‘zbek ishi” deb atalgan mash’um harakatning qurboniga aylangan shaxs, ya’ni sovxoz direktori Jumanovning tergovchining ma’naviy va jismoniy qiynoqlariga chidolmasdan, o‘zini tergov bo‘layotgan binoning yuqori qavatidan pastga tashlab halok bo‘lishi epizodi tasvirlangan. Agar matndagi jummalarga mantiqiy jihatdan yondashadigan bo‘lsak, uning ikki o‘rnida muayyan jumlar tushirib qoldirilganini ko‘rishimiz mumkin: bu – *Jumanov!* – *Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi.* – *Jumanov...* jumlasidan keyingi *Jumanov deraza rahidan o‘zini pastga otdi* hamda *Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi* jumlasidan oldingi *Koryagin va soqchi yuqori qavatdan pastga tushib, hovliga chiqishdi* jumlaridir. Axborot izchilligi ushbu jummalarni taqozo etsa-da, ularni matn tarkibida qo‘llamaslik matnning mazmuniy yaxlitligiga ta’sir etmagan: retsipient muallif nazarda tutgan propozitsiyalarni matnda ifodalangan vaziyatdan kelib chiqib, o‘zi tiklashi mumkin. Implikatsiyaning bu usuli badiiy matnlarda ko‘p uchraydi. Demak, shakliy uzilish, aytish mumkinki, matn va retsipient munosabatlariga, ya’ni matnning mazmuniy idrokiga oid hodisa bo‘lib, axborot siqqligining yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Matnning psixolingvistik xususiyatlaridan biri interpretativlik hisoblanadi. V.P.Belyanin fikriga ko‘ra, har bir retsipient muayyan matn haqida o‘z interpretatsiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Matn idroki natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, retsipientning ham psixologik xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Muallif bilan retsipient psixologik jihatdan qanchalik yaqin bo‘lsa, ularning matn haqidagi interpretatsiyasi shunchalik muvofiq bo‘ladi.

MA'RUZA: O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH.

O'ZBEK TILINING LINGVOKOGNITIV O'RGANISH

Reja:

1. Rossiya va g'arbda korpus yaratish masalasi.
2. O'zbek tili korpusini yaratish muammolari va vazifalari.
3. Korpus tahlil (korpus analiz) yo'nalishi.
4. Matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari
5. Diskurs tushunchasi.
6. Konsept va uning matn orqali ifodalanishi.

Tayanch tushunchalar: *matematik lingvistika, kampyuter lingvistikasi, korpus, milliy korpus, kiritma, podkorpus, matn, tahrir, nostandart (noleksik) elementlar, kognitiv tilshunoslik, diskurs, kognitiv faoliyat, konsept, definitysiya, konsept tipi, freym, geyshtalt, makropropozitsiya.*

Korpus – bir necha va yoki muayyan bitta tilga oid matnlarning yig'indisiga asoslangan elektron shaklga ega, to'plangan ma'lumot (ya'ni so'rovnomalar)lar tizimi. Milliy korpus – muayyan bir tilning ma'lum vaqt (yoki vaqtlar)dagi maqomini, janrlarini, uslublarini, hududiy hamda ijtimoiy ko'rinishlarini va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Milliy korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan tuziladiki, bu ilmiy tadqiqot va til o'rganish uchun xizmat qiladi.

Jahonning ko'pgina yirik tillari allaqachon ilmiy ishlanganligi, hajmi va ko'lamiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi o'zining milliy korpusiga egadir.

Korpusga kiritilayotgan matnlarning o'ziga xos jihatlari to'g'risida muhim qo'shimcha ma'lumotlarni saqlaydi (bular annotatsiya yoki kiritma ko'rinishidagi matnlardir). Kiritma – korpusning asosiy bosh ma'lumotnomasi bo'lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog'ida mavjud bo'lgan oddiy odatiy matnlar (yoki "kutubxonalar" desak ham bo'ladi) to'plamidan ajratib turadi.

Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma'lumotlarni olish (masalan, leksik, grammatika, aksentologik, til tarixi kabi), zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositasida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilish va siqirlashtirishga xizmat qilishdan iborat. Avvallari tadqiqotchi zarur misollarni qo'lda yozar, bu esa ko'p mehnat talab qiladi.

Hozirda tahlil qilinayotgan materiallarning ko'lami va ma'lumot topish tezligida muammolar bo'lmaydi. Bu esa tadqiqodchi uchun beqiyos imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Milliy korpus til haqidagi bilimlarimiz imkoniyatini, shuningdek, uni statistik tahlil qilishning (o'rganishning), hatto hozirga qadar o'rganilmay kelinayotgan hodisalarning qurilishi va taraqqiyotidagi qonuniyatlarni, mavjud xulosalarga bo'lgan shubhalarni yoki taxminiy hodisalarni aniqlash imkonini beradi. Endilikda tilning grammatik qurilishi, hatto mashhur akademik lug'atlar, hech istiholasiz muayyan tilning milliy korpusi asosida yaratilishi kerak bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan milliy korpus talabgorlari, albatta, muayyan tilning turli sohaları tadqiqotchi–lingvistlari hisoblanadi. Biroq korpusdan foydalanuvchilar professional mutaxassislar bilan chegaralanmaydi. Davr yoki ma'lum muallifning fikrlari, til haqidagi ishonchli statistik ma'lumotlari adabiyotshunoslarni, tarixchilarni va gumanitar bilimlarning turli vakillarini qiziqtirishi mumkin. Milliy korpuslar milliy va chet tillarni o'qitish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadiki, ko'pgina darslik va o'quv rejalari hozirda milliy korpusga moslangan bo'lishi kerak. Korpus ko'magida taniqli mualliflarning notanish so'z yoki grammatik shakllarini ajnabiy ham, maktab o'quvchisi ham, o'qituvchi ham, jurnalist ham, redaktor yoki yozuvchi ham tez va oson tekshirib olishi mumkin bo'ladi.

Demak, milliy korpus kasbidan yoki u oddiy qiziquvchimi, muayyan til korpusining tuzilishi va ishlashidan, undan foydalanuvchilarning millatidan qat'iy nazar, o'rganuvchilar uchun birdek foydalanish imkonini beradi.

Milliy korpus qanday rivojlanadi? Degan savolga kelsak.

Rus tilining milliy korpusi, o'z ichiga XVIII asrning o'rtalaridan to XXI asrning boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr xoh o'tgan, xoh yangi bo'lishidan qat'iy nazar, u sotsiolingvistik ko'rinishdagi badiiy, so'zlashuv, jonli so'zlashuv, qisman dialektal matnlarni tashkil qiladi. Korpusga badiiy qimmatga ega bo'lgan va til o'rgatishga qiziqish uyg'otadigan, original (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (proza va drama, keyinchalik she'riyat ham). Badiiy she'rlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalaridan publisistika, ilmiy ommabop va ilmiy adabiyotlar, shaxsiy chiqishlar (ma'ruzalar), shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, hujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Hozirga vaqtda rus tili milliy korpusi quyidagi kichik-kichik korpus (podkorpus)larni o'z ichiga qamraydi:

1) chuqur annotatsiya (tahlil)langan korpus (bunda har bir gapning morfologik va sintaktik qurilishi uchun tahlil mavjud);

2) rus va ingliz matnlarining parallel korpusi (bunda rus yoki ingliz tillaridagi so'z va so'z birikmalarning tarjimalarini topish mumkin bo'ladi);

3) dialektal matnlar korpusi (bunda Rossiyaning turli hududlarida grammatik xususiyatlariga ko'ra saqlangan dialektik matnlar mavjud);

4) poetik matnlar korpusi (bunda she'riyatning nafaqat leksik va grammatik, balki uning turli janrlari (sonet, epigrama, amfibrax, ularning qofiya turlari) bilan bog'liq jihatlar mavjud);

5) rus tilini o'rganish korpusi (bunda asosiy e'tibor rus tilining maktab programmasiga yo'naltirilgan);

6) og'zaki nutq korpusi (bunda magnit tasmasiga yozib olingan ommaviy va xususiy og'zaki matnlari va 1930-2000-yillardagi kinofilmlar transkrip (talaffuz) matnlari mavjud) va b.

Xullas, korpus tilshunosligi, uning milliy shakllarini yaratish, shuningdek, mavjud tajribalardan kelib chiqib o'zbek milliy korpusining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni keng jamoatchilikka tadbiq qilish mutaxassislarning

galdagi dolzarb vazifalaridan biridir. Natijada o‘zbek tili mumtoz va zamonaviy matnlari, turli janrlarda yaratilgan betakror durdona asarlar “ikkinchi hayot”ga yo‘llanma oladi va kelgusida o‘zbek tilining ham ko‘p ming (ikki yuz, besh yuz ming yoki million) so‘zli lug‘atlarini yaratish imkoni tug‘iladi.

Ma’lumki, dunyo tilshunosligida matnga dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtayi nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Unga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratdi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.Fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.

Antropotsentrizm so‘zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum - markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlarning birikishidan hosil bo‘lgan.

Antropotsentrizm atamasini birinchilardan bo‘lib qadim yunon falsafasida mavjud “Inson – koinot markazidir” deyilgan g‘oyani ilgari suradigani qarashlarga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya, ayniqsa, O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi.

Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtayi nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lgan. Antropotsentrik

paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bogʻliqlikda tadqiq etilgan. Oʻzbek tilshunos olimlarining lingvistik semantika, pragmatik va kognitiv tilshunoslikka tegishli tadqiqotlari oʻzida antropotsentrik yoʻnalish tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

Taʼkidlash lozimki, oʻzbek tilshunosligida matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bagʻishlangan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin oʻzbek tilida yaratilgan matnlar shu vaqtga qadar antropotsentrik aspektda yaxlit holda tadqiq qilingan emas.

Dunyo tilshunosligida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi matn yaratilishi hodisasining talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo boʻlishiga sababchi boʻldi. Xususan, matnni tahlil qilishga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashish bugungi kunda tilshunoslikning yetakchi yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va koʻp jihatlariga ega hodisa hisoblangan matnni tadqiq qilishda soʻzlovchi – matn – tinglovchi (yaʼni, matn muallifi – matnning oʻzi – retsipient boʻlgan tinglovchi shaxs) dan iborat uchlik asosiy obyekt boʻlishi lozimligi koʻplab tadqiqotchilar tomonidan taʼkidlanmoqda.

Taniqli rus tilshunosi Y.N.Karaulov til va shaxs masalalariga bagʻishlangan maqolalar toʻplamiga yozgan soʻzboshisida “Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi” degan fikrni alohida taʼkidlagan edi. Darhaqiqat, til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma boʻlishi bilan birga, soʻzlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy salohiyatini oʻzida toʻliq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matnning tashqi va ichki tuzilishini muayyan millatga mansub til sohiblarining lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi oʻziga xos koʻzguga oʻxshatish mumkin.

Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga eʼtiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yoʻnalishidagi tadqiqotlarda koʻzga

tashlangan bo'lsa, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funksionalizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Prof. Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi”.

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi”.

Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo‘lgan shaxs omilini o‘rganish yuqorida qayd etilgan tilshunoslik sohaları – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtda, tilga antropotsentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda.

Tilshunoslikda e’tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga

qaratiladi. Aytish joizki, ilmiy paradigmgaga “til sohibi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi.

“Til sohibi” tushunchasi hozirgi vaqtda, asosan, quyidagi ma’nolarda ishlatilmoqda:

a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya’ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs;

b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant;

v) o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs;

d) muayyan til vakili.

Hozirgi tadqiqotlarda tilshunoslikning turli yo‘nalishlari inson omili masalasiga o‘z xususiyatidan kelib chiqib yondashmoqda.

Matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy persepsiyasi muammolari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxs – tinglovchi yoki o‘quvchi omilini ham o‘rganish muhimdir. Rus tilshunosi R.I.Galperinning fikriga ko‘ra esa, qog‘ozga yozilib, hali o‘qilmagan matn harakatsiz matndir. Xususan, yozma matn o‘quvchi tomonidan o‘qilmaguncha harakatga kelmaydi, unda ifodalangan mazmun va pragmatik maqsad, ohang orqali yuzaga kelgan kayfiyat retsipient tomonidan tushunilmaydi va his etilmaydi.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o‘rganish tadqiq obyektiga turli jihatlardan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan yondashishni taqozo etadi.

N.I.Jinkin ta’biri bilan aytganda: “Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so‘zlaydi”. Shu sababli ham muayyan shaxs uslubi u yaratgan matnlar

asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning soʻz qoʻllash yoki jumla tuzish mahorati nuqtayi nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi nuqtayi nazaridan oʻrganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.

Maʼlumki, kognitologiya oʻz mohiyatiga koʻra semantika bilan uzviy bogʻliqdir. A.V.Kravchenkoning fikriga koʻra “... kognitiv tilshunoslik oʻz oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qoʻyad”. Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy maʼlumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini oʻrganish oʻzbek tili sohiblarining “tafakkur grammatikasi”ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish oʻzbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Zero, matnda konseptuallashgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham boʻlishi mumkin. Matn yaratilishi jarayonini tadqiq etish orqali N.I.Jinkin tomonidan qayd etilgan universal predmet kodlarining lisoniy shakl olish bosqichlarini tahlil etish mumkinki, bu bosqichlar, xususan, badiiy matn yaratuvchi shaxs faoliyatida oʻziga xos tarzda amal qiladi. Binobarin, muayyan shaxs nutqining lingvokognitiv xususiyatlarini oʻrganish oʻzida koʻp hollarda implitsitlikni namoyon etuvchi badiiy nutq yaratilishi mexanizmiga oid koʻpgina qorongʻi va sirli “hududlarni” yoritish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda koʻplab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamodalar. Muayyan obyekt mohiyatini yoritishda fanlararo hamkorlik oʻz natijalarini bermoqda. Bu kabi yondashuvdan murakkab mavjudot boʻlgan shaxs fenomenining nutqiy faoliyatini tadqiq etishda ham foydalanish eng toʻgʻri yoʻldir. Zero, inson nutqi oʻzi kabi murakkab va koʻp qirrali hodisadir. Bu borada tilshunoslikning turli sohalarda hamkorligi oʻz samaralarini berishi shubhasizdir.

Aytish lozimki, XXI asrning dastlabki yillarida o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi yo‘nalishida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi: matn lingvopoetikasi, mazmuniy persepsiyasi, uning pragmatik, derivatsion va psixolingvistik xususiyatlari, matn modalligi va temporalligi haqida monografik aspektdagi ishlar yuzaga keldi.

Tilshunos olim N.A.Arutyunova ta’biri bilan aytganda, “... bir maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy faoliyat, kishilarning o‘zaro munosabatlarida va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da qatnashuvchi nutq; voqelik bilan munosabatda olingan matn” muammosini hamda lisoniy tafakkur egasi bo‘lgan shaxs faoliyatini o‘zaro aloqadorlikda tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik tahlil tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matnni uning yuzaga kelishi, idrok etilishi va tushunilishi nuqtayi nazaridan o‘rganish matn haqidagi nazariy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi. Diskursiv faoliyat egasi bo‘lgan shaxs intellekti va fikrlash tarzining matn shakliga kirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq etish esa tafakkur modellarining o‘zbek tilidagi in’ikosiga xos xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Fikrimizcha, bunda matnning nutq uslublariga ko‘ra turlaridan biri bo‘lgan badiiy matn tahlili o‘zbek tilshunosligi uchun boy materiallar bera oladi.

Ko‘plab tadqiqotchilarning e’tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlari hisoblanadi. Biz ham bu fikrni e’tirof etgan holda psixolingvistika sohasini ham shu qatorga kiritish lozim, degan fikrni ilgari surish tarafdorimiz. Zero, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya juda ko‘p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Yana shu narsani ta’kidlash lozimki, tadqiq obyektimiz bo‘lgan badiiy matn bevosita psixolingvistik omillarga ham daxldor hisoblanadi. “Psixolingvistika asoslari” kitobining mualliflari I.N.Gorelov, K.F.Sedovlarning ta’kidiga ko‘ra, psixolingvistika tilshunoslikdagi antropotsentrik yo‘nalishning yadrosini tashkil etadi. Shu boisdan mazkur tadqiqotda o‘zbek tilidagi matnlarni uch jihatiga ko‘ra, ya’ni kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari asosida

tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Badiiy uslubda yaratilgan o'zbek tilidagi nasriy va she'riy matnlar tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. O'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari xususida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, o'tgan asrning so'nggi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda ushbu sohaning bir yo'nalishlari mavjud.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko'ra, unda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi subyektlar – so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir.

Kognitsiya tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi.

Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli ta'riflarga ega bo'lgan termin *konsept* hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Mazkur termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, uning hozirgi vaqtdagi izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin. Jumladan, N.Y.Shvedova konsept bu – tushuncha ekanligi, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi.

MA'RUZA: GENDER TILSHUNOSLIK. EKOLINGVISTIKA

Reja:

1. Gender va madaniyat.
2. Tilshunoslikda "Jins" tushunchasi.
3. Gender tenglik masalasi.
4. O'zbek tilshunosligida lingvoekologiya.
5. Lingvistik ekologiya yoki lingoekologiya.

Tayanch tushunchalar: *gender tilshunoslik, jins, nutq qismlari, tabu farazifrey, maskulinlik, gender disforiyasi, gender metaforasi, geminatsiya, me'yor, ekologiya, lingvistika, lingvoekologiya, urf-odat, an'ana, rasm-rusum.*

Rasmiy kommunistik mafkura barham topgach, uning o'rnida vujudga kelgan bo'shliqni an'anaviy qadriyatlar, urf-odatlar egalladi. Qadimgi madaniyat va xotin-qizlarga ularni an'anaviy ravishda ona va xotin deb qarash amaliyoti barcha darajalarda ustunlik qila boshladi. Bunday amaliyot xotin-qizlarning, ayniqsa, qishloq ayollarining ahvoli, tanlash imkoniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xotin-qizlarni kamsituvchi qarashlar va urf-odatlar, aqidalar ba'zan uchrab turadi. Bu boradagi kamchiliklarga barham berish, xotin-qizlarni tom ma'noda yangi, demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining teng huquqli bunyodkoriga aylantirish yo'lida insoniyat ma'naviyati xazinasiga, aniqrog'i, G'arbdagi xotin-qizlarning harakati natijasida gender nazariyasi vujudga keldi.

Ruhshunos R.Unger sex so'zini faqat insonning biologik aspektlari munosabatlariga, gender atamasini esa, qirralari, normalari, o'ziga xosligi, ro'llariga tegishli, yakka va yoqimli hisoblanuvchilarga, jamiyatda kishini erkak yoki ayol deb aniqlovchi iqtisodiy, ruhiy va madaniy aspektlarini muhokama qilishda foydalanishni taklif qiladi. Gender tadqiqotlari – ayollarning xulq-atvori va ayollik xususiyatlarini, ularning ijtimoiy hayotdagi ro'li va ruhiy omillarini hisobga olmaganda, ayollar ijtimoiy tadqiqotlariga yaqin turadi. G.Sillaste ayollarni ishchi kuchi yoki ona va

tarbiyachi sifatida o'rganishdan, ularning ijtimoiy ro'li va ruhiyatini hamma ko'p tomonlarini ijtimoiy tadqiqot qilishga o'tish kerak deb hisoblaydi. Bunday yondashuvda ayollarning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy-madaniy faktorlarini taqqoslash, ayollar psixologiyasi va ayollarga xos jamiyat fikrlarining o'sib borishini yanada chuqurroq o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunda iqtisodiy va siyosiy aspektlari, ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning oiladagi ro'lini inkor etib bo'lmaydi. Bizning qarashimizcha, erkaklarning ustunligi va ayollarning cheklanganligi, ijtimoiy shart-sharoitlarini o'rganish, hozircha gender nazariy tushunchalarini tuzilishida asosiy bo'lib qolmoqda. Kelajakda genderga yondashuv faqat ushbu aspektlarnigina emas, andrologik muammolarni ham hal etish va qo'yish, erkaklar qiyofasini, ijtimoiy shart-sharoitlar tushunchasini, o'tmishda va hozirda erkaklarning ijtimoiy roli va bu qiyofaning tuzilishi, erkaklar psixologiyasi hamda jamiyat fikrini taqqoslash kabi umuminsoniy muammolarni qo'yishi va hal etishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, feminologiyadagi ayollar muammolarini hal etishga tegishli barcha aytilgan narsalar andrologiya fanini tashkil etishi kerak.

Genderologiya fanini, feminologiya va andrologiya fanlarini qo'shish asosida aniqlash mumkin. Ammo genderologiya ikki ilmiy tartib va yondashuvning oddiy yig'indisi, hosilasi emas. Oxir oqibatda genderologiyaning maqsadi, feminologiya kabi otalik jamiyatini onalik jamiyati bilan almashtirish emas, balki, jinslar antogonizmini bartaraf etish va ijtimoiy rivojlanishining yuksalishida ikkala tomon – erkak va ayolni jarangdorligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun faqat ayollar emas, balki, erkaklar ham yanada chuqurroq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. O.Voronina uchta gender nazariyasini ajratib ko'rsatadi. Bu ko'rsatib o'tilgan genderning uchta ishonchli nazariyasi bir-birini inkor etmaydi, aksincha, muammoning turli qirralarini ochib beradi. Birinchi nazariya – genderning ijtimoiy tizim nazariyasi yoki gender tushunchasi ijtimoiy tizim sifatida. Bunda gender shunday aniqlanadi: "Jamiyatning asosiy institutlari tomonidan tuzilgan, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tashkillashtirilgan modeli" sifatida.

Voronina bunday yondashuvning ikki jihatini ajratib ko'rsatadi:

1. Gender ijtimoiylashtirish, mehnat taqsimoti, gender ro'llar tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari o'rtasida tuziladi.

2. Gender individlarning o'zi bilan ularning bir-birini tushunish darajasi (gender identifikatsiyasi), ushbu jamiyatda qabul qilingan norma va ular asosidagi tuzilishlar (kiyimdagi, tashqi ko'rinishdagi, o'zini tushunishdagi va boshqalar) bilan quriladi.

3. Gender yasash – erkaklar va ayollar, o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasida tabiiy bo'lmagan shunday farqlarni yaratish demakdir. Ikkinchi nazariya – gender tushunchasi tarmoq, tuzilma yoki protsess sifatida.

Gender stratifikatsion kategoriya sifatida boshqa stratifikatsion kategoriyalar bilan mos kelishi, sinf, irq, yosh kabi stratifikatsion kategoriyalar qatorida genderni ko'rib chiqish. Uchinchi nazariya – madaniy metafora sifatidagi gender tushunchasi. Erkaklik va ayollik ontologik va gnoseologik darajasida madaniy-ramziy qatorlari elementlari sifatida mavjud bo'ladi: “erkaklarga oidlik” – irqiy tadbirlar, diniy, ilohiylik, madaniyatlilik; “ayollarga oidlik” – sezgirlik, jismoniy gunohkorlik, tabiiy. Bu yerda qiyosiy baholash noaniq. “Erkaklarga oidlik” yoki u bilan ahamiyatli va kuchli hisoblanadi, “ayollarga oidlik” deb aniqlanadiganlari – ikkilamchi. Bu gender tus olgan jinsdan tashqari juft kategoriyalarda: tabiat va madaniyat, sezgirlik va tadbirkorlik, ilohiy va yerlik kabi tarqalmoqda. Jins metaforasi shunday tuziladi va “ayollarga oidlik” jism singari tabiatga tenglashtiriladi. Erkaklar faoliyatini – ruhini tan olish orqali ishg'ol qilinadi. “Gender” atamasi nisbatan yangi tushuncha bo'lsada (1975), fanga unga bog'liq fikr va qarashlar anchadan buyon ma'lum. Gender psixologiyasi tarixida 5 bosqichni ajratish mumkin:

1. Falsafa zaminida genderga xos fikrlarning shakllanishi (qadimgi (antik) davrdan XIX asr oxirigacha);

2. Gender psixologiyasi predmeti va bo'limlarining ajratilishi (XIX asr oxiri XX asr boshlari);

3. “Freyd davri” ya'ni, Z.Freyd va psixoanaliz bilan bog'liq davr (XX asr

boshlari – 1930-yillar);

4. Keng eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo [89] bo‘lishi;

5. Gender psixologiyasining barq urib rivojlanishi davri (1990-yillardan hozirga qadar).

Gender tadqiqotlarining qadimgi davrlari haqida gapirganda Aflotun va Aristotel tilga olinadi. Afinalik Aflotun (mil.avv. 427-347-y.) o‘zining “Bazm”, “Davlat”, “Qonunlar” asarlarida oila-nikoh masalasi, jinslar tengligi masalalariga e’tibor qaratadi. Aflotun androginlar (Adroginlar – erkak va ayollik xususiyatlariga ega mavjudotlar) (yunoncha andros - erkak va gyne yoki gynaikos – ayol) haqidagi afsonaga murojaat etadi: Afsonada aytilishicha, Zevs insonlarning itoatsizligi uchun g‘azablanadi va ularni ikki jinsga bo‘lib yuboradi. Shunday qilib, erkak va ayol – bir butun insonning ikki qismidir va ular faqat birlashsagina (bir-birini sevganda) yaxlitlikka, mukammallikka erishadi. Aflotunning oila yuritish normalari haqidagi fikrlari diqqatga sazovor – masalan, erkaklar faqat 30 yoshdan 55 yoshgacha farzandli bo‘lishlari mumkin. Aholi soni ko‘payib ketgan hollarda uning bir qismini koloniyalarga ko‘chirish lozim. Aflotunning ayolga bo‘lgan munosabati qarama-qarshidir. Salbiy tomondan u quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ayolni tuban mavjudot hisoblaydi, erkakni ayolga muhabbati ham erkakning erkakka bo‘lgan muhabbati – do‘stlik oldida pastdir, majburiy holatdir. Aflotun erkakning ayolga muhabbatini “Razil Afrodita”, erkaklar o‘rtasidagi do‘stlikni “Samoviy Afrodita” deb ataydi. Uning fikricha erkak qo‘rqoq badbaxt umr kechirsa, o‘limidan so‘ng uning ruhi ayolga o‘tadi. Aflotunning ayollarga ijobiy munosabati uning ideal davlat haqidagi ta’limotida aks etadi. Bu davlatda ayollar barcha sohada erkaklar bilan tengdirlar, bundan tashqari uyro‘zg‘or ishlaridan holi, davlat ishlarida faoldir, farzand tarbiyasi uchun esa erkak va ayollar birday mas’uldir. Aristotel (mil.avv. 384-322-y.) o‘zining “Siyosat”, “Hayvonlarning paydo bo‘lishi haqida” va boshqa asarlarida erkak va ayollar munosabatlari, jamiyatda ularning mavqei, ular o‘rtasidagi mehnat taqsimoti,

aholi sonini tartibga solish kabi masalalarda o'z fikrlarini bayon etgan. Uning fikricha, jamiyatda to'laqonli munosabatlar qaror topishi uchun aholi soni kamroq bo'lishi shart. Shuning uchun uni tartibga solish darkor:

a) erkaklarga 37 yoshgacha, ayollarga 18 yoshgacha farzandli bo'lishni ta'qiqlash (bu o'rinda ayollar uchun biologik, erkaklar uchun esa ijtimoiy) balog'atga yetish nazarda tutilgan. Bu ham jinslarga turlicha munosabat hosilasidir;

b) kasal bolalarni o'ldirish (buni qonun bilan mustahkamlash kerak);

v) har bir oila uchun farzand sonini chegaralab qo'yish.

Hozirgi kunda gender lingvistikasida genderning turli jihatlari o'rganilmoqda.

Ularning ayrimlarini alohida ta'kidlab o'tishni lozim topdik:

- gender va intonatsiya;
- gender va urg'u;
- gender va geminatsiya;
- gender va leksik qatlam;
- gender va ma'no ko'chishi;
- gender va morfologik ko'rsatkichlar;
- gender va sintaktik vositalar;
- gender va frazeologizmlar;
- gender va diskurs;
- gender va pragmatika;
- gender va olamning lisoniy manzarasi;
- gender va virtual muloqot;
- gender va paralingvistik vositalar va boshqalar.

Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarning tekshirish obyekti hisoblanadi. Xususan, sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Til qurilishida jinsiy farqlilik uning kaliti va mexanizmini beradi. Gender tilni tahlil qilishda bir qancha yo'nalishlarga murojaat

qiladi:

a) sotsiolingvistika – tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o'rganadi;

b) psixolingvistika – nutqning vujudga kelish mexanizmini, bolalar nutqining shakllanishi jarayonini, nutqning axborot tashish funksiyasi kabi masalalarni o'rganadi;

v) etnolingvistika – tilning shu til egasi bo'lgan etnos madaniyatiga bo'lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani o'rganadi;

g) neyrolingvistika – nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri kabi masalalarni o'rganadi;

d) mentalingvistika – obyektiv olam qismlari va uning til tasavvurlari o'rtasidagi munosabat o'rganiladi.

Demak, yuqorida nomi tilga olingan fanlar chorrahasida gender lingvistikasi sohasidagi fanlar paydo bo'ladi. Gender lingvistikasi o'zbek tilshunosligida endi tetapoya qilib kelayotgan fan sohalaridan biri bo'lib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi. Gender lingvistikasi sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarida kattalar nutqi, o'smirlar nutqi, bolalar nutqiga e'tibor qaratilgani holda, ayol va erkaklar nutqi, o'g'il bolalar va qiz bolalar nutqi, badiiy asarlardagi gender munosabat borasidagi farqlanishlar; ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflaridagi farqlar nazarda tutiladi. Erkaklar va ayollarga xos vaqtni belgilash, erkaklar va ayollarning o'zlariga xos so'zlashuv uslubi, ularning tili va madaniyatidagi farqli jihatlari, genderdan o'zlashgan so'zlarning tilga ta'sir qilishi – dunyo ko'rinishida, til sohasida esa parchalar va mavzular bilan aloqadordir.

Zamonamizning ekologik muammolari xilma-xil: flora va faunani, suv va havo makonini, tuproqni saqlash va ularni texnik va inson ta'siridan himoya qilish. Bu

ro'yxatda alohida o'rin tilni asrab -avaylash va himoya qilish muammosi bo'lib, u jamiyatda katta o'zgarishlar natijasida azob chekdi va tilga ta'sir ko'rsatgan vulgarizatsiya, kriminalizatsiya, klerikalizatsiya, amerikaliklashtirish va boshqa jarayonlarni o'zlashtirdi. Lingvistik ekologiya yoki lingoekologiya kabi fan tilni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga, uning o'ziga xosligi, pokligi uchun kurashishga chaqirilgan.

Lingoekologiya – bu lingvistikaning sotsiolingvistika, etnolingvistika, nutq madaniyati nazariyasi, til tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shakllanish jarayonida lingvistik fan; bir qator boshqa gumanitar fanlar (etnopsixologiya, sotsiologiya, ma'lum bir xalq tarixi, uning madaniyati tarixi) bilan o'zaro aloqada bo'lish va tilshunoslik va nutq degradatsiyasi muammolarini o'rganish.

Lingvistik ekologiya – bu tilshunoslikdagi yo'nalish bo'lib, u til holati, til muhiti va til siyosati, nutq madaniyati va nutq odobi, dinamikasi bilan bog'liq turli masalalarni ko'rib chiqadi. Lingvistik ekologiya sohasi muammolarini o'z ichiga oladi. Insonning ma'naviy muhiti sifatida eng muhim aloqa vositasi sifatida tilni saqlash va hurmat qilish.

Lingoekologik ta'lim – bu bolaning nutqiy va nutq idrokiga ta'siri, uning nutq xulq-atvorini o'rgatish; bu uning ma'naviy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan va nutq madaniyatini shakllantiradigan qulay til va nutq muhitini yaratishdir.

Lingvoekologiya fan sifatida til shaxsining lingvoekologik kompetentsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Til zamonaviy jamiyatning milliy ruhi, kayfiyati, turmush tarzining diqqat markazida va ifodasidir. Til-nutq-zamonaviy jamiyat uchun so'z nima ekanligini tushunish uchun Yevropa hayot falsafasi asosidagi So'zning klassik tushunchasini to'liq tushunish kerak: “Avvalida So'z edi ...” So'z - Xudo, Xudo – Ruhdir. Xudo bu sevgi va bu toifalarning barchasi inson so'zida o'z aksini topgan. “Xalq o'z tilida o'zini eng to'liq va ishonchli fikrini ifodalaydi ...” (I.I.Sreznevskiy). Bugungi kunda bu shuni anglatadiki, odamlarning bag'rikengligi, ma'naviy va jismoniy salomatligi, farovonligi, xalq hayotining barcha shakllari

zamonaviy tilning tuzilishi bilan bog‘liq. Til, eng avvalo, matnlar, og‘zaki voqelik, muloqot va o‘zaro ta‘sir vositasi, uning barcha sohalarida hayotni tashkil etishdir. Og‘zaki matnlarning yig‘indisi adabiyot fanini tashkil qiladi, ammo zamonaviy adabiyotni qamrab olish deyarli mumkin emas, chunki biz juda ko‘p matnlar ichida yashaymiz va hayotimizning noqulayligi yangi axborot jamiyatida hayotning ulkan nutq yuki bilan bog‘liq takliflar. Ruhi asosan tanazzulga uchragan, vulgarlashgan, hayotdan uzoqlashgan jamiyat uzoq muddatli muammolarni hal qila olmaydi. Lingvoekologiya tilshunoslikda XX asrning 90-yillarida paydo bo‘lgan yangi fan bo‘lib, biroq birinchi marta lingvistik kontekstdagi ekologiya tushunchasini amerikalik olim E.Haugen 1972-yilda o‘zining “Til ekologiyasi” asarida qo‘llagan. Garchi so‘nggi 15-17 yil ichida o‘zbek tilining so‘z boyligi kengayib ketgan bo‘lsa-da, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi izohli lug‘atlarga qaraganda, XX asr oxirida paydo bo‘lgan “lingvoekologiya” so‘zi o‘tgan asrda zamonaviy leksikograflarning e‘tiboridan chetda qolgan. Lingvoekologiya – metafan (yunoncha meta – orasida, keyin, orqali).

Oraliq, biror narsaga ergashish, boshqa narsaga o‘tish ma‘nolarini bildiruvchi murakkab so‘zlarning bir qismi), chunki u ikki fan – tilshunoslik va ekologiya tutashgan joyda vujudga kelgan. Tilshunoslik – til haqidagi fan + ekologiya (yunonchadan. - uy) - tirik organizmlar va ularning jamoalarining bir-biri va atrof-muhit bilan aloqasi haqidagi fan. Bu atama 1866-yilda nemis zoologi E.Gekkel tomonidan taklif qilingan. Yigirmanchi asrda atrof-muhitning ifloslanishi va insonning tabiatga halokatli ta‘siri natijasida ekologiya bizning davrimizning global muammosi sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozirgi vaqtda “tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini o‘rganish alohida yo‘nalishda ajratilgan”, bu inson ekologiyasi, chunki inson o‘z qilmishlarining qurboni bo‘lib, o‘zini jismoniy, axloqiy va axloqiy jihatdan yo‘q qiladi. Natijada, XX asrning yangi izohli lug‘atida “ekologiya” tushunchasi allaqachon to‘rtta ma‘noga ega:

1. Biosfera va jamiyatning o‘zaro ta‘sirini o‘rganuvchi murakkab, ijtimoiy yo‘naltirilgan fan.

2. Inson muhiti; tabiat uning faoliyati sohasi sifatida.

3. Inson faoliyatining tabiatga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy fanlar va amaliy chora-tadbirlar majmui; atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish.

4. Nima, nima. O‘tkazilgan. Elementlarning uyg‘un muvozanati tufayli soflik, to‘g‘rilik; bunday tozalikka g‘amxo‘rlik qilish. (Til ekologiyasi).

Tilshunoslik ekologiyasi madaniyat ekologiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan tilshunoslik muammolarini ekologiya fanlari doirasida ko‘rib chiqadigan integratsion fandır. Ushbu yosh fanning ilmiy adabiyotda ikki xil nomi bor – lingvoekologiya va ekolingvistika. Sotsiolektlarni (ijtimoiy muhitga qarab til), shuningdek, til va nutqning rivojlanishiga turli xil ijtimoiy omillarning ta‘sirini o‘rganish, lingvoekologiya milliy tilning ham, uning sotsiolektlarining ham ekologik holatini o‘rganishni tanladi, til va lingvistik shaxsning o‘zi tomonidan shakllangan. lingvoekologiyaning asosiy vazifasi tilning hozirgi holatini, antroponimlarning lingvistik va axborot makonini vayron qilingan lingvistik komponentlar va hodisalarni saqlash, davolash va qayta jonlantirish, shuningdek, ona tilida so‘zlashuvchi sifatida til shaxsini o‘rganish uchun diagnostika qilishdir. Nutqning, kommunikativ faoliyatning yaratuvchisi, uning sa‘y-harakatlari ijobiy bioenergetik maydonlarni yaratishga va “gumanistik, ekologik (ingliz tilidan tarjima qilingan – yashash muhiti) fikrlash tarzini shakllantirishga” yo‘naltirilishi kerak.

Lingvoekologiya:

1. Lingvistik idiomani (etnik til, shevada va hokazo) saqlashga qaratilgan til siyosati. Qoida tariqasida, tilshunoslik lingvistik xilma-xillikni huquqiy himoya qilishni ham, til subyektlarining ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish, ma‘ruzachilar orasida va umuman jamiyatda obro‘sini oshirish bo‘yicha aniq chora -tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

2. XX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan, ekologik dunyoqarashning ajralmas qismi, organik va noorganik mavjudotlarning birgalikda yashashini katta darajada “o‘zaro manfaatli” munosabatlar va ozroq darajada kurash deb biladi. Tilshunoslikka qo‘llaniladigan, bu quyidagilarni anglatadi:

- a) tillarni ularning faoliyati nuqtayi nazaridan o‘rganish;
- b) til hodisalarining xilma-xilligini o‘rganish;
- v) “katta” va “kichik” tillarning birgalikda yashash imkoniyatini tan olish;
- d) til ziddiyatlarini hal qilishga, ta’lim sifatini yaxshilashga, ozchilik tillarini qo‘llab-quvvatlashga va qayta jonlantirishga qaratilgan tadqiqotlarning amaliy xarakteri;
- e) tez o‘zgaruvchan voqelik sharoitida tillar va lingvistik ekologik tizimlarning moslashish strategiyasini o‘rganish;
- f) tillarning mavjud bo‘lishining ijtimoiy kontekstini hisobga olgan holda, yuqori darajadagi hayotiylikni ta’minlovchi omillarni aniqlash.

Masalan, demokratiyasi rivojlangan mamlakatlarda madaniyatlar va tillarning birgalikda yashashi g‘oyasi ustunlik qiladi, bu esa ozchilik tillarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot sohalarida foydalanish erkinligini huquqiy mustahkamlashni emas, balki ma’lum davlatning majburiyatlari (shu jumladan moliyaviy majburiyatlar). Yevropa mamlakatlari uchun lingvokologik choralar Yevropa mintaqaviy yoki ozchilik tillari xartiyasida keltirilgan. Xartiyani ratifikatsiya qilish va keyinchalik imzolash Yevropa hamjamiyatiga a’zo davlatlar uchun majburiydir.

Lingvistik idiomani (etnik til, dialekt va boshqalar) saqlashga qaratilgan til siyosati. Lingvokologiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) lingvistik xilma -xillikni huquqiy himoya qilish;
- 2) til shakllanishlarining ijtimoiy vazifalarini kengaytirish chora -tadbirlari;
- 3) tashuvchilar orasida va umuman jamiyatda obro‘cini oshirish.

2. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida rivojlangan, ekologik dunyoqarashning ajralmas qismi, organik va noorganik mavjudotlarning birgalikda yashashini ko‘p jihatdan o‘zaro manfaatli munosabatlar sifatida va ozroq darajada mavjudlik uchun kurash deb biladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu quyidagilarni anglatadi:

- 1) tillarni o‘z faoliyati doirasida o‘rganish;
- 2) til hodisalarining xilma-xilligini o‘rganish;
- 3) barcha tillarning birgalikda yashash imkoniyatini tan olish;
- 4) til ziddiyatlarini hal qilishga, ta’lim sifatini yaxshilashga, ozchilik tillarini qo‘llab-quvvatlashga va qayta jonlantirishga qaratilgan tadqiqotlarning amaliy xarakteri;
- 5) tillar va lingvistik ekologik tizimlarning adaptiv strategiyasini tadqiq qilish;
- 6) tillarning yuqori darajadagi hayotiyligini ta’minlovchi omillarni aniqlash.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

SEMINAR MASHG‘ULOT MAVZULARI

MAVZU: “ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI”

KURSINING MAQSAD HAMDA VAZIFALARI. UNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. LINGVOKULTUROLOGIYA VA UNING O‘RGANISH OBYEKTI HAQIDA

Reja:

1. O‘zbek nazariy tilshunosligi va uning yutuqlari.
2. Til madaniyat ifodalovchisi va tashuvchisi sifatida.
3. Til birligining madaniy semasi va madaniy foni masalasi.
4. Etnik madaniyat va muloqot madaniyati muammolari.

ESLATMA: Talabalar ushbu rejalar asosida seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishadi va mavzuga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ko‘rsatilgan adabiyotlardan foydalanib, savollarga ham javob berishadi.

Nazariy savollar

1. Zamonaviy tilshunoslik muammolari qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?
2. “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” fanining yechishi lozim bo‘lgan masalalariga qaysilar kiradi?
3. An’anaviy muammolarni sanang?
4. O‘zbek lingvistlari oldidagi dolzarb vazifa nimadan iborat?
5. Zamonaviy tilshunoslik muammolari fani qanday yuzaga kelgan?
6. Zamonaviy tilshunoslik muammolari fanining vazifalari nimalardan iborat?
7. Oliy ta’lim tizimida til o‘qitishdan bosh maqsad nimadan iborat?
8. O‘zbek tilshunosligida hozirda shakllangan yangi yo‘nalishlar?
9. Tilning kommunikativ funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
10. Tilning ekspressiv funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

11. Formal tilshunoslik nima?
12. Strukturaviy grammatika qay tarzda vujudga kelgan?
13. Substansial nima?
14. Gnoseologiya qanday fan?
15. Antroposentrik tilshunoslik haqida ma'lumot bering.
16. Empirizm nima?
17. Enontosemiya nima?
18. Antosemiya nima?
19. Tezaurus lug'atlari deganda nimani tushunasiz?
20. Glossematika qanday metod?
21. Lingvokulturologiya fan sohasi qachon paydo bo'lgan?
22. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotlar kimga borib taqaladi?
23. Lingvokulturologiya sohasini kim uch bosqichga ajratgan?
24. Maslova lingvokulturologiyani qanday bosqichlarga bo'lib o'rgangan?
25. Lingvokulturologiya qachondan dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylana boshlagan?
26. O'.Yusupov Teliya va Vorobyevlarning tasniflarini qanday izohlaydi?
27. Hozirga kelib "madaniyat" atamasining fan va amaliyotning turli sohalarida qancha variantda ishlatilishi ma'lum?
28. Yevropa xalqlari (slavyan va germanlar) quyoshni nimaning belgisi sifatida qarashadi?
29. Arab xalqlarida quyoshga nisbatan qanday qarashlar mavjud?
30. Janubda yashovchi xalqlarning oy haqidagi tasavvurlari?
31. Ruslar oyni nimaga taqqoslashadi?
32. Vetnamliklarning oyga bo'lgan munosabati qanday?
33. O'zbeklarda oy bilan bog'liq bo'lgan qanday o'xshatish va ramzlar mavjud?
34. Hozirgi kunda lingvokulturologiya bo'yicha yaratilgan qo'llanmalar orasida

eng mashhuri kimniki?

35. O‘zbekistonda kimlar lingvokulturologiya sohasi bo‘yicha ko‘plab izlashishlar olib borib, maqolalar yaratmoqdalar?

36. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o‘zlashtirilganda ularga nima deyiladi?

37. Ekzotik leksika (ekzotizmlar) nima?

38. Ekzotizmlar va etnografizmlar nimaning ramzi sanaladi?

39. Nimalarni boshqa tillarga tarjima qilib berish o‘zini oqlamaydi?

40. Lakuna hodisasi nima?

41. Lakuna so‘zining ma’nosi?

42. “Tilning semantik xaritasidagi oq dog‘lar” deb nimaga aytiladi?

43. Mifologiyalashtirilgan til birliklari deb nimaga aytiladi?

44. Arxitep tushunchasi kim tomonidan qachon fanga kiritilgan?

45. Arxitep nima?

46. Tilning paremiologik fondi nima?

47. O‘xshatishlar, ramzlar, stereotiplar nima?

48. O‘xshatishlarning qanday turlari bor?

49. Ramz tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan qanday talqin qilinadi?

50. Sterotip hodisasi kimlarning tadqiqotlarida o‘rganiladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.

2. Qodirova X. The studies on the issue of the semantic and functional features of nicknames in khorezmian dialects // International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 06, volume 98, published June 30, 2021. 543-548-b.

3. Qodirova X. Xorazm shevalarida ayrim diniy laqablar // “Lisoniy meros va ona tili taraqqiyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani, Toshkent –

2019, 127-129-б.

4. Зикриллаев Ғ. Назария – куруқ оғоч // Истиклол ва она тили қурилиши, талқини ҳамда таълими. – Т., 2000.

5. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001.

6. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

8. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Маҳмудова Н., Сувонова Х. Она тили таълимининг долзарб муаммолари // Тил ва адабиёт таълими, 2008 йил, № 9.

9. Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40;

10. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.

11. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.

MAVZU: PRAGMALINGVISTIK TADQIQ. NUTQNING SOTSIAL XUSUSIYATI VA NUTQ VAZIYATI

Reja:

1. Pragmalingvistika va uning tadqiqot doirasi.
2. Nutq vaziyati va nutq.
3. Nutqiy akt.
4. Nutqning sotsial xususiyati va nutq vaziyati.
5. Nutqning sotsiopragmatik sistema ekanligi.
6. Til va shaxs.

ESLATMA: Talabalar ushbu rejalar asosida seminar mashg'ulotiga tayyorlanishadi va mavzuga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib, savollarga ham javob berishadi.

Nazariy savollar

1. Pragmatika haqida ma'lumot bering.
2. Semiotika haqida ma'lumot bering.
3. Matn lingvistikasi haqida R.A.Budagov qanday fikr bildirgan?
4. Bilishning 2 turi haqida dastlabki ma'lumotlar qaysi manbada uchraydi?
5. Georg Gegel qaysi asarida bilish faoliyatining ko'p bosqichli ekanligini aytib o'tgan?
6. Fenomenologiya atamasini izohlang.
7. Fenomenologiya ruhidagi g'oyalar kimlarning ta'limotida sezilarli o'rin egallagan?
8. Empirik tahlil qanday tahlil?
9. Pragmalingvistika tilni qay tarzda o'rganadi?
10. Konstruktivizm qanday oqim?
11. Pragmalingvistikaning tadqiqot obykti nima?

12. Faoliyat nazariyasi nima?
13. “Nazariya quruqlik, hayot daraxti esa yam-yashildir”. Ushbu fikr kimga tegishli?
14. Nutqiy akt nima?
15. Nutqiy akt haqida Jon Syorl qanday fikr bildirgan?
16. Diskurs nima?
17. Intensiya nima?
18. Intensiyaning kim turlarga ajratilgan va ular qaysilar?
19. Nutqiy akt bosqichlari?
20. Perlokutiv akt haqida ma'lumot bering.
21. Illokutiv fe'llarga misol keltiring.
22. Kommunikativ maqsad qanday yo'llar bilan ifodalanadi?
23. Implikatsiya nima?
24. Tagma'no va uning ko'rinishlari?
25. Pressuppozitsiya qanday munosabat?
26. Tagma'no va perssuppozitsiyaning asosiy farqlari?
27. Pragmatik to'siq nima?
28. Verbal ma'no nima?
29. Noverbal ma'no nima?
30. Presuppozitsiya va tagma'noni farqlang.
31. Tilning ijtimoiy tabiati nima?
32. Tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi haqida gapirib bering.
33. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati haqida mulohaza yuriting.
34. Sotsiolingvistika bo'yicha jahon tilshunosligida tadqiqot olib borgan olimlar kimlar?
35. Til va millatning o'zaro ta'sirlanishi nima?
36. Diglossiya nima?

37. Bilingvizm va diglossiyaning muammosi nima?
38. O‘zbekistonda sotsiolingvistik izlanishlar qachondan boshlangan?
39. Sotsiolingvistika nimalarni o‘rganadi?
40. Differensiatsiya va differensiatsiya jarayoni nima?
41. Til taraqqiyotidagi integratsiya jarayoni nimani anglatadi?
42. Sotsiolingvistika atamasini birinchi bo‘lib kim qo‘llagan?
43. Sotsiolingvistikaning nazariy va empirik taraqqiyoti haqida ma’lumot bering.
44. Amerikalik tilshunos Uilyam Labovning sotsiolingvistik qarashlari haqida gapiring.
45. Muloqot qilish usulining 3 darajasi haqida ma’lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliqoriyev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999. 10-19 b.
2. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. – Andijon, 1995.
3. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. – T.: Fan, 1994.
4. Dadaboyev H. A. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – T., 2004.
5. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.
6. Qodirova X. Xorazm laqablarining qo‘llanilishiga ko‘ra turlari // “Научный журнал” №21 (103), часть 3, Интернаука, Москва, №21, 06.2019. 80-82-b.
7. Qodirova X. Xorazm shevalaridagi laqablar va ularni tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyati. //A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Xalqaro anjuman: Toshkent, 2020.
8. Xolbekov A., Idivov S. Sotsiologiya. Lug‘at – T.: Ibn Sino, 1999.
9. Абдурахмонов Х., Мадмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981.
10. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний

перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи. – Тошкент: ЎзМУ, 2008.

11. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. – М., 2001. – С. 14.

12. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010.

13. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001.

14. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995.

16. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014.

17. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008.

18. Словарь социоллингвистических терминов. – М., 2006. – С. 82.

19. Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010.

20. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри. дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2004.

21. Шарофиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987.

22. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009.

MAVZU: O‘ZBEK MILLIY KORPUSI. KOGNITIV TILSHUNOSLIK

Reja:

1. Rossiya va g‘arbda korpus yaratish masalasi.
2. O‘zbek tili korpusini yaratish muammolari va vazifalari.
3. Korpus tahlil (korpus analiz) yo‘nalishi.
4. Matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari
5. Diskurs tushunchasi.
6. Konsept va uning matn orqali ifodalanishi.
7. Kognitiv metaforalar.

ESLATMA: Talabalar ushbu rejalar asosida seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishadi va mavzuga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ko‘rsatilgan adabiyotlardan foydalanib, savollarga ham javob berishadi.

Nazariy savollar

1. Korpus nima?
2. E.Finegen korpusga qanday ta’rif beradi?
3. Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi birinchi omil?
4. Korpus bo‘yicha qidiruv foydalanuvchiga nimalarni aniqlash imkonini beradi?
5. Dunyo tillari bo‘yicha yaratilgan korpuslarning qanday tasniflari mavjud?
6. Rus tili milliy korpusida kiritmalarning necha turidan foydalaniladi?
7. Rus tili milliy korpusida kiritmalar qaysilar?
8. Rus milliy korpusi dastlab qaysi davrni o‘z ichiga olgan?
9. Podkorpus nima?
10. Hozirgi vaqtda rus tili milliy korpusi qanday podkorpuslardan iborat?
11. Chuqur annotatsiyalangan korpus qanday bo‘ladi?
12. Rus va ingliz matnlarining parallel korpusi qanday bo‘ladi?

13. Dialekt matnlar korpusi qanday bo‘ladi?
14. Poetik matnlar korpusi qanday bo‘ladi?
15. Rus tili (yoki boshqa til)ni o‘rganish korpusi qanday bo‘ladi?
16. Og‘zaki nutq korpusi qanday bo‘ladi?
17. Parallel korpus nima?
18. Til korpusiga eng ko‘p ehtiyoj sezuvchi mutaxassis?
19. Korpus asosida ish ko‘radigan eng birinchi soha?
20. Matnlar korpusi nima?
21. Korpus so‘zi qaysi tildan olingan?
22. Matnlar korpusi qanday birliklardan tashkil topishi mumkin?
23. Korpus asosida ma’lum so‘zning chastotasini aniqlashning qanday afzalliklari mavjud?
24. Sipfa qonuniyati nima?
25. Til korpusi yordamida o‘tkazilgan ilk lingvistik tadqiqotlar nimani maqsad qilardi?
26. Korpus juda muhim bo‘lgan va faol qo‘llanadigan soha?
27. Qaysi hodisa korpusning asosiy xususiyatlaridan bo‘lib, ta‘limda yo‘naltirib o‘qitish imkoniyatini ochadi?
28. Rus tilshunoslari qaysi davlat tilshunoslaridan orqada qolganini afsus bilan tan olishadi?
29. Qaysi korpus ingliz, arab, xitoy tillarini qamrab olgan bo‘lib, 2 milliard so‘zdan tashkil topgan?
30. Korpus lingvistikasining asosiy yo‘nalishlari?
31. Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi?
32. Rus tilining milliy korpusi hajmi hozirgi kunda qancha so‘zdan iborat?
33. Ilm-fan doirasida qaysi sayt katta hajmdagi matnlar korpusi sifatida foydalanilmoqda?
34. “Blending nazariyasi” deb nomlanuvchi qarashni yaratgan olimlar kimlar?

35. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining qaysi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi?

36. O‘zbek tilidagi matnlarni uch jihatiga ko‘ra (qaysi jihatlari) tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. U qaysi jihatlar edi?

37. O‘zbek tilidagi matnlarning qaysi xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi?

38. Kognitiv tilshunoslik qachondan boshlab lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi?

39. Kognitiv tilshunoslik tilni qanday o‘rganadi?

40. Kognitiv tilshunoslik qanday tushuncha bilan uzviy bog‘liqdir?

41. Kognitiv tilshunoslikda markaziy o‘rinda turuvchi tushunchalardan yana biri qaysi?

42. Qaysi tushuncha ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi?

43. Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo‘llanuvchi va turli tariflarga ega bo‘lgan termin?

44. Konsept termini tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillarigacha qaysi so‘zga sinonim sifatida ishlatilgan?

45. Konsept standartlashishiga ko‘ra qanday guruhlariga bo‘linadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshmuminov A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi. PhD dis. avtoreferati. – Termiz, 2019.

2. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.

3. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Asian Book Haus, 2020.

4. Будаев Э.В. Когнитивная теория метафоры: генезис и эволюция //

www.pglu.ru/vestnik/detail/php?/

5. Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2004. – 424 с.
6. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.
7. Кубрякова Е.С. Образы мира в сознании человека и слово образовательные категории как их составляющие // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 2006. – Т.65. – №2. – С.11.
8. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.
9. Муҳаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006.
10. Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. – Қарши, 2017.
11. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, “Сангзор”, 2006.
12. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. PhD dis. – Қарши, 2018.
13. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.
14. Шамсиддинов Ҳ. Сўзлар функционал-семантик синонимларининг шаклий ва маъновий табиати. – Тошкент: Университет, 1999.

MAVZU: TILSHUNOSLIKDA GENDEROLINGVISTIKA VA EKOLINGVISTIKA YO‘NALISHI

Reja:

1. Tilshunoslikda “jins” tushunchasi.
2. Gender tenglik masalasi.
3. Erkaklar va ayollar nutqiga xos xususiyatlar.
4. O‘zbek tilshunosligida lingvoekologiya.
5. Lingvistik ekologiya yoki lingvoekologiya.
6. Lingvistik idioma.

ESLATMA: Talabalar ushbu rejalar asosida seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishadi va mavzuga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ko‘rsatilgan adabiyotlardan foydalanib, savollarga ham javob berishadi.

Nazariy savollar

1. Gender lingvistikasining ahamiyati nimada?
2. Gender tilshunoslikda dastlabki tadqiqotchilar kimlar?
3. Gender nazariyasi g‘oyalarini ilgari surgan olimlar?
4. Gender so‘zi qaysi tildan olingan?
5. Gender nima?
6. Kim tomonidan gender muammosiga oid tadqiqotlar 2 guruhga ajratib o‘rgangan?
7. Qaysi fanlar doirasi gender aspektlar tadqiq etilmoqda?
8. Hozirgi kunda genderning qaysi jihatlari o‘rganiladi?
9. Nutqda jinsiy tafovutlar qaysi asrdan boshlab ma’lum holda o‘rganilib boshlandi?

10. “Jinsidan qat’iy nazar, erkak prinsipi ayollarning mantiqiyligi, ratsionalligi va obyektivligi uchun ustuvorliklari bilan erkak mafkurasining g‘oyalari va qadriyat bilan to‘yingan” ushbu jumlar kimga tegishli?

11. Gender tilni tahlil qilishda qaysi yo‘nalishlarga murojaat etilmoqda?

12. Germenevtika so‘zining ma‘nosi?

13. Gender va virtual muloqat, gender va diskurs, gender va pragmatikalar qaysi sohaning o‘rganish obyekti?

14. Gender lingvistikasining rivojlanishi qaysi sohalar bilan bog‘liq?

15. Gender tilshunoslik sohasi o‘zbek tilshunosligida qachon shakllangan?

16. Gender lingvistikasi ilmiy tadqiqot ishlarida erkak va ayol nutqini ajratishda nimalarga e‘tibor qaratiladi?

17. Gender lingvistikasining dolzarb muammolari nimada?

18. Erkak va ayollar nutqining yuzaga kelishida nimalar muhim ahamiyat kasb etadi?

19. Gender muammosiga oid tadqiqotlarning dastlabki yo‘nalishi qanday?

20. Gender tilshunoslik bu nima?

21. Gender lingvistikasida qaysi jihatlar o‘rganilmoqda?

22. Gender muammosiga oid tadqiqotlarning ikkinchi yo‘nalishi qanday ataladi?

23. Gender muammosiga oid tadqiqotlarni nechta yo‘nalishga ajratilib o‘rganiladi?

24. Erkaklar nutqida kun davomida nechta so‘zdan foydalanadi?

25. Mavhum otlar kimlar nutqida ko‘proq ishlatiladi?

26. O‘ziga xos ot va sifatlarni o‘z nutqida kim ko‘proq ishlatiladi?

27. Ayollar noaniqlikni erkaklar nutqiga ko‘ra necha barobar ko‘p ishlatiladi?

28. Kimlar uchun muloqot jarayonida natija muhim hisoblanadi? Nuqtalar o‘rini to‘ldiring?

29. Qaysi jins vakillari suhbatdoshi gapiga aralashish ehtimoli kam va his-tuyg‘ularni tushunadi?

30. O'rtacha erkak kishi ayolni necha soniya diqqat bilan tinglaydi?
31. Tanqidga kimlar o'ch hisoblanadi?
32. O'zbek ayollariga xos bo'lmagan noverbal harakatlarga misollar keltiring?
33. Kimlarning nutqida his-tuyg'ular (qo'rquv, jirkanish, g'azab) aniqroq ko'rinadi?
34. Kimlar uchun aloqa jarayoni juda muhim?
35. Ayollar kun davomida nechta so'zdan foydalanadi?
36. Erkaklar yozma nutqi, yozuvida qaysi so'z turkumlaridan ko'p foydalanadi?
37. Genderning tilda namoyon bo'lishi qaysi bo'limlarda yuzaga keladi?
38. Ekologiya tushunchasining kirib kelishi haqida ma'lumot bering?
39. Ekolingvistik tadqiqotlarning yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi?
40. Butun dunyo tilshunosligidagi eng katta muammo nima?
41. Dunyo tilshunosligining makroekolingvistika yo'nalishida hal etilgan masalalar haqida ma'lumot bering?
42. O'zbek tilshunosligining ekolingvistik muammolari nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?
43. Jahon tilshunosligida ekolingvistikaga oid ilk tadqiqotlar haqida ma'lumot bering?
44. Ekolingvistika yo'nalishlarini boshlab bergan olimlar?
45. Mikrolingvistikada nimalar o'rganiladi?
46. Makrolingvistikaning qamrovi haqida gapiring?
47. O'zbek tilshunosligida ekolingvistik tadqiqotlarni dastlab kimlar boshlab bergan?
48. X.Palvanova qaysi tilshunoslik vakili va u nimani tadqiq qilgan?
49. Z.Djuraboyevaning ekolingvistikaga qo'shgan hissasi?
50. O'zbek tilshunosligida aynan ekolingvistika bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar va ularning izlanishlari haqida ma'lumot bering?
51. Ekolingvistika, til ekologiyasi fanining muammolari haqida ayting?

52. A.Fill qarashlariga ko‘ra ekolingvistikaning asosiy terminologik birliklari haqida ma’lumot bering?

53. M.Pilayeva ekolingvistikani 2 guruhga ajratib o‘rganish kerakligini aytadi. Ular qaysilar?

54. Nutq sofligi nima?

55. Nutqni buzuvchi salbiy hodisalar haqida ma’lumot bering?

56. Mustaqillikdan oldingi yillarda til ekologiyasining buzilishini nimalarda ko‘rish mumkin?

57. Varvarizmlar haqida ma’lumot bering?

58. Destruktivlik nima va uning tilga ta’siri qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haugen E. The Ecology of language \\. – Stanford, 1972.

2. Алихонов Б., Самойлов С., Ибрагимов Р. “Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли луғат”. 2004.

3. Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006.

4. Джурабаева З. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

5. Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория. Введение в гендерные исследования. Часть 1. Учебное пособие. Под ред. Жеребкиной. Харьков. ХГЦИ. «АЛЕТЕЙЯ», СПб., 2001.

6. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т.: Шарк, 2001.

7. Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, коракалпок, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2016.

8. Семчук, Е. В. Лингвоэкология как междисциплинарная наука / Е. В.

Семчук. – Текст : непосредственный // Молодой ученый, 2014. № 4 (63). – С. 1233-1235.

9. Толковый словарь русского языка начала XXI века. Актуальная лексика / Под ред Г.Н.Скляревской. – М.: Эксмо, 2006.

10. Толковый словарь современного русского языка. Языковые изменения конца XX столетия: более 7000 слов и устойчивых словосочетаний / ИЛИ РАМ // Под ред Г.Н.Скляревской. – М.: Астрель; Транзиткнига, 2005.

AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

MAVZU: LINGVOKULTUROLOGIYA VA UNING O‘RGANISH OBYEKTI HAQIDA. SOTSIOLINGVISTIK VA PRAGMALINGVISTIK TADQIQ

Amaliy mashg‘ulotlar uchun mashq va topshiriqlar.

1-mashq. O‘zbek tilidagi aksar so‘zlar semantikasidagi etnomilliy jihatlar o‘zbeklarning turmush tarzi, kasb-kori, urf-odati, iqlim sharoiti bilan bog‘liq ma’nolarni ifodalaydi. Shulardan kelib chiqqan holda quyida keltirilgan so‘zlarni jadvalda mos ustunga joylashtiring.

Milliy gazlamachilik va kiyinish madaniyatiga xos so‘zlar	Pazandalik madaniyatiga xos so‘zlar	Etnografik madaniyatga xos so‘zlar	Etnonimlar

Alak, atlas, kiryuvi, adras, Jaloyir, atala, banoras, maslahatoshi, beqasam, ayron, go‘ja, kulchatoy, Baxrin, Kaltatoy, bo‘z, otako‘rdi, Nayman, otayupatar, olacha, sabzito‘g‘rar, so‘zana, norin, Qang‘il, beshikketti, palov, Qatag‘on, jiyak, do‘ppi, halim, (yuzochar), Qo‘ng‘irot, holva, supraochar, to‘n, somsa, kuyov navkar, Yuz, kelinsalom, chopon, tandir, charlari, Ming, yuzko‘rdi, Qirq.

2-mashq. Topishmoqlarda dunyoni anglashning qadimiy usullaridan biri bo‘lgan antropomorfizm mavjud. Ularda borliqdagi narsa-predmetlar inson qiyofasida aks etadi, voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘ladi. Quyidagi topishmoqlarni izohlang va javobini toping.

- 1. Besh og‘ayni yosh edi, bittasi bebosh edi.*
- 2. Otasi uyda qolar, bolasi bozor borar.*
- 3. Bolalar qarsak chalar, onasi raqsga tushar.*
- 4. Kalta bobom ichkarida, soqollari tashqarida.*

5. *Shum kampir, shumaloq kampir, Ikki beti yumaloq kampir.*
6. *Eshik orqasida beli bog‘liq qul yotar.*
7. *Ikki og‘a-inini bir ustunga bog‘ladim.*
8. *Kichkinagina kelinchak, boshida bor tugunchak.*
9. *Oq yer ochdim, qora bug‘doy sochdim.*
10. *Qora sigir qarab turar, sariq sigir yalab turar.*
11. *Fotima-Zuhra urishadi, merosini bo‘lishadi.*
12. *Yoki, Ikki aka-uka, kindigi bir.*

3-mashq. Lingvomadaniy kodlar ibora va xalq maqollarida ko‘p uchraydi. Kodlar o‘zbek tilshunosligida yetarlicha o‘rganilmagan. Ularda antropomorf, zoomorf, stomatik, predmetli kodlardan foydalanish yuqori darajada bo‘ladi. Quyida keltirilgan maqollardan kodlarni toping va ularni izohlang.

1. Otam bergan zar qamchi, ming yilda ham chirimas. 2. Sabr tagi – sariq oltin. 3. Kekkayish terakka yarashadi. 4. Ona yurtning – oltin beshik. 5. Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi. 6. Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga. 7. Chiqqan qiz chig‘iriqdan tashqari. 8. Insof sari – Baraka. 9. Tappi tappidan uzoqqa tushmaydi. 10. Qush uyda ko‘rganini qiladi. 11. Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimas. 12. Qovun qovundan rang oladi. 13. Tilga ixtiyorsiz, elga e‘tiborsiz. 14. Qizil yuzli yigitning qiz singlisi bo‘lmasin.

4-mashq. O‘.Hoshimovning “Usta ko‘rgan shogird” hikoyasini tinglang va unda keltirilgan 40 dan ortiq maqollarni tahlil qiling. [http://tizim.nammqi.uz/audio-kitob/audio-kitob.php?audio kitob id=422](http://tizim.nammqi.uz/audio-kitob/audio-kitob.php?audio%20kitob%20id=422)

5-mashq. Quyida keltirilgan etnografik tabularni izohlang. Masalan: *Kechqurun uy supurma – oilaga, oila a‘zolariga yomonlik va g‘am keladi. Aslida, ilgargi davrlarda chiroq yorug‘ida uy yaxshi yoritilmagan, shu sababdan uy chala supurilgan va yechqurin uy supurilsa yomon, ya‘ni, chala supuruladi deb qarashgan.*

Supurgini tik qo‘yma; birovning orqasidan uy supurma; suprani yoymagan bo‘lsang, yig‘ma; kechqurin tirnoq olma; oynaga ko‘p boqma; sochingni yoyma;

qaychini ochiq qoldirma; non uvog‘ini yerga tushurma; suvga tuflama; qalampirni qo‘lga berma.

6-mashq. Illokutiv aktni xabar, buyruq, tasdiq, e‘tiroz, ogohlantirish, norozilik kabi ma‘no guruhlarga ajrating. Masalan: *Bunday holga faqat mening onam tushgan deb o‘ylaysizmi?* (e‘tiroz: so‘roq gap orqali maqsadini to‘laroq ifodalagan)

1. Bu yerga boshqa qadam bosmang! 2. Issiq ovqatni suzdim. 3. Kim onasini sevmaydi 4. Sinfga kirasizmi?! 5. Yana osh pishdimi?! 6. Bu yo‘lga kirgan faqat men emas. 7. Ovqat soldim. 8. Ha, hammasini men qildim. 9. Boshqa men uchun imzo qo‘yma. 10. Bu tilshunoslik uchun katta yo‘qotish bo‘ldi. 11. Nega faqat Odilni chetlaysiz? 12. Tegma, issiq.

7-mashq. Jim qolish usuli orqali pragmatik munosabat qanday ahvolga kelganini A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asaridan keltirilgan misollarni tahlil qilib izohlang.

Namuna: *Nima, kasalmisan, qizim, ranging... – so‘radi u va go‘yo yuragini beshafqat pahja g‘ijimlay boshladi.* (O.Muxtor. Bunda jim qolish orqali nutq ishtirokchisining chuqur ruhiy holati bilan bog‘liq ekspressiv akt yuzaga kelgan: anglamaslik mumkin bo‘lmagan holat sodir bo‘lgan, o‘g‘lidan qoraxat kelgan).

1. To‘yda o‘zing xizmat qilmasang bo‘lmaydi, ovsining tamom bo‘lgan... Shoshilishimizning boisi ham shu, bechora qizining to‘yini ko‘rib o‘lsin, – dedi. 2. Yana besh-o‘n tanga pul beraymi? – dedi. Yo‘q, qulluq, – dedi dadam, – avval qarzni uzay... Har kuni bir ikkita o‘roq tashlab ketsangiz bas... 3. Ayam ko‘ziga yosh olib, dadamdan o‘pkaladi. – Shuncha ilmingiz bor ekan, bir og‘iz aytmaydiz... Shuncha bolamizni qora yer bag‘riga qo‘ydik... 4. Obid aka, qo‘ying, ro‘zachilik, iftorga yaqin qoldi... – dedi. Obid tajang to‘xtadi, qizargan ko‘zlari bilan dadamga yeb qo‘ygandek bo‘lib qaradi-yu, choporosta qilib so‘ka boshladi. – He o‘sha... kelgindi! Ko‘chmanchi! Sen ro‘zadan gapirma, sen tutgan ro‘za Harom! 5. Ayam yig‘lab yubordi: – Og‘iroyoqman... Nima bo‘lishini bilmayman. Uydan farishta qochdi... Harom, hammayoq harom... 6. Rost, o‘n bir kishi osilgan edi...

Ibrat qilgan edi... O'n bir kishini osganda ibrat bo'lsin, deb butun Andijondagi bolalarni yig'ib kelgan edi... O'shanda meni Kenjaboyim qo'rqib shaytonlab qolgan edi. 7. Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, – dedi yuzidagi terni artib, – Hmm... soqol ham o'sipti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun juni to'kilib, odam bo'lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

8. Shaftoli shoxi larzon,

Har narsadan qiz arzon.

Bahosini so'rasang,

Qalami ko'ylak bo'z ishton...

8-mashq. O'zingiz yashayotgan hududda ko'p qo'llaniladigan laqablarga misollar keltiring. Keltirgan misollar asosida laqablarning sotsiolingvistikada qanday ahamiyatga ega ekanligini izohlang.

MAVZU: TILSHUNOSLIKDA NEYROLINGVISTIK VA PSIXOLINGVISTIKA YO‘NALISHI

Amaliy mashg‘ulotlar uchun mashq va topshiriqlar.

1-mashq. “O‘tkan kunlar” romanidan olingan parchalarda ajratib ko‘rsatilgan birliklarni afaziyaga uchragan bemorlar anglashi uchun soddalashtiring. Namuna: Yuragi bezillay boshladi iborasi o‘rniga qo‘rqdi so‘zini qo‘llang.

Bu so‘zdan keyin Hasanalining *yuragi bezillay* boshladi. Chunki shu daqiqada qutidor og‘zidan yo rad va yo qabul javobi eshitar edi. Ikkinchi tomonda, kutilmagan bu so‘vchiliqqa ishonishnida, ishonmasnida bilmay shoshib o‘lturgan qutidor ham o‘zining *og‘zig‘a tikilib turg‘uchi* ikki kishiga qanday javob aytish uchun garangsigan edi... Oftob oyim boshqa xotinlarimizdek erining ra‘yi va xohishini, umuman butun shaxsini ehtiram qilg‘uchi bir xotindir. Shuning uchun erining hozirg‘i ra‘yini garchi o‘z tilagiga bus-butun zid topsa ham yolg‘iz “musofirlik” masalasi bilangina gapka xotima bermay, boshqa taraflardan ham kamchiliklar topib asoslik suratda qutidorning Otabekka tomon haroratlanayozg‘an *yuragiga sovuq suv sepmakchi bo‘ldi...* Chunki qutidor, Yusufbek hojining qanday kishi bo‘lg‘anlig‘ini, bu kunda qaysi ishda ekanligini va o‘ziga bo‘lg‘an munosabatini mayda-chuyda tafsilotlari bilan so‘zlab chiqib, so‘zi oxirida: “Yigitning naslini aybsitib bo‘lmaydir, to‘g‘risiga ko‘chkanda bu yigit naslan bizdan allaqancha *yuqorida turadir*”, deb qo‘ydi... Otabek qiziq holatda qoldi: bir turlik titrab ketdi, ko‘zlari qinidan chiqar darajaga yetdi. G‘ayri-ixtiyoriy qo‘zg‘alib o‘lturgandan keyin so‘radi... Oh, opajon, – dedi umidsizcha oyim, – manim bunga ko‘nglim chopmaydir...

2-mashq. Quyidagi holatlarni o‘ziga mos ustunga joylashtiring:

1) fonemalarni farqlamaslik; 2) matnni qayta takrorlaganda to‘liq aytish; 3) intonatsiyani qabul qilish; 4) matn aytganda kalit so‘zlarni unutish; 5) so‘z boyligining oshishi; 6) musiqani anglash; 7) so‘z boyligining kamayishi; 8) mavhum

otlarni tushunmaslik; 9) ko‘p gapirish; 10) matnda kalit so‘zlarni faol qo‘llash; 11) ayol va erkak nutqini farqlamaslik; 12) musiqani anglamaslik.

Miya zararlanishining turlari	Javoblar
O‘ng yarimshar yoqilganda	
Chap yarimshar yoqilganda	

3-mashq. A.Oripovning “Sevgi o‘limi” she‘rini o‘qing va unda o‘quvchiga ta’sir qiluvchi assotsiativ so‘zlarni izohlang.

Yomg‘ir tinmay yog‘di kun bo‘yi,

Yomg‘irli kun kabi ezildi dardim.

Yaydoq ko‘chalarda jim yurgan ko‘yi

Sening izlaringni axtardim.

Ufqlarda esa achchiq bir tuman

Mening ko‘zlarimga quyardi zahar.

Uvishgan qalbimni sokinlik bilan

Ezar edi bo‘m-bo‘sh bu shahar.

Endi sen tutmassan aslo qo‘limni,

O‘tgan sevgim uchun ochmassan aza.

Oh, qanday o‘lim bu sevgi o‘limi,

Unga na qabr bor va na janoza.

4-mashq. Assotsiativ tafakkur turlari asosida jadvalni to‘ldiring.

T/r	Soʻzlar	Joylashish oʻrniga asoslangan assotsiatsiya	Oʻxshatishga asoslangan assotsiatsiya	Zidlikka asoslangan assotsiatsiya
1.	<i>Doʻst</i>	<i>Koʻngil</i>	<i>Yaqin</i>	<i>Dushman</i>
2.	Mehr			
3.	Odob			
4.	Oqibat			
5.	Sevgi			
6.	Farzand			
7.	Ona			
8.	Mushuk			
9.	Ilon			
10.	Ot			

5-mashq. Xotirada joylashgan soʻzlar oʻz oʻrnida boshqa bir tushunchalar bilan bogʻlangan boʻladi. Bu orqali shaxning fikrlash darajasi aniqlanadi. Quyidagi jadvalni toʻldiring va sababini izohlang.

T/r	Soʻz	Belgi ifodasi	Umumiylik	Aloqadorlik	Reaksiyasi	Milliylik
1.	Lola	qizil	gul	togʻ	nozik	Lola sayli
2.	Oq					
3.	Qora					
4.	Taom					
5.	Uy					
6.	Achchiq					
7.	Kuz					
8.	Koʻk					
9.	Olma					
10.	Issiq					
11.	Muz					
12.	Toʻy					
13.	Alla					
14.	Majnun- tol					
15.	Koʻylak					

MAVZU: O‘ZBEK MILLIY KORPUSI. KOGNITIV TILSHUNOSLIK

Amaliy mashg‘ulotlar uchun mashq va topshiriqlar.

1-mashq. “Adashgan ayol” mavzusi asos bo‘lgan badiiy asarlar korpusini yaratish uchun asos bo‘luvchi asarlar ro‘yxatini tuzing.

2-mashq. “Baxtli bolalik” konseptining tezaurus lug‘atini kichik guruhlarga ajralgan holda tuzing.

3-mashq. O‘zbek milliy korpusiga (<http://uzschoolcorpara.uz/#home>) kiring va tanishib chiqib olgan ma’lumotlaringiz yuzasidan hisobot tayyorlang.

4-mashq. Rus tili milliy korpusining veb-sayti (<http://ruscorpora.ru> yoki <http://www.ruscorpora.ru>) ga kirib rus milliy korpus tuzilishi va podkorpuslari haqida ma’lumot bering.

Eslatma: ushbu topshiriqni bajarish vaqtida talabalar kompyuterdan, agar o‘quv xonasida maxsus sharoit bo‘lmasa, uyali aloqa vositalaridan foydalanishlari mumkin.

5-mashq. Quyidagi misollardan kognitiv metaforalarni toping va ularni izohlang.

1. “Ayol kishini ipidan ignasigacha bilaman”, deysizmi? O-o-o, siz daho ekansiz. 2. Ko‘z yoshi sel bo‘ldi. 3. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi. 4. Qalam uning qasosidan nafas oladi. 5. Yo‘lga kiritilmagan yo‘l.

6-mashq. Berilgan parchada ifodalangan konseptni toping.

Katta yo‘l bo‘yida daraxt o‘sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo‘lovchi keldi. Kun issiq, yo‘lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o‘tirib dam oldi... Yo‘lovchi ochiqqan edi. Qarasa, daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtga chiqishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to‘kildi. Yo‘lovchi to‘ygunicha yedi ... Manzil olis edi. Yo‘lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi... Keyin... zahar tang qilib qoldi. Yo‘lovchi daraxt panasiga o‘tdi... So‘ng... yo‘liga ketdi... Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshladi... Bu daraxtning nomi Yaxshilik edi... (O‘.Hoshimov. “Yo‘l bo‘yidagi daraxt”)

7-mashq. Metonimiyaga misollar toping.

1. Bir burchakda, laboratoriya paltolarining to‘plami tushlik rejalarini tuzdi.
2. Qo‘rquv qanot beradi. 3. Men barda to‘xtadim va ikkita er-xotin skotchlarim bor edi. Ular menga hech qanday yaxshilik qilishmadi. Ularning qilgan ishi meni kumush parik haqida o‘ylashga majbur qildi va men uni boshqa ko‘rmadim.

8-mashq. Berilgan matnda qaysi konsept haqida gap ketyapti?

1. Ayting-chi, sharqdan sekundiga besh-yetti metr tezlikda esayotgan shamol o‘n daqiqadan keyin shimolga buriladimi, janubgami? Yarim soatdan keyin izg‘iringa aylanadimi, bo‘rongami?..” (O‘.Hoshimov. “Daho” ekansiz!) 2. Ayol mehri – asaldek totli. Ayol makri – zahardek xavfli. (O‘.Hoshimov. “Mehr va makr”) 3. Ayollar! Yig‘lab ko‘nglingizni bo‘shatishdek ne‘matni ato etgani uchun Yaratganga shukronalar qiling. (O‘.Hoshimov. “Ne‘mat”) 4. Ayol kishiga, avvalo, Ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi. (O‘.Hoshimov. “Mo‘tabar zot”) 5. Ayol shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o‘qiy olgan emas. (O‘.Hoshimov. “Abadiy jumboq”)

9-mashq. Quyida keltirilgan so‘zlar konseptining assotsiativ maydonini shakllantiring.

Bola, moychechak, mehr, do‘st, soch, olma, oila, muhabbat, kitob.

MAVZU: TILSHUNOSLIKDA GENDEROLINGVISTIKA YO‘NALISHI. EKOLINGVISTIKA

Amaliy mashg‘ulotlar uchun mashq va topshiriqlar.

1-mashq. Erkak va ayollar nutqiga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni ajratib yozing.

Burnini yerga ishqamoq, ma-z-z-za, o‘rgulay, dabdalasini chiqarmoq, jig‘ini ezib qo‘ymoq, qoqindiq, abjag‘ini chiqarmoq, girgittan bo‘lay, yulduzni benarvon uradigan, qoqindiq, bashsh-shara, k-a-a-a-atta, aylanay, uz-o-o-o-q, bal-a-a-a-nd, esh-sh-shak, keyinroq borsak bo‘lar ekan, keyinroq boraylik, keyinroq bora qolaylik, keyinroq bora qolaylik, maylimi?, keyinroq borsak nima deysiz?, keyinroq boramiz, keyinroq borsak bo‘ladi, keyinroq ham borsak bo‘ladi, keyinroq borsak ham bo‘laveradi.

2-mashq. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asaridan olingan quyidagi matndagi erkak va ayol nutqiga e‘tibor bering.

1. – O‘zing ahmoqsan! – dedi Komissar zarda bilan. – Necha marta aytdir – kuyovingni sudga ber! Moyagini bir burasa, qizingga dom olib beradi. Yo uchastkasining yarmini kesib beradi. 2. “Bir kamim qizimning kundosh bilan bir hovlida turishi qoluvdi, bolalarini o‘ksitib”, – deb o‘yladi Qurbonoy xola dili og‘rib. 3. – Mayli, – dedi sekin. – Xudoga soldim. Komissar kuldi. Kulishi g‘alati. Xuddi odamni mayna qilgandek “xex-xex-xex”, deydi. 4. – Xudoning sendan boshqa ishi yo‘q! Falonchi bandamning arzi holini eshitaman, deb ko‘zi uchib turibdi. 5. “E-e! Tezroq daf bo‘lsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan ko‘ra...”.

3-mashq. Quyidagi keltirilgan ayollar nutqida qo‘llanilgan, oliy toifa ayollarga murojaat qilishda ishlatilgan tarixiy so‘zlarni izohlang.

Ovsin, dugonajon, egachi, begim, xonim, hazrat, begim, Xolamullo, hazrat momo.

4-mashq. Ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan murojaat shakllarining ma’no ko‘chishini toping.

1. Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qarachi, ko‘zlaringga to‘yib boqay! (Ch. Aytmatov “Jamila”) 2. Qo‘yma, “8-Mart”, qo‘yma! (kolxoz nomi) (T.Murod “Ot kishnagan oqshom”). 3. Xudoyo xudovando, bolaginangning o‘lganini ko‘r, sendaychikin shapkalar!. 4. Dunyoda o‘zimizdan keyin qoladigan tuyog‘imiz. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”).

5-mashq. Ayollar va erkaklar nutqida qo‘llaniluvchi iboralarni jinsni ko‘rsatishiga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajrating:

Nutq sharoitiga ko‘ra har ikki jinsga nisbatan qo‘llana oladigan iboralar.

Faqat erkak jinsiga nisbatan qo‘llanuvchi iboralar.

Faqat ayol jinsiga nisbatan qo‘llanuvchi iboralar.

“Inak buyrak jegan”, “Qari echkidan qo‘rq”, “Burni popraygan”, “Ko‘rasi ko‘rmagan”, “Tirriq bachcha”, “Ustiga ot haydadi”, “Otangning jiligi”, “Ottan tushdi”, “Beti bezraygan”, “Ro‘mol chiydi”, “Oq o‘ragan”, “Bet ochar”, “Shoboz qog‘ir”, “Tilingdan topgir”, “Qora bosqir”, “Dudoring qurig‘ir” .

6-mashq. Murojaat shakllari tasnifida navbatdagi asos adresat ifodalovchi so‘zning tematik maydonidir. Bu jihatdan murojaat shaklini – adresatni ifodalovchi so‘zlarni guruhlarga ajrating.

1. Sizga taraf yo‘q, tog‘a. 2. Jiyan, – dedi Rahmatka qarab, – boshlab uylanishning, albatta, ota-onang uchun bo‘lib ulardan ranjib yurishning o‘rni yo‘q. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”) 3. Shu odatingiz qolmadi-da, opoqi, – dedi kuyinib Zahira hamon devorda turgan Tojixonga, – aytib yuragini ezib nima qilardingiz bechorani. (R.Fayziy “Hazrati inson”). 4. Senga nima bo‘ldi, bolam?” – “Qo‘yaver, aya”. (S.Ahmad “Ufq”). 5. Eh, tentak qizim, qo‘zichog‘im. Yo‘q, xotin, Alisher yozgan xat katta, – dedi Umurzoq ota Xolbibini yupatib. Otasi, qizingiz uyquga ketipti. Dadajon! Nega, axir?.. Shuncha ham chopadimi odam. Oyijon! Nima gap? Xat keldimi? (Sh.Rashidov “G‘oliblar”) 6. Maktab qochib ketmaydi, enajon, – dedi Nazrulla. – Qani kaklik? Momo?! (Sh.Xolmirzayev qissalari). 7. Shundaymi, unda, maylingiz. O‘zi, kelin qayerda, quda? – Ay, qaynim-e, ay, kalla-e! (T.Murod “Ot

kishnagan oqshom”). 8. Qay nuqtada, padari muborak? (X.Sultonov “Saodat sohili”). 9. Qoyil! – Sergey uning yelkasiga qoqdi. – Bayram shu bilan shirin-da, og‘ayni! (“Mash‘al”). 10. Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi. – Yo‘q, o‘zim keldim, boy aka. – Ajablanmangiz, o‘rtoq, – dedi, – bekning mundan keyingi sog‘ligi sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas – to‘g‘ri gap. (“O‘tkan kunlar”). 11. Qoyil! – Sergey uning yelkasiga qoqdi. – Bayram shu bilan shirin-da, og‘ayni! (“Mash‘al”). 12. Barakalla, tasadduq! – deydi Ermon buva jilmayib. – Umringizdan baraka toping... (“Dunyoning ishlari”). 13. Qadrli do‘stlar! – dedi Jo‘raboyev o‘rnidan turib. (“G‘oliblar”). 14. Endi sizlarga bir ko‘nglimni to‘kib solsam, azizlarim, Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. (U.Hamdam “Muvozanat”). 15. Bekor urinyapsan, oshna, men oshimni oshab bo‘ldim.Yugurmasak bo‘lmaydi, og‘aynichalish, qora tortib kelishyapti, yaramaslar. (A.Hakimov “Oqsoq bo‘ri”). 16. Hoy, birodar, turing shaharga keldik, – deb uyg‘otib qoldi. (M.Ismoiliy “Farg‘ona tong otguncha”). 17. Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo‘hton qilmang! To‘riq, kel, haqingni ol! – dedi. (“Ot kishnagan oqshom”)

7-mashq. Milliy tilga, til ekologiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi til birliklarini alohida guruhlariga ajrating.

Shoti, gashir, ok, yest, ko‘k, nejniy, slabiy, moyak, porozit, demak, svejiy, xullas, oliy janoblari, bankrot, love store, it, aylantirdi, zoti oliylari, fast-fud, tanka, sur, zato, shapka, karochi, net, no, kadi.

8-mashq. Quyidagi jadval kataklaridan har birini 10 tadan misol bilan to‘ldiring.

Leksik birlik nomi	Sheva	Varvarizm	Jargon	Sleng
Misollar				

9-mashq. Tilimizga boshqa tillardan kirib kelayotgan so‘zlar jadvalini tuzing. Tilimizga yangi kelgan “begona” so‘zlarning salbiy va ijobiy ma’nolarini ko‘rsatib guruhda tahlil qiling.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH

O'quv jarayonida ta'lim berish sifatini oshirish omillaridan biri fanlarni o'zlashtirish uchun mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish va uni sifatli o'tkazishdan iborat. Chunki hozirgi kunda mustaqil ta'limga va talabaning mustaqil ishiga o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi deb qaraladi. Keyingi yillarda takomillashtirilgan va tasdiqlangan o'quv rejalarida fanlarning asosiy qismi mustaqil ta'limga ajratilayotganligi buning isbotidir. "Talabalarning mustaqil ta'limi o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bu jarayonda ko'nikma, malaka va bilimlarni shakllantirish, kelajakda esa talabaning kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirishi, ijodiy mehnatga qiziqishi va pirovard natijada o'zlashtirishi amalga oshiriladi, o'quv va ilmiy muammolarni hal qilish qobiliyati ta'minlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy vazifasi har qanday shakldagi darslarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik-didaktik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy prinsipi muammoli masalalarni hal qilishda o'z fikrini shakllantirish va talabaning passiv roli bilan muayyan vazifalarni rasmiy bajarishdan kognitiv faoliyatga o'tish bilan barcha talabalarni individual ishlarga o'tkazish bo'lishi kerak". Mustaqil ta'limni faollashtirish uchun bir qator ichki omillar mavjud:

- bajarilgan ishning foydaliligi;
- talabalarning ijodiy faoliyatda ishtirok etishi;
- ta'lim jarayoniga faol usullar (innovatsion, tashkiliy-faol shakllarga asoslangan mashg'ulotlar)ni joriy etuvchi intensiv pedagogikani joriy etish;
- bilimlarni nazorat qilish turlaridan foydalanish.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqari o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatidir.

Talabalar mustaqil ishining maqsadi – semestr davomida fanlarning tizimli o‘rganilishini tashkil etish, olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, navbatdagi darslarga tayyorlash, yangi bilim izlashda – egallashda mustaqillikni hamda aqliy mehnat madaniyatini shakllantirishdan iborat. Uning uchun ajratilgan vaqt ishchi o‘quv rejasi bilan belgilanadi va talaba uchun muayyan fanni o‘rganishga ajratilgan o‘quv soatlari umumiy hajmining 50-60 foizini tashkil etishi mumkin.

Fan mavzularining har biri uchun mashg‘ulotlarning barcha muhim turlari, mustaqil nazariy va amaliy ish uchun vazifalar, o‘quv va ilmiy adabiyot, statistik ma’lumotlar manbalari va boshqalar belgilanadi. Talaba belgilangan tartibda har bir bo‘lim vazifalarini bajarganligi to‘g‘risida hisobot beradi. Talaba tomonidan bajarilgan barcha ishlar kafedrada ishlab chiqilgan va tasdiqlangan mezon asosida baholanadi. har bir mustaqil ish bo‘yicha yetarli ball to‘play olmagan talaba tegishli fanni o‘zlashtirmagan hisoblanadi.

“Zamonaviy tilshunoslik muammolari” fani bo‘yicha talabalarning mustaqil ishi – shu fanning fan dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni ta’minlaydigan auditoriyadan tashqari ishlar majmuidir.

“Zamonaviy tilshunoslik muammolari” fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarning kasb bo‘yicha amaliy faoliyatini erkin va mustaqil ravishda amalga oshirishga hissa qo‘shadigan umumiy madaniy va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan yuqori malakali mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdir.

Fanni o‘qitish doirasida mustaqil ish quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- talabalarning auditoriyada va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda olgan bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlash va kengaytirish;
- fan dasturidagi mavzular bo‘yicha qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni egallash;

– pedagogik faoliyat bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

– o‘zining faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish va anglash qobiliyatini shakllantirish;

– samarali mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mustaqil ishlovchi talabaga yo‘nalishni o‘qituvchi ko‘rsatib boradi. Shunday ekan mustaqil ishini samarali tashkil etishda talabalar quyidagilarga amal qilishlari zarur:

– tizimli yondashish;

– barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

– bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

– tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Talabalar mustaqil ishini baholashda amaldagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi Nizom”ga asoslanadi.

Mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Lingvokulturologiya va uning o‘rganish obyekti haqida.

2. Til madaniyat ifodalovchisi va tashuvchisi sifatida.

3. O‘zbek tilining sotsiopragmatik tadqiqi muammolari.

4. Nutqning sotsiopragmatik sistema ekanligi.

5. Til va shaxs.

6. NLD asoslari.

7. O‘zbek tili korpusini yaratish muammolari va vazifalari.

8. O‘zbek tilining lingvokognitiv o‘rganish muammolari.

9. Konsept va uning matn orqali ifodalanishi.

10. Kognitiv tadqiq metodologiyasi.

11. Kognitiv metaforalar.
12. O‘zbek tilining psixolingvistik tadqiqi muammolari.
13. Tilshunoslikda psixolingvistik yo‘nalishning yuzaga kelishi.
14. Psixolingvistikaning vazifaviy-struktur aspekti.
15. Psixologik komponentlar va uning tilga aks etishi.
16. Neyrolingvistika fanining o‘rganish obyekti haqida.
17. Afaziya. Nevrolingvistik dasturlar haqida.
18. NLD asoslari.
19. Nevrolingvistik dasturlarning sohaviy qo‘llanishga ko‘ra turlari.
20. O‘zaro muloqot va biznesda nevrologvistik dasturlar.
21. Ta’lim tizimida qo‘llaniladigan nevrologvistik dasturlar.
22. Nevrolingvistik terapiya.
23. O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish muammolari.
24. Rossiya va g‘arbda korpus yaratish masalasi.
25. O‘zbek tili korpusini yaratish muammolari va vazifalari.
26. Korpus tahlil (korpus analiz) yo‘nalishi.
27. O‘zbek tilining lingvokognitiv o‘rganish muammolari.
28. Matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari.
29. Diskurs tushunchasi.
30. Konsept va uning matn orqali ifodalanishi.
31. Kognitiv tadqiq metodologiyasi.
32. Kognitiv metaforalar.
33. O‘zbek tilining psixolingvistik tadqiqi muammolari.
34. Tilshunoslikda psixolingvistik yo‘nalishning yuzaga kelishi.
35. Psixolingvistikaning vazifaviy-struktur aspekti.

GLOSSARIY

Adabiy til – umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.

Afaziya – (yunoncha “inkor qo‘shimchasi” va phasis-“fikr” gapira olmaslik, so‘zlash qobiliyatining buzilishi) bosh miyaning shikastlanishi natijasida nutqni to‘liq yoki qisman yo‘qotishdir.

Agnonim – (yunoncha – tushunarsiz, noma'lum) biror tilda muloqot qiluvchilar uchun noma'lum, tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar.

Agnoziya – fahmlash, tushunish qobiliyatiga ega bo‘lmaslik, bunda bemor sezgi a'zolari bilan narsalarni idrok qilolmaydi. Bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining ayrim qismlari zararlanganida kuzatiladi, neyrolingvistikaga oid termin.

Allyuziv nomlar – predsedent nomlarning funksional turlaridan biri. Madaniy – semiotik maydonni o‘zaro tutashtiruvchi vosita.

Amaliy antroponimika – antroponimikaning amaliy muammolar (ism berish, kishi nomlari imlosi va boshqalar) bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i.

Amaliy nomshunoslik – nomshunoslikning atoqli otlarning amaliy muammolari (ism berish, nomni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish, nomlar transkripsiyasi va transliteratsiyasi kabilar) bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i.

An’anaviy muammolar – tilshunoslik tomonidan asrlar davomida yechib kelingan, lison hamda nutq hodisalarini imkoniyat doirasida tadqiqi va hamisha jamiyatning o‘quv-o‘qituv ishlarini talab darajasida tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy ishlar.

Antroponim – (yunoncha antropo – odam, onoma - nom) – kishi ismi, laqabi, familiyasi, taxallusining umumiy nomi.

Apellyativ – (lotincha apellyativum – turdosh ot) – atoqli otga qarama-farshi qo'yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy asos bo'luvchi turdosh va boshqa til leksemalari.

Argo – jargondan farqli o'laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan til.

Atoqli otlar – kishilarning ismlari, familiyalar, otasining ismi, taxalluslar, shuningdek geografik nomlar, planeta va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi.

Biblionim – (yunoncha bibliov – kitob, onoma – atoqli ot) – har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarga berilgan nom (sarlavha). Ideonim turi.

Destruktivlik – (lotincha destructivus – halokatli, buzg'unchi) falsafa fani tarkibida mavjud atamalardan biri bo'lib, biror narsaning me'yoriy tuzilishini buzish va uni yo'q qilish nazarda tutiladi. Tildagi o'zgarishlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Dialektal matnlar korpusi – bunda ma'lum bir davlatning turli hududlaridagi dialektal nutqi ularning grammatik spetsifikatsiyasini saqlangan holdagi yozuvlari kiritiladi, dialektal morfologiya hisobga olingan maxsus qidiruv e'tiborga olinadi.

Diskurs – so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmazligi, bunda shaxs omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir.

Diskurs interpretatsiyasi – nutq tuzilmasini “ichdan” turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo'lgan tahlil ko'rinishlaridan biridir.

Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog'liqdir.

Diskursiv tahlil – tadqiqotchidan ham muallif nuqtayi nazarini, ham retsipient nuqtai nazarini e'tiborga olishni talab qiladi.

Dublet nom – ma'no jihatdan teng bo'lgan ikki yoki undan ortiq atoqli ot.

Ekolingvistika – lingvistika va ekologiyani birlashtiruvchi ilmiy bilim sohasi. Tildagi barcha jarayonlarni saqlab qolishga qaratilgan til siyosati.

Ekologik dastur – tabiatdan foydalanishni boshqarish mexanizmi va vositalarini taraqqiy ettirishga qaratilgan harakatlarni izchil ravishda olib borish, ekologik strategiya va siyosatni asoslab berish.

Ekologik madaniyat – atrof-muhitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan, hamda inson faoliyatining ta'sirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olgan holda foydalanish.

Ekologiya – biologiyaning orgonizmlar bilan muhitning o'zaro munosabatini o'rganuvchi bo'limi. Barcha tirik orgonizmlar va muhitni hayot uchun qulay qiladigan barcha jarayonlarni o'rganadi.

Ekspressiv tagma'no – ko'rinishlarida so'zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his-tuyg'ulari ham qo'shiladi. So'zlovchi propozitsional aktni sodir etar ekan, o'zi qilgan ishlardan g'ururlanish, maqtanish ottenkalari aks etgan yashirin mazmuni propozitsional akt orqali bayon qiladi.

Enatiosemiya – bir so'zning semantik tuzilishida zid ma'nolarning yuzaga kelishi.

Epilepsiya – qo'rquv, hayajon.

Erebratsiya – shaxsiy miya markazida sodir bo'ladigan jarayon.

Etalon – (frans – tushuncha) biror narsaning ideal namunasi, o'lchovi, yoki turi. Bir shaxs yoki narsani boshqa bir shaxs yoki narsaga qiyoslash uchun tanlangan nisbatan barqaror, milliy etnik xususiyatga ega bo'lgan namunaviy obraz.

Etiket – biror jamiyat nutqida tayyor holda qabul qilingan murojat shakli.

Etimalogiya – yunoncha haqiqat, so'zning haqiqiy ma'nosi. Tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishi va tarixini o'rganuvchi bo'lim.

Etnolingvistika — tilshunoslikning til va til egasi bo'lgan xalq orasidagi bog'liqlik hamda munosabatlarni, til rivoji vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganuvchi soha.

Gender – inglizcha “gender” – “zot” so‘zidan olingan bo‘lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo‘lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi; tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisidir; jinsning madaniy niqobi, bizning o‘z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir.

Gender identifikatsiyasi – ma’lum bir madaniyatda amaldagi erkaklik va ayollik ta’riflari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zingizni anglash.

Gender kamsitish – bu odamning jinsi tufayli tengsiz, salbiy munosabatda bo‘lganda paydo bo‘ladi. Garchi, ta’rifga ko‘ra, bunday kamsitish erkaklar yoki ayollarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lsa-da, aslida aynan ikkinchisi unga tez-tez duch keladi.

Gender psixologiya – bu ijtimoiy fanlar tizimida mutlaqo yangi yo‘nalish, u faqat o‘zining ilk qadamlarini boshladi va psixologik bilimlar sohasida mustaqil fan sifatida e’lon qiladi.

Geshtalt - nemischa so‘z bo‘lib, u “obraz, tuzilma, yaxlit shakl” ma’nolarini anglatadi. Geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya’ni biron bir obyektни butunicha idrok qilinishi geshtalt, deb tushuniladi. Geshtaltlar konseptual bog‘lanishlar bo‘lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo‘lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasawurlar mohiyatidir.

Illokutiv akt – maqsadning voqelanish, shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir.

Jargon – biron ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari.

Jins – bu biologik xususiyatlarning birligi bo‘lib, individni muayyan biologik jinsga tegishli deb bilish uchun dastlabki asosdir.

Jinsiy shaxs – insonni (shaxsni) erkak yoki ayol guruhiga mansubligi nuqtai nazaridan tavsiflovchi ijtimoiy o‘ziga xoslikning asosiy tuzilishi, eng muhimi odam o‘zini qanday tasniflashi.

Kiritma – korpusning asosiy bosh ma'lumotnomasi bo'lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog'iga mavjud bo'lgan oddiy matnlar yoki “kutubxonalar” to'plamidan ajratib turadigan, masalan, bir muncha mashhur bo'lgan “Maksim Morshkov kutubxonasi” yoki “Rus vertual kutubxonasi” kabilardan farqlanadigan matnlardir.

Kodlash — kodlash (inglizcha encodings) deb nomlanuvchi voqelikda sodir bo'ladi. Ulardan birini qolip sifatida tanlash to'g'ri bo'lmaydi. Bundan tashqari, dunyodagi hamma tillarni va ular foydalanadigan yozuvlarni, hatto Misr iyerogliflarini ham qo'llay oladigan Unicode kodlash tizimi paydo bo'lganiga ko'p bo'lgani yo'q. Yaratilgan barcha dasturlar hali u bilan ishlashga tayyor emas.

Kognitiv fon – hodisasini metafora, metonimiya, o'xshatish, jonlantirish kabi hodisalar bilan bog'liq holda o'rganish antropotsentrik tilshunoslikning zaruriy muammolaridan biridir.

Kognitiv metaforalar – implikatsiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida so'z, so'z birikmasi, jumla yoki matnda o'z “izini qoldiradi.

Kognitiv tilshunoslik – o'z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Kognitsiya – tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida

Komparativistika — (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik) tilshunoslikda qarindosh tillarni genetik jihatdan o'rganuvchi, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo'yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi soha.

Konsept – mental tushuncha. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Insonning kognitiv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bu hodisani uning tildagi korrelyatlari orqali aniqlash mumkin.

Korpus — til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda

saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta‘minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi.

Lakuna – frans. o‘tish, bo‘sh joy, to‘liq emaslik. Muloqot jarayonida muayyan madaniyatning boshqa madaniyat tomonidan to‘liq yoki qisman anglashilmaydigan o‘ziga xos milliy unsuri.

Lingvodidaktika – u ona tili va xorijiy tilni o‘rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o‘rgatishda lug‘at boyligini ko‘rsata olish, so‘zning qo‘llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik qurilish orqali tushuntirish uchun misollar keltirishda korpus juda zarur.

Lingvomadaniy birliklar – ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, predsedent birliklar, nutqiy etiketlar, lingvomadaniy birliklar.

Lingvopoetika – til va badiiy adabiyotning bog‘liqligini tadqiq etuvchi soha.

Lokal aloqa – matnda yonma-yon kelgan gaplarning mazmunan bog‘lanishidir.

Lokutiv akt – biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo‘li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiyadir.

Matn lingvistikasi – kommunikativ kontekstda kengaytirilgan matnlarni (og‘zaki yoki yozma) tavsiflash va tahlil qilish bilan bog‘liq tilshunoslikning bir bo‘limi.

Matnlar korpusi (“corpus” lotincha “tana” degan ma’noni anglatadi) – bu elektron holda saqlanadigan ma’lum til birliklari bo‘lib, ular tilshunoslar uchun turli xil muammolarni hal etish uchun tatbiq etishda va turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun zaruriyatga qarab turli shakllarda tuziladi.

Milliy korpus – tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxasislari tomonidan tuziladiki, bu ilmiy tadqiqot va til o‘rganish uchun xizmat qiladi.

Milliy predsedent nomlar – bir xalq lingvomadaniyatiga xos bo‘lgan , nutqning turli ko‘rinishlarida ko‘p murojaat qilinadigan mashhurt nomlar.

Neyrolingvistika – neyron va lingvistika soʻzlarining oʻzaro birikuvidan, qoʻshilishidan hosil boʻlib, inson miyasidagi nerv hujayralarining-neyronlarning tilni-soʻzlarni hosil qilishdagi vazifasini oʻrganadi.

Nutqiy akt – maʼlum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir.

Nutqiy etiket – (etiket fransuz. Odob – axloq qoidalari) bu nutq xulq – atvori qoidalari. Til vositalari maʼlum sharoitlarda qoʻllash normalari.

Ogʻzaki nutq korpusiv – ogʻzaki nutq korpusi ommaviy va xususiy ogʻzaki nutqning magnitafon yozuvlari va kinofilmlari transkripsiyalari rasshivrovkasini oʻz ichiga oladi.

Pragmalingvistika – empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy gʻoyalarni oʻzida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yoʻnalishidir.

Pragmatik toʻsiq – ifodaning shakliy hosil boʻlishi bilan bogʻliq hodisa hisoblanadi. Pragmatik toʻsiq ifoda mazmunining toʻgʻri anglanishi uchun hamda soʻzlovchi nazarda tutgan xabar darajasini kamaytiruvchi nutq subyekti haqidagi nomatniy maʼlumotlardir.

Predsedent birliklar – limgvokulturalogiyaning asosiy yoʻnalishlaridan biri. Muayyan til sohibkarigagina yaxshi tanish boʻlgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida tez – tez murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror birikmalar, jumlar va matnlar qayd etiladi.

Psixolingvistika – nutqning vujudga kelish mexanizmini, bolalar nutqining shakllanishi jarayonini, nutqning axborot tashish funksiyasi kabi masalalarni oʻrganadi.

Sinxron sotsiolingvistika – til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni oʻrganadi. Munosabatlar bu aloqaning statikasini, jarayonlar dinamikasini ifodalaydi.

Sleng - ijtimoiy guruhlarining ogʻzaki nutqida qoʻllaniladigan, emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlgan soʻz va iboralar.

Sotsiolingvistika — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy-nazariy soha.

Tezaurus — muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'liq aks ettiradigan lug'at.

Til ekologiyasi – tillar ta'siri, til nisbati va ularning o'zaro harakatini, tilni saqlab qolishni o'rganadi.

Til –jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy, ya'ni qabul qilinishi va qo'llanilishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikishi va bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi

Til sotsiologiyasi – fanlararo chatishgan soha bo'lib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini lingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi.

UMUMIY FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, “Nodirabegim”, 2021.
2. Dadaboyev H. A. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. - T., 2004.
3. Eshmuminov A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi. PhD dis. Avtoreferati. – Termiz, 2019.
4. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2001.
5. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent, - “Noshir”, 2019.
6. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Toshkent, - “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
7. Qodirova X. Ogahiy ijodida qo‘llanilgan laqablarning Xorazm shevasiga ta’siri // “Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar uchun namuna” mavzusida respublika anjumani. Toshkent, 2020
8. Qodirova X. Shaxsning jismoniy kamchiligi bilan bog‘liq laqablarning mavzuiy-semantik xususiyatlari // Filologik tadqiqotlar 2020.
9. Qodirova X. The studies on the issue of the semantic and functional features of nicknames in khorezmian dialects // International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 06, volume 98, published June 30, 2021. 543-548-b.
10. Qodirova X. Xorazm laqablarining qo‘llanilishiga ko‘ra turlari // “Научный журнал” №21 (103), часть 3, Интернаука, Москва, №21, 06.2019. 80-82-b.
11. Qodirova X. Xorazm shevalarida ayrim diniy laqablar // “Lisoniy meros va ona tili taraqqiyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani, Toshkent – 2019, 127-129b.
12. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, 2019. – 245 bet.
13. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. Toshkent, 2004.
14. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ва излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

15. Алихонов Б., Самойлов С., Ибрагимов Р. “Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли луғат” 2004.
16. Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ динамической афазии. – М., 1975.
17. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати Наманган , 2006.
18. Бейн Э.С. , Бурлакова М. К. , Вызель Т. Г. Восстановления речи у больных с афазией. – М. , 1982.
19. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 14.
20. Белянин В. П. Психоллингвистика. -М., 2004.
21. Белянин В.П. Основы психоллингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М: Тривола, 2000. – С. 8-9.
22. Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006, С.11.
23. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 45 б.
24. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.
25. Ворошилова Н.Б. Креолизованный текст: аспекты изучения // Политическая лингвистика. Вып. 20. – Екатеринбург, 2006. – С. 180-189.
26. Вынарский Е. Н. Клинические проблемы афазии. – М. , 1971.
27. Герд А. С. Введение в этнолингвистику: Курс лекций и хрестоматия. — Изд. 2-е испр. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2005.
28. Гидденс Э. Социология. – Т. “Шарқ”. 2002., 185-бет.
29. Джурабаев И. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Дисс... канд. филол. наук. — Ташкент, 1971.
30. Джурабаева З. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фан. номз. ...

дисс. автореф. - Тошкент, 2018.

31. Жўрабоев И. Ўзбек тилида тўй-маросим номлари. — Тошкент: Фан, 1971.

32. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 1999. – С. 25.

33. Қаҳҳорова М. Ўзбек тили этнографизмларининг систем тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ...дисс. –Тошкент, 2009.

34. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

35. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. -М.: Смысл, 1999.

36. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность.-М., 1969.

37. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М. , 1969.

38. Лурия А. Р. Травматическая афазия. – М. , 1947.

39. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М., 1975.

40. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001.

41. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

42. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

43. Маҳмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. -Т., 1992.

44. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, 1995.

45. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Маматов А. ва бошқ. Миллий тилшунослик мустақил ривожланиш йўлида // Маърифат, 2007 йил 21 май.

46. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Маҳмудова Н., Сувонова Х. Она тили

таълимнинг долзарб муаммолари // Тил ва адабиёт таълими, 2008 йил, -№ 9.

47. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010 – Б. 94..

48. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати.-Т., 1988.

49. Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. – Қарши, 2017. – 136 б.

50. Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши //

51. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40.

52. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001.

53. Нуруллаева Ш. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросим номлари: Филол. фанлари номзоди...дисс. –Тошкент, 2001.

54. Нуруллоҳ Олтой. Афғонистон ўзбек адабий тили муаммолари. www.ezgu.org. 2017 йил 25 январь.

55. Олим Кўҳкан. Афғонистон ўзбек тилининг ўтмиши ва бугунги аҳволи // www.turonzamin.org. 2013 йил 10 июнь.

56. Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. - Тошкент, 2016.

57. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

58. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.

59. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” , 2006. – Б. 46.

60. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” , 2008. – Б. 35.

61. Семчук, Е. В. Лингвоэкология как междисциплинарная наука / Е. В. Семчук. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 4 (63). — С. 1233-1235.

62. Словарь социолингвистических терминов. —М., 2006. —С. 82.

63. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.

64. Толковый словарь русского языка начала XXI века. Актуальная лексика / Под ред Г. Н. Складерской. М.: Эксмо, 2006. (Библиотека словарей).

65. Толковый словарь современного русского языка. Языковые изменения конца XX столетия: более 7000 слов и устойчивых словосочетаний / ИЛИ РАМ // Под ред Г.Н.Складерской. М.: Астрель; Транзиткнига, 2005.

66. Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. — Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. — 24 б.

67. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри. дисс. автореф. — Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. — 23 б.

68. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. PhD dis. — Қарши, 2018.

69. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. — Тошкент, 2002.

70. <https://fayllar.org/genderning-ijtimoiy-tavsifi-gender-psixologiyasi-vujudgakelis.html>

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Maʼruza mashgʻulot mavzulari	4
“Zamonaviy tilshunoslik muammolari” kursiga kirish. Oʻzbek tilining lingvokulturologik va sotsiopragmatik tadqiqi	4
Oʻzbek tilining neyrolingvistik, psixolingvistik tadqiqi	37
Oʻzbek tilining milliy korpusini yaratish. Oʻzbek tilining lingvokognitiv oʻrganish	50
Gender tilshunoslik. Ekolingvistika	60
Seminar mashgʻulotlarini tashkil etish	71
“Zamonaviy tilshunoslik muammolari” kursining maqsad hamda vazifalari. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi. Lingvokulturologiya va uning oʻrganish obyekti haqida	71
Pragmalingvistik tadqiq. Nutqning sotsial xususiyati va nutq vaziyati	75
Oʻzbek milliy korpusi. Kognitiv tilshunoslik	79
Tilshunoslikda genderolingvistika va ekolingvistika yoʻnalishi	83
Amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish	88
Lingvokulturologiya va uning oʻrganish obyekti haqida. Sotsiolingvistik va pragmalingvistik tadqiq	88
Tilshunoslikda neyrolingvistik va psixolingvistika yoʻnalishi	92
Oʻzbek milliy korpusi. Kognitiv tilshunoslik	95
Tilshunoslikda genderolingvistika yoʻnalishi. Ekolingvistika	97
Glossariy	104
Umumiy foydalanilgan adabiyotlar	112

X.M.QODIROVA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sirtqi guruh talabalari uchun mo‘ljallangan
uslubiy qo‘llanma

Muharrir: S.Ruzmetov

Kompyuter sahifalovchi: I.Davletova

Nashriyot litsenziyasi № 059763

Bosishga ruxsat etildi: 29.03.2024 yil

Bichimi 60 x 84 ^{1/16}. “Times New Roman”

Ofset bosma usulida chop etildi.

Shartli bosma tabog‘i 7,5. Adadi 100. Buyurtma № 21-05

Тел: (33) 701 12 00, (99) 564 63 20

“Khwarezm travel” MCHJ nashriyoti.

220502, Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko‘chasi 8-yo‘lak 4-uy.

“Khwarezm travel” bosmaxonasida chop etildi.

Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko‘chasi 8-yo‘lak 4-uy.

